

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAHSUS TALIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**«HALQARO BIZNES» FAKULTETI**

**«BOJHONA ISHI» KAFEDRASI**

**A. S. KUCHAROV, Sh. A. TOIROV, D.X.NABIEV**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BOJXONA  
TARIF SIYOSATI**

**O'QUV QO'LLANMA**

5A340501 – «Bojhona ishi» talim yo'nalishi  
magistratura talabalari uchun mo'ljallangan

**Toshkent – 2007**

**A.S.Kucharov, Sh.A.Tirov, D.X.Nabiev** « O'zbekiston Respublikasi bojxona tarif siyosati » fanidan o'quv qo'llanma – T.: TDIU, 2007. 176 bet.

Ushbu o'quv qo'llanmada mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini, uni jahon iqtisodiy ho'jaligiga integrallashuvini taminlovchi davlat siyosatlaridan biri - bojxona tarif siyosatini mohiyatini, mazmunini, shakllanish boskichlarini va uni rivojlanishiga tasir etuvchi asosiy omillari yoritib berilgan, shu bilan birga tashki iqtisodiy faoliyatda moddiy, moliyaviy va intellektual mulk tovarlarini halqaro savdo jarayonlarida almashinishing turli yo'nalishlari, shakllari va vositalari ifodalangan. O'quv qo'llanma 5A340501 – «Bojhona ishi» talim yo'nalishida talim olayotgan magistratura talabalari uchun mo'ljallangan

**Masul muxarrir:** i.f.d., prof. A.Sh.Bekmurodov

**Takrizchilar:** 1.Y.Uldasheva OXBI «Iktisodiet» kafedrasi mudiri, dosent, bojxona xizmati katta leytenant i.f.n. 2.TDIU «Bojhona ishi» kafedrasi dosenti S.J.Tursunov.  
© «Bojhona ishi» kafedrasi

**Кучаров А.С., Тоиров Ш.А., Д.Х.Набиев** «Таможенно тарифная политика Республики Узбекистан» Учебное пособие – Т.: ТГЭУ, 2007. 176 стр.

В данном учебном пособии освещена основная таможенно - тарифная политика Республики Узбекистан обеспечивающая экономическую интеграцию в мировое хозяйство, её сущность и значение, этапы формирования и факторы, влияющие на эти процессы, а также отражены разные пути обмена в процессе международной торговли интеллектуальной собственности, финансовой и материальные формы и средства их осуществления. Учебное пособие предназначено для магистрантов обучающихся по направлению 5A340501 – «Таможенное дело».

**Ответственный редактор:** д.э.н., проф. А.Ш.БЕКМУРАДОВ

**Рецензенты:** 1. ВВТИ Заведующий кафедры «Экономика» к.э.н., доцент, старший лейтенант таможенной службы. 2. С.Ж.Турсунов доцент кафедры «Таможенное дело». © кафедра «Таможенное дело»

**Kucharov A.S., Toirov Sh.A., D.X.Nabiev.** "The Customs tariff policy of the Uzbekistan Republic" the Manual-T.: TGEU, 2007. 176 pages.

In given educational the grant (manual) the basic customs tariff polici (politics) of the state providing economic integration in the world economy, its (her) essence and value, stages of formation and factors influencing on these processes is covered, and also different ways of an exchange are reflected during international trade intellectual properties, financial and material forms and means of their realization. The manual it is intended for magisters of trainees on a direction 5A340501 – «Customs».

**Responsible editor:** doctor of economic science, professor A.SH.Bekmuradov.

**The reviewers:** Senior inspector of department of regiments SCC Y.Uldasheva. Senior lecturer of facultu " Customs" S. J.Tursunov.

© facultu "Customs "

## Mundarija

<b>KIRISH.....</b>	<b>6</b>
<b>I Bob O'zbekiston Respublikasining bojhona siyosati va uni shakllanish omillari.....</b>	<b>10</b>
1.1. O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatini tartibga solish bO'yicha bojhona tadbirlarini erkinlashtirish.....	10
1.2. Bojhona qonunchiligi halqaro huquq bilan uyg'unlashtirish.....	18
1.3. O'zbekiston Respublikasi bojhona siyosatida bojhona infratuzilmasini takomillashtirish.....	26
<b>II-Bob Davlat boj tarif siyosati: tushuncha, tarkibi va turlari.....</b>	<b>31</b>
2.1. Tashqi iqtisodiy siyosat va uni asosiy vazifalari.....	31
2.2. Tashqi iqtisodiy siyosatni asosiy shakllari.....	35
2.3. O'zbekiston Respublikasini tashqi savdo siyosati va uni asosiy strategiyasi.....	40
<b>III-Bob Bojhona siyosati: tuzilishi, asosiy vazifalari.....</b>	<b>49</b>
3.1. Bojhona siyosatini shakllanish muxiti va bosqichlari.....	49
3.2. Halqaro savdoni globallashuvi sharoitida bojhona siyosati.....	57
3.3. Bojhona siyosatini zamonavylashuvi.....	61
<b>IV Bob Bojhona siyosatida iqtisodiy havfsizlik masalalari.....</b>	<b>65</b>
4.1. Erkin savdo hududlari va bojhona ittifoklari.....	65
4.2. Bojhona logistikasini bojhona siyosatida tutgan o'rni.....	73
4.3. Bojhona taomillarini soddalashtirish va halqaro savdo.....	95
<b>V Bob Butun jaxon savdo tashkiloti halqaro savdoni rivojlantirishni halqaro institutidir.....</b>	<b>100</b>
5.1. BJST tashkil etish tarihi.....	100
5.2. BJST ni asosiy tamoyillari va ularni iqtisodiy moxiyati.....	103
5.3. BJST ni faoliyatini xuquqiy asoslari.....	109
<b>VI. O'zbekiston Respublikasini tashqi savdo faoliyatini rivojlantirish omillari.....</b>	<b>126</b>
6.1. TIF ni tartibga solishni notarif usullaridan tarif usullariga o'tish.....	126
6.2. Eksport potensialini rivojlantirishda boj tarif siyosatini o'rni.....	128
6.3. TIF erkinlashtirishda bojhona tartiblari.....	138
6.4. O'zbekiston Respublikasining halqaro tashkilotlar bilan xamkorligi.....	151
<b>Hulosa va takliflar.....</b>	<b>161</b>
<b>Izoxli so'zlar.....</b>	<b>165</b>
<b>Foydalangan adabiyotlar ruyhati.....</b>	<b>172</b>

## **Содержание**

<b>Введение.....</b>	<b>6</b>
<b>I-Глава. Таможенная политика Республики Узбекистан и факторы её формирования.....</b>	<b>10</b>
1.1. Либерализация таможенных мер по регулированию внешнеэкономической деятельности Республики Узбекистан.....	10
1.2. Сочетание таможенного законодательства с международным правом.....	18
1.3. Совершенствование таможенной инфраструктуры в таможенной политике Республики Узбекистан.....	26
<b>II-Глава. Понятие, структура и виды таможенно - тарифной политики государства.....</b>	<b>31</b>
2.1. Внешнеэкономическая политика и её основные задачи.....	31
2.2. Основные виды внешнеэкономической политики.....	35
2.3. Внешнеэкономическая политика Республики Узбекистан и её основная стратегия.....	40
<b>III-Глава. Структура и основные задачи таможенной политики.....</b>	<b>49</b>
3.1. Этапы и среда формирования таможенной политики.....	49
3.2. Таможенная политика в условиях глобализации международной торговли.....	57
3.3. Модернизация таможенной политики.....	61
<b>IV-Глава. Вопросы экономической безопасности в таможенной политике..</b>	<b>65</b>
4.1. Зоны свободной торговли и таможенные союзы.....	65
4.2. Место таможенной логистики в таможенной политике.....	73
4.3. Упрощение таможенных процедур и международная торговля.....	95
<b>V-Глава. Всемирная торговая организация международной институт развития международной торговли.....</b>	<b>100</b>
5.1. История создания ВТО.....	100
5.2. Основные принципы ВТО и их экономическая сущность.....	103
5.3. Правовые основы деятельности ВТО.....	109
<b>VI-Глава. Факторы развития внешнеторговой деятельности Республики Узбекистан.....</b>	<b>126</b>
6.1. Переход от нетарифных методов к тарифным методам регулирования ВЭД.....	126
6.2. Место политики таможенных тарифов в развитии экспортного потенциала .....	128
6.3. Таможенные порядки либерализации ВЭД.....	138
6.4. Сотрудничество Республики Узбекистан с международными организациями.....	151
<b>Выводы и предложения.....</b>	<b>161</b>
<b>Глоссарий.....</b>	<b>165</b>
<b>Список использованной литературы.....</b>	<b>172</b>

## Contents

<b>Introduction.....</b>	<b>6</b>
<b>III - Chapter. Customs policu of the Republic of Uzbekistan and factors of its shaping</b>	
1.1. Liberalizitu customs measures on regulation of foreign economic activitu of the Republic Uzbekistan.....	10
1.2. Combination customs legislation with international right.....	18
1.3. Improvement of the customs infrastructure in customs policu of the Republic Uzbekistan.....	26
<b>II - Chapter. Notion, structure and tipes policu dutu rates state</b>	
2.1. Foreign economic policu and its primaru tasks.....	31
2.2. Main tipes foreign economic politiku.....	35
2.3. Foreign economic policu of the Republic Uzbekistan and its vfin strategu.....	40
<b>III - Chapter. Structure and primaru tasks customs policu</b>	
3.1. Stages and ambience of the shaping customs politicians.....	49
3.2. Customs polisu in condition globallitu to world trade.....	57
3.3. Modernization customs policu.....	61
<b>IV - Chapter. Questions to economic safetu in customs policy</b>	
4.1. Free trade zone and customs alliances.....	65
4.2. Place of the customs logistics in customs policu.....	73
4.3. Simplification of the customs formalities and world trade.....	95
<b>V - Chapter. Worlde trade organization international institute developments to world trade</b>	
5.1. Historu of the creation of WTO.....	100
5.2. Main principles of wto and their economic essence.....	103
5.3. Legal bases to activitu of WTO.....	109
<b>VI-chapter. Factors of the development to foreign trade activitu of the Republic Uzbekistan</b>	
6.1. Transition from nontariff methods to tariff method of the regulation FEA.....	126
6.2.Place of policu dutu rates in development of the export potential.....	128
6.3.Customs order liberalizitu of the FEA.....	138
6.4.Cooperation of the Rebublic Uzbekistan with international organization.....	151
<b>Conclusions and offers.....</b>	<b>161</b>
<b>Glossariu.....</b>	<b>165</b>
<b>The list of the used literature.....</b>	<b>172</b>

## KIRISH

Bugungi kunda davlatning iqtisodiy havfsizligini taminlashda xamda davlat byudjetini to'ldirishda boj tarifi muxim axamiyat kasb etadi. Boj tarifi stavkalarini qo'llashda yoki tovarlardan bojhona bojlarini undirishda hatolarga yo'l qo'ymaslik, qaror qabul qilishda natijalar taxlili omilli bo'lishi zarur. Bunday natijalar taxlili iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy harakterga egadir Prezidentimiz I.A.Karimov Oliy Majlis qonunchilik Palatasi va Senatining 2005 yil 28 yanvardagi qo'shma majlisida «Bizning bosh maqsadimiz-jamiyatni demokratiyalashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiyalash va islox etishdir» mavzusida so'zlagan maruzalarida takidlanganidek: «Prinsipial muhim ustivor vazifalaridan biri soliq siyosatini yanada takomillashtirish va shu bilan birga Prezidentimiz I.A.Karimov 2005 yil mamlakatni ijtimoiy- iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2006 yilda iqtisodiy isloxtlarni chuqurlashtirishning eng muxim ustuvor o'ynalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Maxkamasi majlisidagi maruzasida: «2005 yilda biz tashqi savdoni liberallashtirishda, jaxon ho'jalik aloqalariga integrasiyalashuv borasida yanada salmoqli natijalarga erishdik. Bunda mamlakatimizda ishlab chiqarilgan maxsulotlarni eksport qilishni rag'batlantirish, eksport-import operasiyalarini bojhona tariflari orqali tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish, bojhona to'lovlarini unifikasiya qilish, soliq va bojhona mamuriyatichiligi bilan bog'liq jarayonlarni bojhona tushumlarini shakllantirish va boj tarif tizimini rivojlantirish kabi masalalar o'ta muhimdir»<sup>1</sup> deb takidlaganlar.

Aytish joyizki davlatning bojaxona tarif siyosatiga doir yozilgan ilmiy ishlarni taxlil etadigan bo'lsak biz o'z o'mida MDX doirasida hususan Rossiyada V.G.Svinuhovni "Tamojenno-tarifnoe regulirovanie VED" M: Ekonomist, 2004 yil o'quv qo'llanmasini va respublikamizda faoliyat olib borayotgan olimlardan Sh.Sh.Shorahmedov, I.R.Askarov va boshkalar tomonidan tayyorlangan "Tashki iqtisodiy faoliyatni boj tarifi orkali tartibga

<sup>1</sup> Karimov I.A. «Erishilgan yutuqlami mustaxkmalab, yangi marralar sari izchil xarakat qilishimiz lozim». T.: Halq so'zi, 2006 yil 11fevrals. 2 bet.

solist”, T., Ijod dunyosi, 2002 yil xamda I.A.Hamidov, A.M.Alimov tomonidan “O’zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari”, T., O’zbekiston, 2002 yil kitob va o’quv – qo’llanmalarni ko’rsatib o’tishimiz mumkin.

Shuning uchun mazkur o’quv – qo’llanmada bojaxona tarifi tizimini soddalashtirish bo’yicha ko’rilgan chora-tadbirlar katta rol o’ynaydi. Aytish joizki, yukorida zikr etilgan ustivor vazifalarning barchasi soliq siyosatimizni takomillashtirish bilan ham bevosita bog’lik. Soliqqa tortish masalasida amaliyotda sinalgan prinsip va yondashuvlarni ishlab chikish, bu borada boshqa mamlakatlarning ilg’or tajribasidan foydalanish o’ta muhimdir». Shu jixatdan ham bugungi kunda bojhona tushumlarini shakllantirish va boj tarif tizimini rivojlantirish kabi masalalar o’ta muhimdir. Shu sababli xam mazkur o’quv – qo’llanmada bojaxona tarifi tizimi muammolari va ularning echimlari shuningdek istiqbollari xaqida fikr yuritiladi. Bojaxona tarifi va proteksionizm asrlar osha iqtisodchi olimlarimiz tomonidan tinimsiz tadqiq etib kelinayotgan lekin xozirgacha o’z dolzarbligini yo’qotmagan mavzulardan biri bo’lganligi uchun xam mazkur darslikni yaratishga karor kilindi. Xozirgi kunda mavzu kundan kunga o’zining tadqiq etilishi lozim bo’lgan yangi qirralarini ochib bormoqda. Iqtisodiy siyosatning bu turi juda nozik masalalar echimidan tortib jiddiy havf tug’diruvchi xolatlarni bartaraf etishda qo’llanilishi mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi. Ayniqsa jaxon ho’jaligi iqtisodiy jarayonlariga endigma kirib borayotgan davlatimizning ichki bozor munosabatlarini to’g’ri yo’lga qo’yishi, tashqi siyosatni samarali xamda aniq amalga oshirishi uchun xam ushbu mavzu tadqiq etishga loyiq bo’lib bugungi kunda yana ko’plab dolzarblikni isbotlovchi misollar keltirish mumkin.

Zamonaviy dunyoda barcha munosabatlar kup tomonlama iqtisodiy hamkorlik tomon siljib bormokda va hozirgi kunda chet mamlakatlar va halqaro tashkilotlar bilan iqtisodiy munosabatlarni o’rnatmasdan biror davlatning hayotini tasavvur kilish kiyin. Mustakillikka erishgandan buyon unlab davlatlar va halqaro tashkilotlar bilan urnatilgan yakin alokalar «davlat siyosatining

muhim tarkibiy kismi sifatida O'zbekiston tarakkiyotining ustuvor yo'nalişlaridan biri bulib kolmokda». Bugungi kunda jahon mamlakatlarining kupchiligi savdo-siyosiy boshkaruvning universal kup tomonlama tizimi - Jahon Savdo Tashkiloti (JST)ning azosi xisoblanadi. 148 mamlakat ushbu tashkilotning azosi bulsa, 30 dan ortiq mamlakatlar unga kirish uchun rasmiy arizalar berishgan, Jaxon Savdo Tashkilotining azosi bo'limgan qator mamlakatlar esa to'la ravishda ushbu tashkilotning Savdo va Tariflar bo'yicha Umumiy Bitimi (GATT) normalari asosida tuziladigan sheriklik, hamkorlik to'g'risidagi shartnomalar doirasida Jaxon Savdo Tashkiloti Bitimlari qoidalarini o'z amaliyotlarida tadbiq etib kelmoqdalar. Halqaro savdoning haqiqiy taraqqiyoti kun sayin yorqin namoyon bo'lmoqdaki, so'nggi yuz yillik ohirlarida tez suratlarda o'sib borgan jaxon iqtisodiy jarayonlarining globalizasiyalashuvi va internasionalizasiysi halqaro iqtisodiy almashuvning chegaraviy va ichki boshkaruvi o'rtasidagi chegaraning asta-sekin yukolib borishiga olib kelmokda. Buning natijalaridan biri - Halqaro savdoni boshkarishda kun sayin eng kulaylik rejimidan milliy rejimga utish jarayoni bulib kolmokda.

Mustakillikka erishgandan sung, O'zbekiston Respublikasi uz manfaatlaridan kelib chikib, mustakil tashki iqtisodiy faoliyatni utkazish imkoniyatiga ega buldi, shu sababli tashki alokalarni milliy ho'jalikni rivojlantirish ehtiyojlariga muvofiklashtirish va ijtimoiy yunaltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish, jaxon xamjamiyati mamlakatlarining o'sib borayotgan o'zaro bog'likligini xisobga olgan holda integrasiyalash jarayonlarini rivojlantirish vazifasi o'rta ga qo'yildi. Hukumatimiz jaxon ho'jaligi va bozoriga nisbatan milliy iqtisodiyotning yanada ochik bo'lishiga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishga kirishdi. Biroq respublikamizning jahon ho'jalik aloqalariga tug'ridan-to'g'ri, bevosita kirish jarayoni «katta sakrash» ko'rinishida amalga oshirilishi mumkin emas. Bu jarayon bosqichma-bosqich, obektiv tarkibiy shart-sharoitlar etilishiga qarab va

butun ho'jalik mehanizmini, hususan uning tashqi iqtisodiy sektorini isloq qilish bilan rivojlanib boradi.

Xozirgi vaqtda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish borasidagi hukumat faoliyatining asosiy vazifalaridan biri O'zbekistonning halqaro savdo tizimiga integrasiyalashuvini muvaffaqiyatli amalga oshirishdan iborat. Jaxon Savdo Tashkilotiga kirish mazkur integrasiyaning jadallahshuviga ko'maklashadi va respublikaning chet el import va eksport bozorlariga eng qulay rejimlarda kirishi uchun imkoniyatlar yaratadi. Bugungi kunda respublikamiz tashqi iqtisodiy siyosatidagi eng dolzarb muammo turli mamlakatlar o'rtasida savdo va ayriboshlash bilan bog'lik munosabatlarni tartibga solish bilan shug'ullanuvchi yagona Halqaro tashkilot bulmish Jaxon Savdo Tashkilotiga tulaqonli azo sifatida kirish bo'lib qolmoqda. Yuqorida gilardan kelib chiqqan xolda o'quv qo'llanmada mamlakatimiz tashqi iqtisodiy aloqalarini tartibga solishning umumiy qoidalari hamda ushbu soxadagi konunchilik to'g'risida, shuningdek Jahon Savdo Tashkilotiga kirish arafasida turgan respublikamizning intellektual mulk soxasidagi ichki qonunchiligini mazkur tashkilot talablariga muvofiqlashtirish bilan bog'lik masalalar yoritib berilgan.

## **I-bob. O'zbekiston Respublikasining bojhona siyosati va uni shakllanish omillari.**

Boj - tarifida bojlar mamlakat iqtisodiy rivojlanishning darajasi, tovarga ishlov berishga darajasi va boshqa omillar bilan belgilanadi. Mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi qanchaliy past bo'lsa, boj stavkalari shunchalik yuqori bo'ladi, chunki ular yordamida etarlicha rivojlanmagan tarmoqlar xaddan tashqari kuchli chet el raqobatidan ximoya qilinadi. Masalan Avstriyada bojlar SHvesariyadagidan deyarli uch baravar yuqori bojlar 50 % va undan ortiq rivojlanayotgan mamlakatlarda belgilanadi. Bojlar deyarli barcha mamlakatlarda yuqori, o'rta, past bojlarga bo'linadi, shuningdek boj to'lamasdan olib kelish mavjud. O'zbekiston Respublikasida ko'proq eng qulaylik berish rejimidan foydalanadigan mamlakatlar uchun qo'llaniladigan bojlarning o'rta stavkalari tadbiq etilmokda. Bazi mamlakatlar, masalan Evropa Ittifoki azolari O'zbekiston Respublikasiga ancha imtiyozli bojhona tariflari rejimin qo'llaydilar, yani preferensiya beradilar.

### **1.1 O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatini tartibga solish bo'yicha bojhona tadbiralarini erkinlashtirish.**

Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda boj - tarif usulini qo'llashning samaradorligi aniq tashkil etilgan va ishlayotgan boj to'lovlarini undirish tizimining faoliyatiga bevosita bog'liqdir. Bu faoliyatni amalga oshirishda xar bir bojhona maskanining axamiyati kattadir. Bu boj to'lovlarini xisoblash, undirish, to'lovlarning tushishini nazorat qilish, jarayonlarni aniq tashkil qilish, xar bir xar bir bojhona maskanini, respublikamiz tashqi iqtisodiy faoliyatini tartibga solishni boj - tarif usulini amalga oshirishdagi axamiyatini yanada oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Bojhona Kodeksining beshinchi bo'lim, 10-bob, 103- moddasiga asosan tovarlar va transport vositalarini bojhona vositalaridan boj undirilganda boj to'lovları deklarant tomonidan to'lanadi,

agarda qonun xujjatlarida boshqacha tartib nazarda to'tilgan bo'lsa, u xolda deklarant o'rniga boj to'lovlarini xar qanday manfaatdor shahs to'lashi mumkin.

Bojhona to'lovlarini to'lash muddatlari to'lashni kechiktirish, taminlash to'lash tartibi, to'lovlarini to'lash bo'yicha javobgarlik choralar O'zbekiston Respublikasi Bojhona Kodeksining 108 - 113 - moddalarida ko'rsatilgan. Shularga asosan bojhona to'lovleri bojhona deklarasiyasi qabul qilingunga qadar yoki qabul qilinishi bilan bir vaqtida to'lanadi. Tovarlar notijorat maqsadlari uchun olib o'tilayotganda bojhona to'lovleri bojhona deklarasiyasini qabul qilish bilan bir vaqtida to'lanadi. Bojhona to'lovlarini to'lash muddatining o'tishi bojhona deklarasiyasini topshirish tugaganidan keyingi kundan boshlanadi. Bojhona to'lovleri bojhona organiga, halqaro pochta jo'natmalarida yuborilayotgan tovarlarga nisbatan esa aloqa korhonalariga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi belgilagan tartibda to'lanadi. Bojhona to'lovleri, agar qonun xujjatlarida boshqacha qoidalar nazarda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida to'lanadi.

To'lovchiga bojhona organining qaroriga asosan to'lovlarini kechiktirib yoki bo'lib - bo'lib to'lash imkoniyati, bojhona to'lovlarining to'lanishi O'zbekiston Respublikasi Bojhona Kodeksining 111- moddasida nazarda to'tilgan tartibda taminlangan tartibda berishi mumkin.

Bojhona to'lovlarini to'lashni kechiktirish yoki bo'lib - bo'lib to'lash bojhona deklarasiyasi qabul qilingan kundan boshlab ikki oydan oshmasligi lozim.

Qo'shilgan qiymat solig'i tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, hizmatlar ko'rsatish), ularni realizasiya qilish xamda respublika xududiga tovarlar import qilish jarayonida qo'shilgan qiymatning bir qismini byudjetga ajratishdir (soliq kodeksining 65- moddasi).

Bojhona qonunchiligi asosida tovarlarni import qiluvchi yuridik va jismoniy shahslar import qilinayotgan ana shu tovarlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari bilan xisoblanadi (soliq kodeksining 66 - moddasi).

Import qilinadigan tovarlarga solinadigan soliq miqdoriga tovarlarning (ishlarning, hizmatlarning) bojhona xaqidagi qonun xujjatlarig muvofiq belgilanadigan boj qiymati, shuningdek respublikaga tovarlarni import qilishda to'lanadigan aksiz solig'i, bojhona bojlari summalari kiritiladi (Soliq Kodeksining 70 - moddasi). Qo'shilgan qiymat solig'i 20 % lik stavka bo'yicha ijtimoiy jixatdan muxim xisoblangan oziq - ovqat tovarlarining ayrim turlari bo'yicha to'lanadi. Stavkalar va mazkur tovarlar ro'yhati Vazirlar Maxkamasi tomonidan belgilanadi. Import qilinadigan tovarlar yuzasidan qo'shilgan qiymat solig'ini to'lanishi bojhona rasmiylashtiruvigacha yoki ramiylashtirish vaqtida amalga oshiriladi. O'zbekistonda ishlab chiqarilgan tovarlarga va import qilingan tovarlarga aksiz solig'i solinadi. Aksiz to'lanadigan tovarlarning eksportiga aksiz solig'i solinmaydi. O'zbekiston Respublikasiga tovarlar eksportiga nisbatan soliq solish rejimini qo'llaydigan davlatlarga tovarlar sotiladigan xollar bundan mustasno (Soliq Kodeksining 80 - moddasi).

Aksizlanadigan tovarlar ruyhati va aksiz soligi stavkalari Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2002 yilning 31 dekabrida 455-sonli karori Bilan tasdiklangan aksiz soligi stavkalari qo'llanilmokda.

Import qilinadigan tovarlar uchun soliqka tortish obekti - bojhona qonunchiligiga muvofiq belgilanadigan bojhona qiymatidir.

Import qilinadigan aksizlanadigan tovarlarga oid aksiz solig'i bojhona rasmiylashtirishigacha yoki rasmiylashtirishi vaqtida amalga oshiriladi. Tovar uchun bojni xisoblab chiqarish, to'lash va undirish uning bojhona qiymati asosida O'zbekiston Respublikasining Bojhona kodeksiga muvofiq amalga oshiriladi. Boj O'zbekiston Respublikasining davlat byudjetiga o'tkaziladi. Olib kirilayotgan tovar yuzasidan tuzilgan bitimning qiymatiga qarab baxolash tovarning bojhona baxosini chiqarishning asosiy usulidir. Agar asosiy usuldan foydalanib bo'lmasa, bojhona baxosini chiqarishning quyidagi usullari birin- ketin qo'llaniladi:

- aynan bir hil tovar yuzasidan tuzilgan bitim qiymatiga qarab baxolash;

- o’hhash tovar yuzasidan tuzilgan bitim qiymatiga qarab baxolash;
- qiymatlarni chegirib tashlash asosida;
- qiymatlarni qo’shish asosida;
- qiymatlarni chegirib tashlash va qiymatlarni qo’shish asosidagi usullar istalgan ketma-ketlikda qo’llanilishi mumkin<sup>2</sup>.

Tovar batamom ishlab chiqarilgan yoki ushbu qonunda belgilangan talablarga muvofiq etarli darajada qayta ishlangan mamlakat tovar ishlab chiqarilgan mamlakat xisoblanadi. Bir gurux mamlakatlar, mamlakatlarning bojhona ittifoqlari, mintaqa va basharti, tovar ishlab chiqarilgan joyni aniqlash maqsadi ajratib ko’rsatishni taqozo etsa, biror mamlakatning muayyan qismi tovar ishlab chiqarilgan mamlakat deb xisoblanishi mumkin. Quyidagilar muayyan mamlakatda batamom ishlab chiqarilgan tovarlar xisoblanadi:

uning xududidan yoki xududiy suvlaridan yohud kontinental shelfidan va dengiz ostidan olingan foydali qazilmalar, agar mamlakat dengiz ostini qazish uchun mutlaq xuquqqa ega bo’lsa;

mamlakat xududida o’stirilgan yoki yigib olingan o’simlik maxsulotlari;  
mamlakatda tugilgan va parvarish qilingan tirik xayvonlar;  
mamlakatda etishtirilgan o’simlik maxsulotlari va xayvonlardan olingan maxsulot;

mamlakatda tayyorlangan ovchilik, baliqchilik va dengiz ovi maxsuloti;  
mamlakat kemalarida yoki u ijara olgan (fraht qilgan) kemalarda jaxon okeanida ovlangan va (yoki) tayyorlangan dengiz ovi maxsulotlari;

mamlakatdagi ishlab chiqarish yoki boshqa operasiyalarning natijasi bo’lmish ikkilamchi omashyo va chiqindilar;

mamlakatga qarashli yoki u ijara olgan kosmik kemalarda ochiq kosmosda olingan yuqori tehnologiya maxsulotlari;

mamlakatda ushbu moddada ko’rsatib o’tilgan maxsulotlardangina ishlab chiqarilgan tovarlar.

---

<sup>2</sup> U Tolipov taxriri ostida «Osnovi tamojennogo delo» T.1999g GTK RUZ.

Tovarlarga nisbatan tarif imtiyozlari va preferensiyalar ushbu qonun bilan belgilanadi va ular individual hususiyatga ega bo'lishi mumkin emas, ushbu qonunning 33, 34 hamda 35-moddalarida nazarda tutilgan xollar bundan mustasno. Tarif imtiyozlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan belgilangan tartibda beriladi.

Boj undirishdan quyidagilar ozod qilinadi:

- halqaro yo'nalishda yuklar, bagaj va yo'lovchilar tashiydigan transport vositalari, shuningdek ularning yo'lida, oraliq to'htash joylarida bir maromda ishlashi uchun zarur bo'lgan yoki transport vositalarida yuz bergan avariyalarga (nosozliklarga) barxam berish uchun chet ellarda sotib olingan moddiy-tehnika taminoti buyumlari va asbob-anjomlari, yonilgi, oziq-ovqat maxsulotlari va boshqa mol-mulk;

qonun xujjalari muvofiq O'zbekiston Respublikasining valyutasi, chet el valyutasi (numizmatika uchun ishlatiladigan valyuta bundan mustasno), shuningdek qimmatli qogozlar;

dengizda ov bilan band bo'lgan O'zbekiston Respublikasi kemalarini xamda O'zbekiston Respublikasining yuridik va jismoniy shahslari tomonidan ijara qilingan (fraht qilingan) kemalarni taminlash maqsadida bojhona xududidan tashqariga olib chiqiladigan moddiy-tehnika taminoti buyumlari va anjomlar, yonilgi, oziq-ovqat va boshqa mol-mulk, shuningdek ularning O'zbekiston Respublikasining bojhona xududiga olib kiriladigan ov maxsulotlari;

qonun xujjalarda nazarda tutilgan xollarda davlat mulkiga aylantirilishi lozim bo'lgan tovarlar;

chet davlatlar vakillarining, O'zbekiston Respublikasi qonun xujjalari yoki halqaro shartnomalariga muvofiq boj to'lamasdan bularni olib kirish xuquqiga ega bo'lgan jismoniy shahslarning rasmiy yoki shahsiy extiyojlar uchun foydalanishiga mo'ljallab bojhona xududiga olib kiriladigan yoki bu xudduddan olib chiqiladigan buyumlar;

tabiiy ofatlar, qurolli mojarolar, bahtsiz xodisalar yoki falokatlar yuz bergenida yordam ko'rsatish uchun insonparvarlik yordami va beg'araz tehnik ko'mak sifatida O'zbekiston Respublikasi bojhona xududiga olib kiriladigan tovarlar, shuningdek, davlatlar, xukumatlar, halqaro tashkilotlar tomonidan hayriya maqsadlarida olib kiriladigan tovarlar; (O'zR 25.04.2003 y. 482-II-son qonuni tahriridagi hat boshi), (oldingi tahririga qarang)

bepul o'quv, davolash va maktabgacha tarbiya bolalar muassasalari uchun mo'ljallangan o'quv qo'llanmalari;

uchinchi davlatlar uchun mo'ljallangan va bojhona nazorati ostida O'zbekiston Respublikasining bojhona xududidan tranzit tartibida olib o'tiladigan tovarlar;

bojhona qonun xujjaligiga muvofiq jismoniy shahslar tomonidan bojhona chegarasi orqali olib o'tiladigan va ishlab chiqarish yoki boshqa tijorat faoliyatini olib borish uchun mo'ljallanmagan tovarlar;

erkin savdo rejimi o'matilgan davlatlarga mansub bo'lган va ulardan olib kiriladigan tovarlar;

O'zbekiston Respublikasi xukumati nomidan yoki uning kafolati ostida tuzilgan hukumatlararo va kredit bitimlari bo'yicha etkazib beriladigan tovarlar;

chet ellik investorlar tomonidan o'z ishlab chiqarish extiyoylari uchun O'zbekiston Respublikasiga olib kiriladigan mol-mulk;

chet ellik investorlar bilan tuzilgan mexnat shartnomalariga muvofiq O'zbekiston Respublikasida turgan chet ellik investorlar va chet davlatlar fuqarolarining shahsiy extiyoylari uchun olib kiriladigan mol-mulk;

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga umumiyligi summasi ellik million AQSH dollaridan ziyod bo'lган to'g'ridan - to'g'ri investisiyani amalga oshirgan chet ellik yuridik shahslar tomonidan olib kiriladigan tovarlar, basharti olib kiriladigan tovarlar ularning o'z ishlab chiqarish maxsuloti bo'lsa;

maxsulot taqsimotiga oid bitim bo'yicha ishlar olib borish uchun mo'ljallangan va loyixa xujjaligiga muvofiq maxsulot taqsimotiga oid bitim

bo'yicha ishlarni bajarishda qatnashayotgan chet ellik investor yoki boshqa shahslar tomonidan O'zbekiston Respublikasiga olib kiriladigan tovarlar, ishlarni va hizmatlar, shuningdek investor tomonidan olib kiriladigan, maxsulot taqsimotiga oid bitimga muvofiq investorga tegishli bo'lган maxsulot;

reklamalar va takdimotlar uchun olib kiriladigan tovarlar;

byudjetdan taminlanadigan tashkilotlar tomonidan (yoki ularning buyurtmalari bo'yicha) byudjet mablag'lari xisobidan o'z extiyoylari uchun O'zbekiston Respublikasiga olib kiriladigan tovarlar;

O'zbekiston Respublikasining bojhona xududiga:

chet el kreditorlari xisobidan xukumat kafolati ostida moliyalashtiriladigan investisiya loyixalarini amalga oshirish uchun olib kiriladigan tehnologik jixozlar;

yangi qurilayotgan va qayta qurilayotgan, halq istemoli tovarlari ishlab chiqarishga ihtisoslashtirilgan korhonalar uchun olib kiriladigan tehnologik jixozlar;

chet el investisiyalariga asoslangan korhonalarining ustav kapitaliga chet ellik investorlar tomonidan ulush sifatida olib kiriladigan tehnologik jixozlar;

vakolatli bankning tegishli tasdig'i bo'lган taqdirda, belgilangan tartibda tasdiqlangan loyixalarga muvofiq yangi ishlab chiqarishlarni barpo etish, ishlab turgan ishlab chiqarishlarni zamonaviylashtirish va tehnik jixatdan qayta jixozlash uchun olib kiriladigan tehnologik jixozlar;

vakolatli bankning tegishli tasdig'i bo'lган taqdirda, lizingga topshirish uchun olib kiriladigan tehnologik jixozlar;

kichik biznes korhonalari tomonidan o'zlari tashkil etayotgan ishlab chiqarishlar uchun olib kiriladigan tehnologik jixozlar.

O'zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarini amalga oshirishda:

O'zbekiston Respublikasi bilan birga erkin savdo zonasini yoki bojhona ittifoqini tashkil qilgan yohud shunday zona yoki ittifoq tuzish maqsadini

ko'zlovchi bitimni imzolagan davlatlarda ishlab chiqarilgan tovarlarga;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan belgilanadigan O'zbekiston Respublikasi milliy preferensiya tizimidan foydalanuvchi rivojlanayotgan mamlakatlarda ishlab chiqarilgan tovarlarga nisbatan boj to'lashdan ozod qilish, boj stavkalarini kamaytirish yoki preferensial tartibda tovar olib kirishga (olib chiqishga) tarif kvotalari belgilash kabi preferensiyalar yo'l qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo siyosatini uning bojhona xududi doirasida amalga oshirishda:

O'zbekiston Respublikasi Bojhona kodeksida belgilangan tegishli bojhona rejimlari doirasida bojhona nazorati ostida O'zbekiston Respublikasining bojhona xududiga vaqtincha olib kiriladigan yoki undan vaqtincha olib chiqiladigan tovarlarga;

O'zbekiston Respublikasining halqaro shartnomalariga muvofiq chet elda investisiya soxasidagi xamkorlik obektlarini qurish uchun butlovchi buyumlar tarkibida olib chiqiladigan tovarlarga;

O'zbekiston Respublikasining bojhona xududidan davlat extiyojlari uchun eksportga ajratilgan xajmlarda olib chiqiladigan tovarlarga;

O'zbekiston Respublikasining bojhona xududiga chet el investisiyalari ishtirokidagi korhonalarining chet el korhonalarining ustav fondlariga ulush sifatida olib kiriladigan tovarlarga, shuningdek qonun xujjaligiga muvofiq maxsulotni taqsimlash to'g'risidagi bitimlarda nazarda tutilgan xollarda shunday korhonalar olib chiqib ketadigan o'zлari ishlab chiqargan tovarlarning ayrim turlariga nisbatan ilgari to'langan bojni qaytarish, boj stavkasini kamaytirish va aloxida xollarda bojdan ozod qilish kabi tarif imtiyozlari berilishiga yo'l qo'yildi.

## **1.2 Bojhona qonunchiligi halqaro xuquq bilan uyg'unlashtirish.**

Halqaro savdoda ishtirok etadigan tovarlarni soliqka tortishni tashkil qilish qiyin emas, va uni shunday tashkil qilish mumkinki, okibatda tovarlar taqsimotining optimal usulida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'lmaydi.

O'zbekiston xukumati pahtachilikni muxim soliq bazasi sifatida ko'radi. Davlat daromadlarini ushlab turish – O'zbekistonning, boshqa rivojlanayotgan mamlakatlar singari, turmush darajasini ushlab turish, ijtimoiy hizmatlarni bajarish, va inson omiliga talim va sog'lik orqali sarmoyalar qilish garrovidir. Shunga karamasdan, erdan foydalanish turiga bog'lik bo'limgan, daromadlardan (yoki er omillaridan) olinadigan soliq tizimini tashqil etishni yanada jadallashtirish, xamda suv va o'g'itlar kabi omillarning to'lik bahosini undirib olishni tashkil qilish lozimdir.

Agar asosiy eksport tovrlarini soliqqa tortish borasida argumentlar qabul qilinadigan bo'lsa, shunisini xam unutmaslik kerak bo'ladiki, omillardan samarasiz foydalanishga bog'liq bir qator harajat turlari xam mavjuddir. Eksport solig'ini kiritish oqibatlarining taxlili, eksort tariflari taxliliga o'hshashdir. Eksport solig'i ichki narhlarni jaxon narhlaridan past darajaga tushiradi, shu bilan ichki ishlab chiqarishni pasaytiradi va yalpi istemolni oshiradi. SHuning natijasida ishlab chiqaruvchilarning ortiqligi, davlat g'aznasiga tushadigan daromadlarning xajmiga va istemolchilar ortiqligining o'sishiga nisbatan kattaroq darajada pasayadi. 1994 yil iyul oyida O'zbekiston Respublikasining xukumati, bosh organi Jenevada joylashgan, Umumjaxon Savdo Tashkilotiga (BST) hat taqdim etdi. Bu hatda, rasmiy ravishda, O'zbekiston Respublikasining shu tashkilotga azo bo'lish istagi bildirilgan edi. BST – ko'p tomonlama tashkilot bo'lib, uning maqsadlari: azo mamlakatlar orasida ruy beradigan tovarlar va hizmatlarning halqaro savdosida mavjud notarif to'siqlarni yo'q qilish, savdoda hizmatlari bilan yordam berish, mavjud qoidalarning rasionalizasiyasini va garmonizasiyasini olib borishdan iborat. 1997 yil 1 yanvar y

kuniga qadar BST 132 mamlakatni birlashtirgan, va bu mamlakatlarning yalpi jaxon tovar va hizmatlari savdosidagi ulushi 90% tashkil qilgan edi. 32 mamlakat bu takshilotda nazoratchi statusiga ega, shulardan 30 tasi esa, jumladan O'zbekiston xam, tashkilotga teng xuquqli azo bo'lish maqsadida olib borilayotgan kelishuvlarning turli darajasidagi mamlakatdir. O'zbekiston Respublikasining BSTga azo bo'lishga intilayotganligi-ning sababi – ko'p mamlakatlarning savdo munosabatlarini tartibga solib turuvchi halqaro savdo tizimiga o'zining integrasiyasini taminlashdir. Bu turdag'i integrasiya respublikamizning rivojlanish strategiyasini amalga oshirish uchun zarurdir. Sababi shuki, BSTga azo mamlakatlar bilan savdoni oshirish orqali O'zbekiston o'zining mahsus va iqtisodiy maqsadlarini amalga oshirish imkoniga ega bo'ladi, shular qatorida eksport daromadlarini va chet el sarmoyalarini oshirish, maxalliy ishlab chiqarishni kengaytirish xamda iqtisodiyotning ishlab chiqaruvchi va boshqa daromadli soxalarida axoli bandliligini oshirish. Bunday, savdoga yunaltirilgan, strategiya deyarli barcha muvaffaqiyatli rivojlanayotgan, xamda o'tish davridagi mamlakatlar tomonidan o'z milliy iqtisodiyotlarini diversifikasiyalashdagi eng asosiy usul sifatida qo'llanilib kelinmokda.

O'zbekistonning BSTga va halqaro savdo tizimiga integrasiyalashuvi uning rivojlanish strategiyasini, boshqa BST azo mamlakatlarining O'zbekistonning eksport tovarlariga nisbatan ochiq xamda nodiskriminasion tarzda qarashlarini taminlagan xolda, ravon va barqaror olib borishiga imkon yaratadi. Bu esa, albatta, O'zbekistonga o'zining savdo va investision imkoniyatlarini to'liq ishlatishiga sharoit yaratadi.

Bundan tashqari, O'zbekiston BSTga azoligiga erishishi tufayli quyidagi bir qator imkoniyatlarga ega bo'ladi:

- o'z importi uchun horijiy bozorlardan foydalanish imkoniyatlarining kengayishi;
- yanada barqarorlashgan tashqi sharoitlar;
- “adolatsiz” savdo qilinayotgan tovarlardan ximoya;

- xam tashqi, xam ichki investisiyalarni jalb qilishni qo'llab quvvatlanishiga yangi imkoniyatlarning ochilishi;
- savdo, axoli bandliligi va ishab chiqarishning o'sishi, tortishuvlarni samarali yo'llarda xal qilinish mehanizmlaridan foydalanish imkoniyatlarining ochilishi;
  - ko'p tomonlama savdo tizimiga tasirning oshishi;
  - davlat byurokratiyasining pasayishi;
  - fiskal daromadlarning ortishi;

BST ning faoliyati negizida yotuvchi eng asosiy tamoil – halqaro savdodagi nodiskriminasiya. Bu tamoilning o'zi esa xam mumkin qadar qulaylik berish tamoilidan, xam milliy rejim tamoilidan kelib chikadi. Mumkin qadar qulaylik berish rejimining (MKKBR) mazmuni shundan iboratki, O'zbekistondan eksport qilinayotgan tovarlar boshqa mamlakat xududidagi bozorlarga import tovari sifatida kirayotganida, boshqa shu rejimga azo mamlakatlarning tovarlariga nisbatan qo'llaniladigan bojhona tariflaridek, eng qulay shartlarda o'tkaziladi. BSTga azo mamlakatlarning O'zbekistonga nisbatan MKKBRni qo'llashi nafaqat O'zbekistondan keladigan tovarlarga import bojlarini kamaytirishga, balki boshqa: import to'lovlarini o'tkazish bo'yicha yig'imlar xamda import proseduralarini amalga oshirishga doir barcha rasmiylashtirishlar buyicha shartlarni qamrab oladi.

Milliy rejim mazmuni quyidagichadir: O'zbekistonning tovarlari boshqa BSTga azo mamlakatning bozoriga tushganida, ularga nisbatan bozor raqobatida shu azo mamlakatning o'zida ishlab chiqarilgan tovarlarga nisbatan quyiladigan shartlarning o'zi qo'llanilishi lozimdir, shu tamoil hizmatlar soxasiga xam tegishlidir. O'zbekistonning BSTga azoligi boshqa azo mamlakatlarning uning eksportiga eng past bojhona va boshqa bojlar qo'llashini kafolatlaydi. Bojhona bojlarini pasaytirish borasidagi BSTga azo mamlakatlarning harakatlari, eng asosan, barcha azo mamlakatlar tomonidan bojhona bojlarini va boshqa turdagи bojlarning ko'tarilishidan o'zlarini ximoyalash maqsadida amalga oshirayotgan tadbirlardir. Bu tadbirlarning negizida shunday tomoil yotadiki: agar biz

importga nisbatan bojlarni ko'tarmasak, bizning eksportimizga nisbatan xam bojlar past darajada turadi; va buning ustidan xar tomonlama nazoratni BST bajaradi. BSTga azo sanoati rivojlangan mamlakatlar deyarli barcha tovarlarga qo'yiladigan bojlarni chegaralashdi, va o'z navbatida azo bo'lган rivojlanayotgan mamlakatlar shunday tovarlar sonini kengaytirib borishmoqda. Agar BSTning azosi bojhona bojini "chegaralasa" (limit o'rnatsa), demak azo shu o'rnatilgan bojhona bojidan kattaroq bojni kelishilmagan xolda o'rnatmaslik haqidagi majburiyatni oladi, yani shunday boj o'rnatilgan tovarlarni eksport qilayotgan boshqa BSTga azo barcha mamlakatlarga shu bojni, ularga kompensasiya to'lamasdan turib, ko'tarishiga xuquqini yo'qotadi.

### **1.3 O'zbekiston Respublikasi bojhona siyosatida bojhona infratuzilmasini takomillashtirish.**

Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishda boj tarifi va notarif usullarning qo'llanilishi xar bir davlatning iqtisodiy havfsizligi va barqarorlini taminlash uchun hizmat qiladi. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda bojhona organlari faoliyatini iqtisodiy jixatlarini aloxida olib o'rGANADIGAN bo'lsak ular tomonidan amalga oshirilayotgan bojhona baxosini to'g'ri xisoblab bojhona to'lovleri va yig'imlarini adolatli undirish asosiy axamiyat kasb etadi. Undan tashqari kontrabanda va bojhona qoidabuzarliklariga qarshi kurash xam davlatimizning iqtisodiy havfsizligini taminlashda muxim rol o'yndaydi. Yuqoridagi faoliyat turlari va valyuta nazorati ushbu organ faoliyati ko'lamenti yanada kengaytiradi xamda iqtisodiy tizimdagi tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi ho'jalik subektlar faoliyatiga tasir o'tkazadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat tarkibida halqaro savdo aloxida asosiy o'rnlardan birini egallaydi. Halqaro savdoni rivojlantirishning nazariy asoslari bugungi kunga qadar ko'plab iqtiosdchi olimlar tomonidan takidlاب kelingan. Ayniqsa mutloq va nisbiy afzalliliklar nazariyasi halqaro savdo rivojlanishida asosiy o'ringa ega. Halqaro savdoni tartibga solishda amalga oshiriladigan tadbirlar bevosita va bilvosita tashqi iqtisodiy faoliyatga tasir etganligi sababli xam aksariyati xollarda o'quvchilar ko'z oldiga tashqi iqtiosdiy faoliyat deganda halqaro savdo kelishi tabiydir.

Halqaro savdo munosabatlarda biz albatta O'zbekiston Respublikasi tovarlar va hizmatlar eksport va importni ko'z oldimizga keltiramiz va ushbu faoliyat turini yanada rivojlantirish uchun amalga oshiriladigan vazifalar quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin deb o'ylaymiz:

- halqaro savdoni erkin amalga oshirish uchun monopoliyaga qarshi kurashish;

- halqaro savdoning mukammal rivojlanishi uchun tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi davlat tashkilotlarining faoliyati ko'lамини yoki hizmat ko'rsatish doirasini yanada yahshilash va halqaro savdo jarayonlarida ishtirok etuvchi subektlar uchun qonuniy imtiyozlar xamda erkinliklarni ko'paytirish;
- tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar iqtisodiy bilimlar bazasini va xuquqiy bilim saviyasini oshirish, ularni tezkor ahborot bilan taminlanishida va olingan malumotlarni to'g'ri talqin etib ulardan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish va xokazo.

Bizga malumki O'zbekiston Respublikasida valyuta ayriboshlashning erkinlashuvi, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning iqtisodiy usullaridan foydalaniishi natijasida iqtisodiy barqarorlik birmuncha ijobjiy tomonga o'zgarib bormoqda. Jaxon ho'jaligiga integrasiyalashuv, eksport-import munosabatlarida tovarlar va hizmatlar turlarining va xajmining oshib borishi O'zbekiston Respublikasi mavqeni yanada oshirib bormoqda.

Bojhona ishida tarif orqali tartibga solish xamda lisenziyalash, kvotalash, tehnik to'siqlarni qo'yishda geopolitik hususiyatlarni inobatga olgan xolda tovarlar eksporti va import geografiyasini chuqur o'rganib faoliyat yuritish ushbu hizmat ko'rsatish turi takomillashuvi va samarali faoliyat yuritishini taminlaydi. Barcha davlatlarda bo'lgani kabi republikamizda xam bojhona bojlarini undirish jarayonlarida o'ziga hos tomonlar va unga tasir etuvchi omillar mavjud bo'lib ularni xisobga olmaslik xam albatta samaradorlikka tasir etishi mumkin. Bu hususiyatlardan ayrimlarini ko'rsatib o'tsak maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Birinchidan O'zbekiston Respublikasi axoli soni va tarkibi MDX va qo'shni Markaziy Osiyo davlatlariga qaraganda o'sish xamda o'zgarishlari jixatdan tubdan farq qilishi, buning natijasida istemolning xar yili yoki xar ikki-

uch yilda o'zgarib turishi, bunda bojhona bojlari stavkalarini belgilashda vujudga keladigan tezkor va aniq taxlilga zaruratning vujudga kelishi;

Ikkinchidan davlat boshqaruvi xamda iqtisodiyotda o'ziga hos tashqi va ichki siyosatning mavjudligi va ularning biriga muvofiq kelish darajasi;

Uchinchidan tashqi olamning ayniqsa qo'shni davlatlarning munosabatlarini o'ziga hoslik va ularning respublikamiz iqtisodiy manfaatlariga tasiri va boshqalar.

### **Kiskacha hulosa**

Hulosa qilib aytish mumkinki bojhona – tarifi vositasida tartibga solishning xuquqiy asosini tashkil etuvchi “Bojhona kodeksi” va “Boj tarifi to'g'risidagi” qonunlar bojhona tarifining poydevori bo'lib hizmat qiladi. Tovar nomenklaturasi, bojhona qiymatini aniqlash va boj undirish metodologiyasi, ularni joriy etish, O'zgartirish yoki bekro qilish mehanizmi, tovarlning kelib chiqish mamlakatini aniqlash qoidasi, bojhona - tarifi vositasida tartibga solish soxasida ijroiy xokimiyatning amal qilish mezonlarini belgilovchi meyorlar tarifning negizini tashkil etadi. Tovarni olib kirish xuquqi uchun soliq xisoblangan boj stavkasi – bojhona tarifining faol qismini tashkil etadi. Hulosa qilib aytadigan bo'lsak tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishda umumiqtisodiy qonuniyatlar va kategoriylar talablariga mos ravishda boj tarifini o'rnatish yoki tartibga solishning notarif usullaridan optimal darajada foydalansak samardorlik oshishi mumkin deb xisoblaymiz.

### **Mustaqil ishlash va o'z - o'zini nazorat qilish uchun savollar:**

- 1.Boj tarifi tizimining muammollari va ularning echimlarini ishlab chiqish qanday olib boriladi?
- 2.Tashki savdo siyosatiga tasir kiluvchi omillar.
- 3.Boj tarifining tizimini rivojlanish taxlili nimadan iborat?
4. Bu raundlarda kanday asosiy masalalar kurilgan?
5. Butunjahon savdo tashkiloti kachon tashkil topdi?
6. Boj tarif tizimining rivojlanish istiqbollari?

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. I.A.Karimov – Uzbekiston XXI asr busagasida: havfsizlikka tahdid, barkarorlik shartlari, tarakkiet kafolatlari. T: Uzbekiston, 1997 y
- 2.V.G.Svinuhov – Tamojenno-tarifnoe regulirovanie VED, M., Ekonomist, 2004
3. E.F.Avdokushin – Mejdunarodnye ekonomicheskie otnosheniya. M: IVS «Marketing», 1997 g
4. V.I.Fomichev – Mejdunarodnaya torgovlya. M: Infra- M, 2001 g
- 5.Mejdunarodnye ekonomicheskie otnosheniya, uchebnik, pod red. I.P.Fominskogo, M., Ekonomist, 2004 g.

## **II-Bob. Davlat boj tarif siyosati: tushunchasi, tarkibi va nazariy asoslari**

Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda boj - tarif usulini qo'llashning samaradorligi aniq tashkil etilgan va ishlayotgan boj to'lovlarini undirish tizimining faoliyatiga bevosita bogliqdir. Bu faoliyatni amalga oshirishda xar bir bojhona maskanining axamiyati kattadir. Bu boj to'lovlarini xisoblash, undirish, to'lovlarning tushishini nazorat qilish, jarayonlarni aniq tashkil qilish, xar bir xar bir bojhona maskanini, respublikamiz tashqi iqtisodiy faoliyatini tartibga solishni boj - tarif usulini amalga oshirishdagi axamiyatini yanada oshiradi.

### **2.1. Tashqi iqtisodiy siyosat va uni asosiy vazifalari.**

Davlatning iqtisodiy havfsizligini taminlashda iqtisodiyotni boshqarishga aralashish darajasi muxim axamiyat kasb etadi. Bunda davlat makroiqtisodiy barqarorlashtirish siyosatini olib boradi. Undan tashqari soxalar taraqqiyotini taminlash va korhonalar faoliyatini rivojlantirish masalalari xam davlat iqtisodiy siyosatiga bog'liq bo'lib bu borada xuquqiy normativ baza yaratiladi va asoslangan iqtisodiy siyosat ishlab chiqiladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish davlat tashkilotlari tomonidan chora-tadbirlar majmuasini ishlab chiqish va uni bajarilish jarayonini o'zida aks ettiradi. Bu chora tadbirlar mamlakatning halqaro ihtisoslashuvdagagi ishtirokidan keladigan foydani olish, jaxon ho'jaligidagi davriy pasayishlarning tasirini yo'qotish yoki kamaytirish, shuningdek valyuta kurslarining tebranishi va jaxon iqtisodiyotidagi boshqa salbiy xodisalarning ichki iqtisodiyotga tasirini pasaytirishga yoki yo'qotishga, dunyo bozorida milliy ishlab chiqarish mavqeini mustaxkamlashga yo'naltirilgan. Boshqacha aytganda, davlat tomonidan tartiblash xar bir mamlikat tashqi iqtisodiy siyosatining asosiy vazifasini, yani milliy iqtisodiyotni

samarali rivojlanishi uchun qulay tashqi sharoit yaratishni ko'zda tutuvchi chora-tadbirlarni amalga oshirishdir.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartiblashga tub iqtisodiy isloxoṭlar amalga oshirilayotgan mamlakatlarda katta axamiyat beriladi. Ayniqsa O'zbekistonda iqtisodiyotni barqarorlashtirish va ho'jalik yuritishning yangi modelini shakllantirishda bosh isloxoṭchi sifatida davlatga muxim rolb ajratilgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlatlararo tartibga solish halqaro iqtisodiy tashkilotlar tomonidan ishlab chiqiladigan va ishtirokchi mamlakatlar manfaatlarini taminlashga, halqaro ayirboshlashni rag'batlantirish va uning samaradorligini oshirishga, umuman jaxon ho'jaligini barqaror bo'lishiga va rivojlanishiga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish demakdir. Tashqi iqtisodiy faoliyatni aloxida davlat darajasida, xam davlvtlararo darajada tartibga solish turli mamlakatlardagi sheriklar o'rtasida amalga oshiriladigan iqtisodiy operasiyalarga, bitimlarga turli hil usullar, vositalar, yo'l-yo'riqlar yordamida tasir etish jarayonini aks ettiradi. Halqaro iqtisodiy aloqalar rivojlangani sari tasir etish yo'llari xam takomillashib bormoqda. Shuningdek, o'zaro munosabatlarning murakkablashuvini, yangi ustivorliklarni, tashqi savdo va valyuta-kredit bitimlarini tuzishda, hornjiy sarmoyalash va boshqa operasiyalarda sheriklarning maqsad va manfaatlarini to'laroq xisobga oluvchi yangi yondashuvlar yuzaga kelmoqda.

Tashqi iqtisodiy faliyatni iqtisodiy usullar bilan tartibga solish choralarini mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy xolati va uning halqaro maydondagi o'rni o'zgarishlari bilan mutanosib bo'lishi lozim. Faqat shu xoldagina tashqi iqtisodiy aloqalarni davlat tomonidan tartibga solish masalalarini davlat manfaatlariga va uning iqtisodiy havfsizligini taminlashga yo'naltirib echish mumkin.

Bojhona tariflarini tartibga solish davlat siyosatini shakllashtirishda bojhona hizmatining tashqi savdo bojhona statistikasi malumotlari asosida faol

qatnashishini taminlash zarur. **Boj** tarifiga tarif beradigan bo'lsak shuni aytishimiz mumkinki, ihtiyyoriy mamlakatning boj tarifi bojhona bojlarini aniq stavkalaridan iboratdir.

**Bojhona boji** – tovarlarni import yoki eksport qilishda, bojhona organlari tomonidan undiriladigan va eksport import sharoitini belgilovchi to'lanishi lozim bo'lgan to'lovdir.

Bojhona bojlari moxiyatiga ko'ra, uchta asosiy vazifani bajaradilar:

- fiskal, bu vazifa xam import va eksport bojlariga tegishlidir. Chunki bu bojlar davlat byudjetini to'ldirish manbaalaridan biridir.
- proteksionistik (ximoya)- bu vazifa faqat import bojlariga taluklidir. Chunki ular yordamida maxalliy ishlab chiqaruvchilarni chet raqobatchilaridan ximoya qiladi;
- muvozanatlashtiruvchi, yani mamkalat ichki bozoridagi narhni jaxon bozorlaridagi narhlardan past bo'lган tovarlarni mamlakat xududidagi eksport qilishni oldini olish. Bu vazifa eksport bojlariga tegishlidir.

Tashqi savdo faoliyati azaldan xar bir mamlakatning halqaro iqtisodiy munosabatlari shuningdek iqtisodiy barqrorlikni taminlashning muxim omili bo'lib xisoblangan. Tarihdan bojhona hizmatining rivojlanishi xam davlatlar o'rtaida savdo iqtisodiy munosabatlarni rivojlanishiga bog'liq bo'lib bugungi kunga qadar takomillashib keldi.

Respublikamizning jaxon ho'jaligida o'z o'rniga ega bo'lishi, faol ishtirok etishini taminlash maqsadida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar davlatimizda bojhona hizmatini xamda bojhona ishini jaxon talablariga va halqaro darajada tashkil etishni talab qiladi. O'zbekiston Respublikasi bojhona organlari Respublikamiz tashqi savdo siyosatini amalga oshirishda faol ishtirok etuvchi organ bo'lib, ular amalga oshirayotgan bojhona nazorati va bojhona rasmiylashtiruvini samarali tashkil etish, samarali fiskal siyosatni amalga oshirish o'z o'rnida iqtisodiy nuqtai nazardan dolzarblikka ega.

Xar qanday davlat bo'lishidan qatiy nazar savdo siyosati iqtisodiy taraqqiyot uchun muxim omil xisoblanadi va boj tarifi orqali tartiba solish uning asosiy mehanizmlaridan biri xisolblanadi.

**Boj tarifi (customs tariff)** o'z o'rniga qarab quyidagicha aniqlanadi:

- savdo siyosatining asosiy quroli va davlatning ichki bozorni tartibga solish vositasi, shuningdek jaxon bozorida o'z o'rniga ega bo'lish va o'z tasirini o'tkazish maqsadida xam qo'llaniladi;
- boj tarifida ko'zda tutilgan bojhona bojlari stavkalari bojhona chegarasi orqali olib o'tilayotgan tovarlar va transport vositalari uchun tashqi iqtisodiy faoliyatda tovarlar nomenklaturasi asosida belgilanadi;
- bojhona bojining aniq stavkasi, aniq bir tovarni bojhona chegarasi orqali olib kirish va olib chiqishda qo'llaniladi;

Bojhona chegarasi va geografik chegara o'rtasida farq mavjud bo'lib ular bir biriga o'hshash tushunchalar emas. Tovar deganda xar qanday mulk turi tushuniladi, ayniqsa bojhona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlar keng qamrovli bo'lib misol elektr energiyasi va boshqalar.

### **Bojhona bojlarining turlari va ularning sinflanishi.**

Boj tarifi xar qanday davlatda aniq boj stavkalaridan iborat bo'ladi va ular bojhona chegarasi orqali kirib kelayotgan va chmqib ketayotgan tovarlardan undiriladi.

*Bojhona boji* (customs dutu) – majburiy to'lov bo'lib bojhona organlari tomonidan eksport va import qilinayotgan tovardan undiriladi.

Bojhona bojlri asosan uchta funksiyanibajaradi:

- fiskal, yani import va eksport bojlari orqali davlat byudjetining daromadlar qismi to'ldiriladi;
- pretekstionistik (ximoya) import boji orqali davlat o'zining maxalliy ishlb chqaruvchilarini kutilmagan raqobatdan ximoya qiladi;
- muvozanatlashтирувчи, agarda ayrim tovarlar jaxon bozorlaridagi narhlridan past bo'lsa, eksport bojlari orqali eksport qilish mumkin bo'limgan tovarlarni

chetga chiqib ketishini oldini olishda ishlatiladi; Bojhona bojlarining sinflanishi:

### **Undirilish usuliga ko'ra:**

- *advalor* – tovarning bojhona qiymatidan foizda xisoblanib undiriladi (misol uchun tovarning bojhona qiymatidan 20% miqdorida)
- *spesifik (hos)* – *tovar birligidan o'rnatilgan tartibda undiriladi (misol uchun xar bir dona tovar uchun 10 dollar)*
- *aralash* – qorida ko'rsatilgan ikkala turdagi boj turini o'z ichiga oladi (misol uchun tovarning bojhona qiymatidan 20% lekin xar bir donasidan 10 dollardan oshmagan xolda)

Advalor bojlar savdoga solinadigan soliqdan farqli ravishda bir hil turdagi tovarlarga faqat ularning sifati turlicha bo'lган xollarda ko'proq qo'llaniladi. Advalor bojlarini qo'llanilishi ichki bozorni bir hilda ximoyalab turadi va xar qanday tovar narhi tebranishlari byudjet daromadlarini o'zgartira olmaydi yani tovarning narhi o'sishi yoki pasayishi foiz stavkasiga xech qanday tasir o'tkaza olmaydi balki narhlar o'zgarishi bilan xam muntazzam o'zgarib boradi. Misol uchun 200 dollar turadigan tovarga 20%li advalor boj stavkasi o'rnatiladigan bo'lsa bu foiz stavkasining puldag'i ko'rinishi 40 dollarga teng bo'ladi. Tovar narhining 30 dollarga oshishi byudjet daromadlarinig xam 6 dollarga oshishiga olib keladi, agarda tovarning narhi 100 dollarga tushadigan bo'lsa davlat byudjeti daromadlari xam 20 dolarga qisqaradi. Advalor bojlarining salbiy tomoni bojhona qiymatini to'g'ri xisoblashni talab qiladi, ularning to'g'ri xisoblanishi bojlarning undirilishini samaradorligini oshiradi. Tovar narhiga ko'p tomonlama iqtisodiy va mamuriy omillarning tasir etishi advalor bojlaridan foydalananishda suektiv boxolash masalasida bir qator muammolarni kelrb chiqarishi mumkin.

Hos bojlar standart tovarlarga nisbatan qo'llaniladi va bojhona bojlarini undirish jarayonlarida masuliyatni suistemol qilish extimolini kamaytiradi. Birgina hos bojlardan foydalangan xolda bojhona bojlarini undiradigan bo'lsak

unda hos bojlarningtovarning narh teranishlariga yuqori darajada bog'liqligini kuzatamiz. Misol uchun 8000 dollar turadigan avtomobildan 1000 dalar miqdorida hos boj undirilsa ushbu avtomobilning narhi 12000 dollarga o'zgarishi 12,5% li bojni 8,3% ga tushishiga olib keladi, bunga sabab hos tarif stavkalarining qo'llanilganligidir. Boshqa tomondan olib qaraganda iqtisodiy inqiroz paytida yoki tushish davrida hos bojlar maxalliyishlab chiqaruvchilarni samarali ximoya qiladi.

### **Undirilish obektiga ko'ra :**

- *import* – boji, davlatning ichki bozoriga erkin muomala uchun kiritilayotgan tovarlarga nisbatan qo'llaniladi. Asosan maxalliy ishlab chqaruvchilarni horijiy raqobatchilardan ximoya qilishda qo'llaniladi.
- *eksport* - boji, davlat bojhona chegarasidan chiqib ketayotgan tovarlardan udirladi. va bundan asosiy ko'zlangan maqsad ichki bozordagi narhlarni jaxon bozoridagi narhlarni tenglashtiriladi;
- *tranzit* – boji, davlat xududidan o'tib ketayotgan tranzit tovarlardan undiriladi. Bu asosan savdo urushlari paytida qo'llaniladi.

### **Tavsiflanishiga ko'ra:**

- *Mavsumiy* – bojlar, asosan halqaro savdoni tezkor tartibga solish maqsadida qo'llaniladi, misol uchun qishloq ho'jaligi maxsulotlari. Odatda ularning mudati bir necha oydan uzog'i bilan bir yildan oshmasligi kerak.
- *Dempinga qarshi* – bojlar, ichki bozoga past narhlarda olib kirilayotgan tovarlarga nisbatan qo'llaniladi, agarda maxalliy ishlab chiqaruvchilarga bunday narhlarda tovar olib kirish zarar etkazsa ushbu boj turining qo'llanishi samarali natija beradi va ishlab chiqarish xajmini kengaytiradi;
- *kompensasion* – bojlar, bunday turdag'i bojlr bevosita va bilvosita subsidiyalar olib ishlab chiqarilgan va arzon narhda ichki bozorlarga kirib kelgan tovarlarga nisbatan qo'llaniladi;

- *mabsus* –bojlar. Odatda bunday bojlar maxalliy ximoya qilish bilan birga savdo munosabatlarida ishlab chiqilgan horijiy davlatlar siyosatiga javob tariqasida xam davlat manfaatlarini ko'zlagan xolda qo'llaniladi.

Bunday turdag'i asosiy bojlar xamkorlar tomonidan majburiyatlar suistemol qilingan xolda qo'llaniladi. Bunday bojlar qo'llanilishida asosan ikki tomonlama sharnoma va kelishuvlar muxim rol o'ynadi va ular siyosiy yo'l bilan xal qilinadi. Bunday turdag'i bojlar boshqa boj turlari qo'llanilmagan xolatda yoki buzilganda ishlatiladi.

### **Kelib chiqishiga ko'ra:**

- *avtonom* – bojlar, xukumat organlarining br tomonlama xarakati natijasida vujudga keladi. Bunday paytda asosiy qarorni davlat qabul qiladi, va aniq boj stavkalari o'rnatiladi.
- *konvension (sharnomali)* – bojlar, ikkitomonlama va ko'p tomonlama shartnomalarga asoslangan xolda ishlab chiqiladi va qo'llaniladi.
- *preferensial* – bojlar, boj tarifi stavkalaridan past ko'rinishda qo'llaniladi va undiriladi xamda rivojlanayotgan davatlarda eksport xajminioshirish maqsadida qo'llaniladi. 1971 yildan boshlab import tarifi stavkalarini kamaytirish xisobiga xam rivojlanayotgan davatlarda bir qator yutuqlarga erishilgan.

### **1-jadval**

Bojhona bojlari turlari va ularni sinflanishi

Undirilish usuliga ko'ra	Hos	Advalor	Aralash
Undirilish obektiga ko'ra	Import	Eksport	Tranzit
Tavsiflanishiga ko'ra	Mavsumiy	Dempingga qarshi	Kompensasion
Kelib chiqishiga ko'ra	Avtonom	Konvension	Preferensial
Stavkalarning turlari bo'yicha	Doimiy	O'zgaruvchan	-
Xisoblanishiga ko'ra	Nominal	Samarali	-

Manba: A. Kireev «Mejdunarodnaya ekonomika» 1998 yil. Moskva

Stavkalarining turlari bo'yicha:

- *doimiy* – boj tarifi, stavkasi xukumat toonidan o’rnatilgan bo’lib qaysiki o’zgartirish mumkin emas.
- *o’zgaruvchan* – boj tarifi, davlat organlari tomonidan o’rnatilgan va o’zgartirilishi mumkin bo’lgan tarif stavkalari kiradi bunda asosan ichki narhlarni jaxon bozoridagi narhrlga tenglashtirish jarayonida qo’llaniladi. Misol uchun Evropada qishloq ho’jalik maxsulotlarining yagona narnini belgilashda qo’llaniladi.

Xisoblanish usullariga ko’ra:

- *nominal* – tarif stavkasi, boj tarifida ko’rsatilgan tarzda o’rnatiladi. Ular davlat importi va eksportini rivojlantirish jarayonida umumiyligi tarzdagi bojhona bojlarini undirilishini o’zida aks ettiradi.
- *samarali* – bojhona bojlarining real qiymatini tovarning ohirgi narnida aks ettiradi.

Tarif usullariga import va eksport bojlarini joriy qilish kirma, notarif usullariga tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilariga subsidiyalar berish, kvotalash, lisenziyalash kabilalar kiradi.<sup>3</sup>

---


<sup>3</sup> A.Kireev. Mejdunarodnaya ekonomika. M.1998 g. YUniti.

## **2.2. Tashqi iqtisodiy siyosatni asosiy shakllari.**

Bojhona bojlari avvalo import bojlari va eksport bojlariga ajraladi. Import bojlari davlat byudjetini to'ldirish maqsadida va ichki bozorlarga tushadigan chet el tovarlari oqimini tartibga solish uchun belgilanadi. Eksport bojlari mamlakat ichida talab ko'p bo'lgan maxsulotlar taqchilligining oldini olish maqsadida belgilanadi. Boj olinadigan maxsulotlar, boj olinmaydigan maxsulotlar, olib ketish va olib ketish taqiqlangan maxsulotlar, shuningdek, bojhona bojlari stavkasi, yani, ularning tartibga solingan ro'yhati bojhona tariflari deb ataladi. Bojhona tariflarini ishlab chiqarish, tabiiy farqlar (xayvonot va o'simlik dunyosi), qayta ishlash darajasi (hom ashyo, yarim tayyor maxsulotlar, tayyor buyumlar) ko'ra, taqsimlangan maxsulotlar ro'yhatini o'z ichiga olgan maxsulot sarhillovchilar (klassifiqatorlari) asosida qurilgan. Bu klassifiqatorlar maxsulotlarini tariflash va shartli belgilashning uyg'unlashtirilgan tizimi bo'lib, unda olti honali shartli raqam belgiga ega bO'lgan maxsulot xaqidagi asosiy malumotlar xamda uning maxsulotlar nomenklaturasidagi o'rni ko'rsatilgan. Masalan, 210431 kod quyidagini bildiradi: 21-maxsulotlar guruxlari, 04- maxsulotlar o'rni (pozisiysi) va 31-subpozisiysi.

Bojhona tariflari bir yoki bir necha boj miqdorlari ustuniga ega bo'lishi mumkin, yani, ular oddiy va murakkab bo'ladi. Oddiy bojhona tariflari ustuni maxsulotlar kelib chiqqan mamlakatlardan qatiy nazar iaxsulotlarga yagona stavkalarni ko'zda tutadi. Murakkab bojhona tariflari ustunida esa, maxsulot bir necha boj stavkalariga ega bo'ladi va u yoki bu mamlakatga unda vujudga kelgan iqtisodiy va siyosiy vaziyatlarga qarab tanlov asosida qo'llaniladi. Halqaro savdo tartibga solishda eng ko'p qo'llaniladigan usul bo'lib, tarif, yani, importga solinadigan bojhona boji xisoblanadi. Importga tariflarning mahsus va advalor turlari o'zaro farqlanadi. Mahsus bojlar import qilinayotgan tovarlar birligiga nisbatan O'rnatiladi. Masalan, 1 barel neftga nisbatan 2 EVRO.

Advalor bojlar import qilinayotgan tovar qiymatiga nisbatan malum foiz tariqasida belgilanadi. Masalan, avtomobil harid narhining 40% idan. Import tariflari joriy qilingunga qadar ichki ishlab chiqarish qajmi  $S_1$ , ichki talab qajmi esa  $D_1$  teng bo'lgan. Talab va taklif o'rtasidagi farq ( $D_1 - S_1$ ) import xisobiga qoplangan. Mamlakat iqtisodiyoti yopiq bo'lganida edi baxolar darajasi  $P_e$  ga teng bo'lgan bo'lar edi. Xamda talab va taklif muvozanati E nuqtada o'rnatilgan bo'lur edi. Mamlakat iqtisodiyoti ochiq bo'lgani va importga cheklovlar yo'qligi tufayli milliy bozordagi narhlar jaxon bozori narhlari  $P_w$ , bilan bir hil. Importga tarif joriy qilinishi natijasida ichki baxolar  $P_w$  dan  $P_d$  qadar ko'tariladi. Xar ikkala turdag'i import tariflarning oqibatlari deyarli bir hil bo'lib, buni biz «Import tariflari kiritilishi natijalari» nomlangan grafik vositasida ko'rib chiqamiz.



### 1- Chizma. Import tariflari kiritilishi natijalari

Oqibatda istemolchilar malum bir yo'qotishlarga duch keladilar. Bu yo'qotishlar grafikda a,b,c,d soxalar bilan ko'rsatilgan. Baxolarning ko'tarilishi ilgari raqobatbardosh bo'limgan ayrim ichki ishlab chiqaruvchilar uchun xam foyda ko'rib ishlashga imkon beradi. Umuman shu soxada band milliy ishlab

chiqaruvchilar ishlab chiqarish xajmini  $S_1$  dan  $S_2$  ga qadar oshiradi va  $S_2 - S_1$  xajmdagi maxsulot  $P_d$  baxoda sotiladi. SHu xajmdagi maxsulotni istemolchilar oshirilgan narhda sotib oladilar va **a** soxaga teng yo'qotishga duch keladilar. Ammo, bu yo'qotish ichki ishlab chiqaruvchilarning o'sgan foydasiga aylanadi.

Baxolarning o'sishi oqibatida istemolchilar ko'rileyotgan tovar istemoli xajmini  $D_1$  dan  $D_2$  qadar qisqartiradi. Bu yo'qotish grafikda d soxa bilan ko'rsatiladi va u xech kimning foydasi bilan qoplanmaydi.  $S_2 - D_2$  oraliq tarif joriy qilingandan so'ngi import xajmi bo'lib, shu xajmda tovarni istemolchilar ilgarigidan yuqori baxoda sotib oladilar. Buning natijasida ular turmush darajasidagi yo'qotish ro'y beradi. Bu yo'qotish grafikda **s** soxa bilan belgilangan bo'lib, u davlat byudjetiga borib tushadi. YAni, bu soxadagi istemolchilarning yo'qotishi davlatning foyda ko'rishi bilan qoplanadi. Tarif kiritilishi oqibatida istemolchilar talabi arzon import tovaridan qimmat ichki tovarga yo'naltiriladi. Istemolchilarning o'sgan to'lovleri yuqori chegaraviy harajatga ega, raqobatbardosh bo'limgan samarasiz ichki ishlab chiqarishni kengayishiga olib keladi. Istemolchilarning bu yo'qotish **b** soxasi bilan belgilangan bo'lib, tarifning «ishlab chiqarish samarasi» deyiladi va xech kimning foydasi bilan qoplanmaydi.

Shunday qilib:

Istemolchilarning yo'qotishlari	Ishlab chiqaruvchilar Davlat foydasи	Jamiyatning sof yo'qotishi
$a + b + c + d$	$-$	$a - c + b + a$

Demak, istemolchilarning **a** soxadagi yo'qotishlari ishlab chiqaruvchilar foydasining o'sishi xisobiga qoplanadi. Ayni damda istemolchilar shu tarmoq korhonalari aksiyadorlari bo'lishsa, ular yo'qotishlarining bir qismi o'sgan dividentlar sifatida qaytadi.

«**s**» soxada davlat olgan daromadini transfert to'lovlarini oshirish, soliqlarni pasaytirish, byudjet tashkilotlarida ishlovchilar ish xaqini oshirishi ko'rinishida istemolchilarga qaytarishi mumkin.

Ammo b + d soxalarida jamiyat sof yo'qotishga duch keladi. Valyuta kursi o'zgarishi bu yo'qotishlarni bir oz qoplashi mumkin. Masalan, 20% li tarif kiritilishi natijasida milliy valyuta 4% ga qimmatlashsa, import qilinayotgan tovarlarning milliy valyutada ifodalangan ichki baxosi 20% ga emas, 16% ga oshadi. Bu esa tarif kiritilishi oqibatida jamiyatning sof yo'qotish b va d soxalarining 80% ini ((16 / 20) \* 100 q 80) tashkil etishini anglatadi. Umuman olganda tariflarni kiritilishiga nisbatan bir-biriga zid fikrlar mavjud bo'lib, bu tadbir mamlakat iqtisodiyoti xolati, hususiyati va qo'yilgan maqsadlar bilan asoslanadi. Endi import kvotalari va lisenziyalarni taqsimlash uslublari xaqida so'z yuritsak. Jaxon amaliyotida tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning bilvosita usullariga qaraganda bevosita usullaridan kengroq foydalaniladi. Bevosita usullar mazmuniga ko'ra, iqtisodiy, mamuriy, meyoriy-xuquqiy ko'rinishga ega bo'lishi mumkin.

Lisenziyalash va kvatalash iqtisodiy harakterdagi bevosita usullar ichida keng tarqalgani xisoblanadi.

Lisenziyalash – bu, tashqi iqtisodiy operasiyalarni amalga oshirishga davlat tashkilotlaridan ruhsat olishning malum tartibidir. Tashqi iqtisodiy operasiyalarga maxsulotlar, ishchi va hizmatchilar eksporti xamda moliya operasiyalarini o'tkazish, horijga ishchi kuchini ishga joylashtirish va boshqalar kiradi. O'zbekistonda lisenziyalar faqat davlat ro'yhatida qayd etilgan tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilariga beriladi. Ularni boshqa yuridik shahslarga berish taqiqlangan.

Maxsulotlar eksporti va importini lisenziyalash davlatga ular oqimini qattiq tartibga solish, bazi xollarda ularni vaqtincha chegaralash va shu asosda tashqi iqtisodiy taqchillik o'sishining to'htash xamda savdo balansining tenglashtirish imkonini beradi.

Umuman, import maxsulotlariga beriladigan lisenziyalar quyidagi usullar yordamida joylashtiriladi.

1. Ochiq auksion – davlat lisenziyalarni yuqori baxolarni taklif qilgan ishlab chiqaruvchilarga berishi.
2. Afzal ko'rish tizimi – davlat birinchi navbatda lisenziyalarni ishlab chiqarish xajmi jixatidan yirik bo'lgan firma va kompaniyalarga xech qanday shart va talablarsiz beradi.
3. Harajat usuli – davlat lisenziyalarni yirik ishlab chiqarish quvvatlariga va resurslariga ega bo'lgan firma va kompaniyalarga beradi.<sup>4</sup>

Maxsulotlar, shuningdek, ishchi va hizmatchilar eksporti va importiga lisenziyalar berish xuquqiga O'zbekiston Respublikasining quyidagi boshqaruv tashkilotlari ega: Vazirlar Maxkamasi, Moliya, Adliya, Ichki ishlar, Sog'liqni saqlash, Halq talimi vazirliklari, shuningdek, Markaziy bank.

Belgilangan chegaralar doirasida amalga oshiriladigan bitimlarga lisenziyalar xar bir aloxida bitim uchun mol etkazib berish xajmi yoki qiymatiga qarab, Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi tomonidan beriladi. Moliya operasiyalarini o'tkazishga lisenziyalar asosan Respublika Moliya vazirligi va Markaziy bank tomonidan o'z va horijiy banklarga, moliya muassasalariga beriladi. Ular moliya-kredit muassasalariga mamlakat ichida va uning tashqarisida chet el valyutasi bilan operasiyalarni amalga oshirish, horijiy moliya-kredit muassasalariga esa ichki bozorda yuridik va jismoniy shahslarga hizmat ko'rsatish xuquqini beradi. Lisenziyalash bilan bir qatorda jaxon amaliyotida maxsulotlarni, shuningdek, ishchi kuchi eksport va importini chegaralash maqsadida kvatalash keng qo'llaniladi.

Bu usulning moxiyati shundan iboratki, unda vakolatli davlat yoki halqaro tashkilot aloxida maxsulotlar, hizmatlar, mamlakatlar va mamlakatlar guruxi bo'yicha malum davrga eksport va importga miqdoriy yoki qiymat chegaralarini belgilaydi. Davlat tomonidan tartibga solish tadbiri sifatida kvatalash to'lov balanslarini ichki bozorda talab va taklifni balanslashtirish uchun muzokaralarda

---


<sup>4</sup> Pol's Krugman. Mejdunarodnaya ekonomika. Moskva. 2004 g

o'zaro kelishuvga erishish uchun qo'llaniladi. O'zbekistonda kvotalash halq istemoli mollarini va strategik hom ashyoning muxim turlarini olib chiqishni chegaralash usuli sifatida qo'llanilmoqda. Kvotalash faqat maxsulot oqimlarinigina emas, balki ishchi kuchi oqimlarini tartibga solishda xam qo'llaniladi. ko'pgina rivojlangan mamlakatlar ichki mexnat bozorini ximoyalash maqsadida horijdan ishchi kuchi importiga kvotalar o'rnatadi.

Xozirgi vaqtida kvotalash bojlarga nisbatan ko'proq qo'llanilishiga ikkita sabab bor:


1. Tarif stavkalari halqaro savdo kelishuvlariga asosan belgilanadi. Ayrim xollardan tashqari vaziyatlarda, mamlakatlar tarif stavkasini oshira olmaydilar va shuning uchun iqtisodiyotni raqobatdan ximoya qilish maqsadida kvotalarga etiborni qaratishga majbur bo'ladi.
2. Ximoyaga muxtoj tarmoqlar xam importga kvotalar joriy qilishni qo'llaydi. Chunki, tarifni joriy qilishga nisbatan imtiyozli lisenziyalar olish osonroqdir.

Import kvotalar erkin raqobat sharoitiga ko'proq mos keladi. +uyidagi «Tashqi savdoda kvotalar qo'llanilishining iqtisodiy oqibatlari» nomli chizmadan ko'rinish turibdiki, kvotalar joriy qilinishi natijasida umumiylar farovonlikdagi yo'qotishlar,



2- Chizma. Tashqi savdoda kvotalar qo'llanilishining iqtisodiy oqibatlari

tariflar kiritilganidagi singari **b** va **d** soxalardan iborat bo'lsa, **s** soxa ruhsat etilgan importga ustama narhlarni ko'rsatadi va axolidan lisenziya beruvchi tashkilotlarga beriladigan transferni harakterlaydi. Tariflarga nisbatan kvotalarni joriy qilishdan ko'rildigan farovonlikdagi yo'qotishlar ikki xolatda katta bo'ladi. Birinchidan, kvotalar maxsulotlar import qilayotgan milliy ishlab chiqaruvchilar yoki horijiy firmalar monopol xukmronligi darajasini oshirsa. Ikkinchidan, importga lisenziyalar samarasiz joylashtirilsa.



### 3- chizma. Eksport tarifi

Yuqoridagi chizmadan ko'rilib turibdiki, eksport bojlari sharoitida maxsulotlar ichki baxosi ( $P_d$ ) uning tashqi baxosidan ( $P_w$ ) kam. Bunday vaziyatda ichki istemol  $D_0$  dan  $D_1$  gacha O'sadi, ishlab chiqarish  $S_0$  dan  $S_1$  gacha, eksport esa  $X_0$  dan  $X_1$  ga kamayadi. Eksport bojlarini joriy qilish natijasida milliy ishlab chiqaruvchilarda ( $a+b+c+d$ ) soxalarda yo'qotishga duch bo'ladilar. Halqaro baxolarga nisbatan ichki baxonning kamayishidan istemolchilar «**a**» soxada yutuqqa erishsa, davlat esa «**s**» soxada daromadga ega bo'ladi. Sof yo'qotishlar (**b+d**) soxalardan iborat bo'ladi. Endi eksport subsidiyalari va kompensasion import bojlari to'g'risi to'htalsak. ko'pchilik xollarda eksportni davlat tomonidan rag'batlantirishtadbiri sifatida ko'pchilik

mamlakatlarda eksport subsidiyalari qo'llaniladi. Bunda tajriba – konstruktorlik ishlari va eksportga mo'ljallangan ishlab chiqarishni bevosita moliyalashtirish yoki bu maqsadlarga davlat byudjetidan imtiyozli kreditlar berish ko'zda tutiladi. Eksport subsidiyalari turli shakkarda qo'llaniladi. Bularga:

- eksportyor firmalarga yoki horijiy sheriklarga past foizli kreditlar berish;
- firmalarga ishlab chiqarish xajmidagi eksport ulushiga muvofiq soliq imtiyozlarini berish;
- bevosita subsidiyalash kiradi.

Masalan, dempingga qarshi bojlar o'z valyuta resurslarini to'ldirish maqsadida jaxon bozoriga hom ashyo resurslarini eksport qilishni ko'paytirgan sobiq ittifoqdosh respublikalarga nisbatan faol qo'llanilmoqda.

Eksport bojlari va eksportni ihtiyyoriy cheklashga keladigan bo'lsak. Eksportga tariflar yoki eksport bojlari kiritilishining oqibati import bojlari kiritilishi oqibatining aynan aksidir. Ihtiyyoriy ravishda eksportni cheklash eksport kvotalarining bir turi bo'lib, horij mamlakatlarining ayrim mamlakatlarga «ihtiyyoriy» eksport miqdorini cheklashdan iborat. Bu erda «ihtiyyoriy so'zi» shartli harakterga ega. Chunki, eksport qilayotgan mamlakat savdo siyosatida o'z xamkorlari tomonidan birorta nohushlikka duch kelmasligi uchun eksport miqdorini cheklaydi. Ihtiyyoriy ravishda eksportni cheklash ikki hil hususiyatga ega:

1. Ihtiyyoriy ravishda eksportni cheklash milliy istemolchilar uchun tarif va kvotalarni belgilashga nisbatan ancha sezilarsiz. Shuning uchun istemolchilar ularni etiborsiz qabul qiladilar va xukumatga norozilik bildirmaydilar.
2. Ihtiyyoriy ravishda eksportni cheklash sharoitida horij istemolchilari ular sotib olayotgan maxsulotiga yuqoriroq narh belgilashlari mumkin.

Shunday qilib, horijliklar ihtiyyoriy ravishda eksportni cheklash sharoitida eksportyor ko'rgan yo'qotishlarni narhlarni oshirish xisobiga qoplashadi.<sup>5</sup>

---

<sup>5</sup> A.Kireev Mejdunarodnaya ekonomika. M.1998g YUniti

### **2.3. O'zbekiston Respublikasini tashqi savdo siyosati va uni asosiy strategiyasi.**

Xar bir faoliyat amalga oshirilishida unga bir nechta omillar tasir etganidaek tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkil etish jarayonlari xam bir necha omillar bilan bog'liqdir. Bu omillarni sinflaydigan bo'lsak iqtisodiy, ijtimoiy va xuquqiy omillar bo'yicha ajratib o'rganish zarur.

O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatini tashkil etishning xuquqiy asosi sifatida tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida qonunning qabul qilishiga aloxida etibor berish kerak. Mazkur qonun 1991 yil O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng sobiq ittifoq davrida yaratilgan qonundan farqli ravishda ishlab chiqildi. 1991 yil 14 iyunda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Ahborotnomasi, 1991 yil, № 8, 182 modda; 1992 yil №9, 335-modda) o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritilib 2000 yil 26 mayda yangi taxriri joriy qilindi. Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risidagi qonun tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarni tartibga soladi. Ushbu qonunning asosiy vazifalari tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy havfsizligini taminlash, uning iqtisodiy suvereniteti va iqtisodiy manfaatlarini ximoya qilish, milliy iqtisodiyot rivojini rag'batlanirish, mamlakat iqtisodiyotining jaxon iqtisodiy tizimiga integrasiyalashuvi uchun shart-sharoitlar yaratishdan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining halqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risidagi qonun xujjalarda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalalar belgilangan bo'lsa halqaro shartnomada qoidalari qo'llaniladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat deganda O'zbekiston Respublikasi yuridik va jismoniy shahslarining horijiy davlatlarning yuridik va jismoniy shahlari,

shuningdek, halqaro tashkilotlar bilan o'zaro foydali iqtisodiy aloqalarini o'rnatish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyati tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasida ro'yhatga olingan yuridik shahslar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining xududida doimiy yashash joyiga ega bo'lgan va yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yhatga olingan jismoniy shahslar tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanishga xaqlidir.

O'zbekiston Respublikasining davlat organlari, agar qonun xujjalarda boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishlari mumkin.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy prinsiplari quyidagiladan iborat:

- Tashqi iqtisodiy faoliyat subektlarining erkinligi va iqtisodiy mustaqilligi;
- Tashqi iqtisodiy faoliyat subektlarining tengligi;
- Savdo-iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirishda kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik;
- Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishdan o'zaro manfaatdorlik;
- Tashqi iqtisodiy faoliyat subektlarining xuquqlari va qonuniy manfaatlari davlat tomonidan ximoya qilinishi;

O'zbekiston Respublikasining boj tarif tizimining asosini «Boj tarifi to'g'risida» gi qonun tashkil etib u bilan birga «Bojhona kodeksi», «Bojhona hizmati to'g'risida»gi qonunlar xuquqiy meyoriy asos sifatida hizmat qiladi. Shu bilan birga bojhona qonunchiligini qo'llanilishidagi ayrim meyorlarning o'ziga hosligi Vazirlar Maxkamasining qarorlari, Prezidentimizning farmonlari tomonidan aks ettiriladi. Ayrim bojhona xuquqiy meyorlar boshqa qonunchilik aktlarida xam berilgan, bularni yo'riqnomalar, buyruqlar, va ko'rsatmalar tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi boj tarifi to'g'risidagi qonuni O'zR OM 29.08.1997 y. 471-I-son qonuni<sup>6</sup>ga muvofiq amalga kiritilgan. Qonunga quyidagilarga asosan o'zgartirishlar kiritilgan:

---

<sup>6</sup> O'zR OM 29.08.1997 y. 471-I-son qonuni

O'zR 29.08.1998 y. 681-I-son qonuni, O'zR 12.05.2001 y. 220-II-son qonuni, O'zR 13.12.2002 y. 447-II-son qonuni, O'zR 25.04.2003 y. 482-II-son qonuni, O'zR 12.12.2003 y. 568-II-son qonuni, O'zR 30.04.2004 y. 621-II-son qonuni, O'zR 03.12.2004 y. 714-II-son qonuni.

Ushbu qonun boj tarifini shakllantirish va qo'llanish tartibini, shuningdek O'zbekiston Respublikasining bojhona chegarasidan olib o'tilayotgan tovarlardan boj undirish qoidalarini belgilaydi.

Mazkur qonunning asosiy vazifalari O'zbekiston Respublikasining jaxon iqtisodiyoti bilan samarali integrasiyalashuvi uchun shart-sharoit yaratish va iqtisodiy manfaatlarini ximoya qilishdan iborat bo'lib, u O'zbekiston Respublikasining bojhona xududida amal qiladi.

Boj tarifi to'g'risidagi qonunga binoan boj tarifi - bojhona chegarasidan olib o'tiladigan, O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatining Tovar nomenklaturasi (bundan keyin matnda Tovar nomenklaturasi deb yuritiladi) prinsiplari va qoidalariga muvofiq xolda bir tizimga solingan tovarlarga nisbatan qo'llaniladigan boj stavkalarining to'plamidir.

Tovar nomenklaturasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi Boj tarifi to'g'risidgi qonuniga muvofiq import boji halqaro shartnomalarga muvofiq belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi savdo-iqtisodiy aloqalarda eng ko'p qulaylik berish tartibini qo'llayotgan mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlar uchun undiriladigan import boji stavkalarining eng kam yoki eng ko'p miqdori qonun xujjalarda belgilab qo'yiladi.

Savdo-iqtisodiy aloqalarda eng ko'p qulaylik berish tartibi nazarda tutilmagan mamlakatlarda ishlab chiqarilgan yoki qaysi mamlakatda ishlab chiqarilganligi aniqlanmagan tovarlar uchun undiriladigan import bojining stavkalari ikki baravar oshiriladi, ushbu qonunga muvofiq O'zbekiston Respublikasi tomonidan tarif preferensiyalari beriladigan xollar bundan mustasno. Import va eksport bojining stavkalari O'zbekiston Respublikasi

Vazirlar Maxkamasi belgilaydigan tartibda joriy etiladi.

Mavsumiy bojlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan belgilanib, tovarlar olib kirish va olib chiqishni tezkor tartibga solish uchun qo'llaniladi. Bunda boj tarifida nazarda tutilgan boj stavkalari qo'llanilmaydi. Mavsumiy bojlar ular belgilangan vaqtdan etiboran olti oydan ortiq amal qilishi mumkin emas.

Bojhona qiymati-ushbu qonunga muvofiq belgilanadigan va Bojhona to'lovlarini xisoblab chiqarish maqsadida foydalaniladigan tovar qiymatidir. Bojhona qiymati o'tkaziladigan bojhona rasmiylashtiruvি vaqtida bojhona organiga deklarant tomonidan qonun xujjalarda belgilangan tartibda va shartlarda malum qilinadi (deklarasiyaga kiritiladi). Bojhona qiymatini aniqlash to'g'ri va xujjalalar bilan tasdiqlangan malumotlarga asoslanishi lozim.

### **Kiskacha hulosa**

Hulosa qilib aytish mumkinki O'zbekiston Respublikasi geosiyosiy xolatini o'zgarishi, tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkil etish va boshqarishda bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan iqtisodiy isloxoqlar mamlakat taraqqiyotida tashqi iqtisodiy faoliyatning rolini ancha ko'tardi. Bu esa O'zbekiston Respublikasi uchun nafaqat uzoq - horij, balki yaqin qo'shnilar bilan xam ho'jalik va savdo aloqalarini rivojlantirishni talab etadi. Shu munosabat bilan mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyatini tashkil etish va boshqarish qonunchiligini, jaxon ho'jaligida ro'y berayotgan iqtisodiy o'zgarishlar, asosida takomillashtirishni xozirgi kunning dolzARB masalalaridan biriga aylantirdi. Shulardan kelib chiqqan xolda tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish, bojhona qonunchiligini takomillashtirish masalalarini xamda halqaro savdo, transport, davlatning boj tarif siyosatiga doir muammo va echimlarini taxlil etish xozirgi kundagi asosiy maqsadlardan biridir.

### **Mustakil ishslash va uz - uzini nazorat kilish uchun savollar:**

1. Boj tarifining nazariy asoslari yoritib bering?
- 2.Boj tarifining iqtisodiy mohiyati nimada?
3. Mamlakat eksport salohiyati va uni belgilovchi asosiy omillar.
- 4.Uzbekiston eksport salohiyatini oshirishga karatilgan chora-tadbirlarni mohiyatini tushuntirib bering.
5. Tashki iqtisodiy siesat konsepsiysi nima?

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

- 1.Sh.Sh.Shoraxmedov, N.I.Asqarov, A.A.Namozov –Tashqi savdoni boj tarifi orqali tartibga solish. T: Fan va tehnologiya markazi, 2003 y. 11-73 bet.
2. A.P.Kireev – Mejdunarodnaya ekonomika. M: Mejdunarodnyiy otnosheniya, 1999 g. 67-70 str.
3. V.G.Svinuhov – Tamojenno-tarifnoe regulirovanie VED. M: Ekonomist, 2004
- 4.V.B.Buglay, N.N.Livensev – Mejdunarodnyie ekonomicheskie otnosheniya. M: Finansy istatistika, 1996 g 13-21str.

### **III-Bob. Bojhona siyosati: tuzilishi, asosiy vazifalari.**

Ko'plab mamlakatlarning tadbirkorlari uz milliy bozorlariga horijiy rakobatchilarni kiritmaslik uchun kuch-gayratlarini ayashmaydi. Ularning kuzlangan manfaati tushunchalari - horijiy rakobat bushashishga imkon bermaydi, ishlab chiqarishni doimiy ravishda yangilashga, chikimlarni pasaytirishga, tovarlar va hizmatlar sifatini oshirishga majbur kiladi. Istemolchilarni esa kuprok yahshi va arzon mollarga ega bulish kiziktiradi; tovarning kelib chikishi va uni kim ishlab chiqarishi ular uchun u kadar muhim emas. Ushbu vaziyat - jahonning ko'plab mamlakatlarida iqtisodiy va siyosiy iutiloflarning doimiy manbai hisoblanadi. Bu esa tashki savdoni boj tarifi orqali tartibga solishda samarali siyosat olib borilgandagina ushbu mamlakat yutib chikishi kerak.

#### **3.1 Bojhona siyosatini shakllanish muxiti va bosqichlari.**

Xozirgi sharoitda tashqi iqtisodiy faoliyat boshqa xar qanday iqtisodiy faoliyat kabi malum tartiblashga muxtojdir. Turli mamlakatlar o'rtasida o'zaro iqtisodiy bog'liqlikning kuchayishi va dunyo bozorida raqobatning keskinlashuvi, jaxon iqtisodiyotida transmilliy korporasiyalar rolining oshishi, valyuta kurslarining barqaror emasligi, to'lov balanslarining taqchilligi, rivojlanayotgan mamlakatlar qarzlarining yanada o'sishi va xozirgi zamon iqtisodiy munosabatlari rivojlanishining boshqa hususiyatlari ularni nafaqat alovida davlatlar darajasida, balki iqtisodiy tashkilotlar darajasida xam tartibga solish zarurligini belgiladi. Tashqi savdo borasida asosiy etiborni birinchi navbatda tashqi savdo siyosatining tashkil etilish bosqichlariga qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo siyosati bosqichlari:<sup>7</sup>

1. 1991-1994 yillarda asosiy boj tarif tizimida qarorlar qabul qilish davri

---

<sup>7</sup> EDNET. Uzbek-American Academu. Ekonomiks. Naglyadnoe uchebnoe posobie.Tashkent 2004.

bo'ldi.

2. 1994-1996 yillarda importni erkinlashtirish sari xaraktlar boshlandi. (UP-745 sonli 21.01.94 yil import bojlari bekor qilindi.)
3. 1996-1997 yillarda keng qamrovli tarzda tovarlar va hizmatlar uchun eksport va import bojlaridan aktiv foydalanildi.
4. 1997 yildan boshlab eksport bojlari bekor qilindi va eksportni rivojlantirishga qaratilgan siyosat boshlab yuborildi.

Tashqi iqtisodiy aloqalarni tartibga solishning tarif va notarif tartibdag'i mehanizmlari barcha mamlakatlarda keng qo'llanilib kelinmokda. O'zbekiston Respublikasining iqtisodiyotini mustaxkamlash maqsadida bir qancha iqtisodiy bir qancha islohotlar o'tkaziladi. Ushbu isloxotlardan biri tashqi iqtisodiy faoliyatni notarif yo'lidan tarifli boshqarish usuliga o'tish xaqidagi isloxotdir. Boshqarishning bu usuli tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda bojhona tariflar mehanizmining rolini yanada oshirdi. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning notarifli usuliga tovarlarni eksport va import qilishni lisenziyalash, kvotalash, deklarasiyalash, tehbarber va embargo usulida chegaralash kiradi. Bojhona tarifi bu bojhona chegaralari orqali o'tadigan uchun bojhona bojlari va aksizlari stavkasining majmuasidir.

Bojhona tarifining funksiyasi bu doimiy ravishda davlat byudjetini to'ldirish, eksport va import operasiyalarini tartibga solish, bojhona to'lovlarini imtiyozli stavkalarini qo'llash, ichki bozordagi tovarlar strukturasini tashqi raqobatchilardan ximoya qilishdan iboratdir. Bojhona tarifi tashqi iqtisodiy tartibga solishda muxim element xisoblanadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda tarifli boshqarish usuli quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

1. Ichki bozorda tovarlar oqimini tartibga soladi. Import qilingan tovarlar uchun boj va aksizlarning qo'llanilishi ichki bozorning chet el tovarlaridan to'lib ketishidan saqlab koladi. Respublikada ishlab chiqarilgan tovarlar esa bozorga

chiqa olmaydi, natijada ishlab chiqarish darajasi pasayadi, davlat iqtisodiyotiga salbiy tasir ko'rsatishga olib keladi.

2. Respublikaning eksport salohiyatini xisobga olgan xolda tovar moddiy boyliklarining olib chiqib ketilishini tartibga solib boradi.

Eksport qilinadigan tovarlar uchun boj va aksizlarning qo'llanilishi bu respublika ehtiyoj uchun zarur tovarlar, strategik hom ashyolarni olib chiqib ketishni tartibga solsa, ikkinchi tomondan Respublika iqtisodiyotiga aks tasir etish extimoli xam yuzaga keladi. Shuning uchun Respublika Prezidentining farmoniga asosan 1997 yil 1 noyabrda mahsus tadbirlar ishlab chikilib, eksport tovarlarga olib borilgan bojlar bekor kilindi.

3. Respublikaning tovar moddiy boyliklari va hom ashyolarini sarf qilishni tartibga solib boradi.

Barcha rivojlangan mamlakatlarda o'zining xududidagi qazilma boyliklar qazib oladigan katta soliq solishgan. Bu davlatlarda qazilma boyliklarni qazib olishdan ko'ra uni chetdan olib kelish ancha arzonga tushadi va soliq to'lanmaydi.

4. Davlat byudjetini bojhona to'lovlari bilan to'ldirib borishni taminlashga asos yaratadi.

Ko'pgina rivojlangan davlatlar o'z byudjetining asosiy qismini bojhona bojlari orqali to'ldirib boradilar. Masalan 1994 yilda Buyuk Britaniya va Finlandiya davlatlarining byudjetiga tushadigan soliqlar 42 foizni bojhona bojlaridagi miqdor tashkil etadi. Rossiya Federasiyasida bu ko'rsatkich 20% ga teng. O'zbekiston Respublikasida boj davlat byudjetinin to'ldirishni 3,5% ni tashkil etadi.

5. Respublika ishlab chiqarish korhonalarini sinishdan ximoyalashni taminlaydi. Ihtiyoriy bir davlatning iqtisodiyoti shu davlatning ishlab chiqarish darajasiga chambarchas bog'liqdir. Ichki bozorga chet el tovarlarining oqib kelishi o'zimizning milliy respublika tovarlarining ichki bozorga chiqa olmasligiga shu bilan birga korhonalarining sinishiga olib keladi. Natijada ishlab

chiqarish darjasini pasayadi, korhonalar yopiladi, ishsizlar ko'payadi, davlat esa rivojlangan davlatlarga qaram bo'lib qoladi.

6. Tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlanishiga qaratilgan siyosati rivojlanishga olib keladi. Demak yuqorida aytilganidek, Respublikaga olib kelinadigan tovarlar va olib chiqib ketiladigan tovarlarga bojhona boji va aksiz stavkalari qo'yilar ekan, rivojlangan mamlakatlar foyda kirishi uchun eng qulay bo'lган Respublikaga tayyor tovarlar emas, balki investisiyalar, kapital olib kirishga, qo'shma korhonalar qurishga xarakat qiladilar. Bu esa ikki tomonlama foydalidir. Respublikada ishlab chiqarish darjasini oshib boradi va jaxon bozoriga chiqa oladigan jaxon standartlariga mos tovarlar ishlab chiqariladi. Bu bilan Respublika iqtisodiyotining mustaxkamlanishiga asos yaratiladi. Bu esa O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy faoliyatning milliy tarifli mehanizmini to'g'ri olib borilayotganligini ko'rsatuvchi omillardan biridir. Uzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 25 iyulidagi 287-sonli karori tashki iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning notarif usulidan tarifli usuliga utish hakidagi boshlangich karor hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi bojhona xududida bojhona tarifini qo'llash tartibi va bojhona bojlari stavkasini aniqlash qoidalari, farmon va qarorlarda keltirilgan va tarif mehanizmining asosiy "richagi" bo'lib kelmokda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish to'g'risidagi farmonini bajarish yuzasidan, tashqi iqtisodiy aloqalarni tartibga solishni notarif usulidan tarifli usuliga o'tish uchun shart sharoitlarini taminlash, eksport –import operasiyalarini amalga oshirish mehanizmini soddalashtirish, uni halqaro amaliyotgan muvofiqlashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi xukumati tomonidan ko'plab qaror qabul qilindi. Bojhona tarifidagi stavkalarini darajalari bojhona qiymatini 3;5;15;40;45;50; va 60 foizga teng bo'lganlari olib tashlanadi, 30 foiz stavkaga tortiladigan tovarlar pozisiyasi 302 dan 241 taga qisqartirildi.

Bu esa o'z navbatida maxalliy ishlab chiqaruvchilarni va istemolchilarni xolatiga ijobjiy tasir ko'rsatadi deb o'ylaymiz.

### **3.2. Halqaro savdoni globalashuvi sharoitida bojhona siyosati.**

Bojhona organlari davlat byudjetiga bojhona to'lovlarini undirish orqali pul mablag'larini kiritadilar. Quyidagi jadvalda ko'rib turganimizdek davlat byudjetining asosiy qismi egri soliqlar tomonidan to'ldirib boriladi. Bu soliq turi 2002 yilda 54,6%ni tashkil etgan bo'lsa, 2003 yil 58,3%ga oshgan.

2-jadval.

**Davlat byudjetining daromad qismini bajarilishi (jamiga nisbatan %da)**

<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>	<b>5</b>	<b>6</b>	<b>7</b>
Ko'rsatkichlar	<b>1998</b>	<b>1999</b>	<b>2000</b>	<b>2001</b>	<b>2002</b>	<b>2003</b>
<i>Daromadlar jami</i>	100%	100%	100%	100%	100%	100%
Tug'ri soliqlar	31.5	29.3	26.4	28.5	27.2	25.7
<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>	<b>5</b>	<b>6</b>	<b>7</b>
Egri soliqlar	51	53.9	56	51.8	54.6	58.3
Mol-mulk solig'i	11.9	10.9	9.9	9.3	7.5	8.5
Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga soliq	1.2	1	1.1	1.3	2.1	1.6
Boshqa daromadlar	4.4	4.9	6.6	9.1	8.6	5.9

Manba: DBQ Xisoboti 2004 yil

Egri soliqlar tarkibini tahlil qiladigan bo'lsak, bunda biz 2003 yilda aksiz solig'i va bojhona yig'imlari va to'lovlarining ulushini ortib borganligini ko'rshimiz mumkin. Egri soliqlar bo'yicha tushumlar tahlili 2003 yilda aksiz solig'i ulushi aksiz solig'ining qatiy stavkaga o'tganligi va aksiz markali tovarlardan guruch, sovun va o'simlik yog'i sotilish xajmi oshganligi xisobiga 48,2%dan 51,3%gacha ko'payganligini ko'rsatdi.

Davlat byudjeti qanchalik boyib borishi bilan iqtisodiy o'sish sari bir qadam tashlanadi. Bugungi kunda bojhona organlari samarali faoliyat ko'rsatishi natijasida respublikamiz iqtisodiy havfsizligi va iqtisodiy o'sishini taminlash borasida bir qator muvafaqqiyatlari ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan valyuta nazorati borasida bir qator engilliklarning kiritilishi, tashqi iqtisodiy faoliyat

bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shahslar faoliyatini erkinlashtirish borasida turli imtiyozlar berilishi, xamda bojhona proseduralarining soddalashtirib borilishi fikrimiz isboti bo'la oladi.

Bojhona organlari faoliyatida bojhona nazoratining samarali amalga oshirilishi, bojhona to'lovlarining to'g'ri undirilishi iqtisodiy mehanizmning ayrim qismlarining samarali ishlashiga tasir qiladi, iqtisodiy mehanizm samarali ishlashi esa iqtisodiy o'sishni keltirib chiqaradi.

O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sishni taminlashda xar qanday eksport va import jarayonlarini imkonli boricha soddalashtirish, jahon halqaro bojhona andozalariga amal qilgan xolda davlat hazinasiga ko'proq mablag' tushurishni taminlash, mamlakatimizdagi tovar moddiy boyliklar ustidan qattiq nazorat o'rnatib, ularni noqonuniy yo'l bilan olib chiqib ketilishiga yo'l qo'ymaslik zarur. Umuman olganda, davlatimiz iqtisodiy havfsizligini taminlash – bojhona organlarining asosiy vazifalaridan biridir.

Iqtisodiy havfsizlik xolati malum bir ko'rsatkichlar, mezonlar va indiqatorlar bilan belgilanadiki, ulardan chekinilsa, iqtisodiyotning dinamik rivojlanish (tashqi va ichki bozorda raqobat) qobiliyati yo'qoladi. Mamlakatning iqtisodiy havfsizligini tamiinlash orqali uning mustaqilligi, tinchligi va barqarorligi, jamiyat turmushining farovonligini taminlash kafolatlanadi. Iqtisodiy havfsizlik davlat milliy havfsizligining muhim bir qismidir. O'zbekistonda davlatning iqtisodiy havfsizligini taminlashda milliy havfsizlik hizmati, Davlat bojhona qo'mitasi, ichki ishlar vazirligi, prokuratura, soliq qo'mitasi, davlat chegaralarini qo'riqlash qo'mitasi va mudofaa vazirligi O'z vakolatlari doirasida faoliyat olib boradilar. Davlat iqtisodiy havfsizligini taminlash borasida bojhona idoralariga xam boshqa iqtisodiy-siyosiy jabxalar kabi katta vakolatlar berilgan.

Xozirgi vaqtida bojhona to'lovlarini undirilish va byudjet tushumlarini ko'paytirish maqsadida bir qator ishlar amalga oshirildi. 2002 yil 12 oy mobaynida 11028,2 mln so'm bojhona to'lovleri undirilishi prognoz qilingan edi

(2000 yilda bu ko'rsatkich –4900,1 mln. so'm, 2001 yil-10496,7 mln so'mni tashkil etgan edi.), amalda 2002 yilda qilingan prognoz 11531,1 mln so'mni tashkil etdi, yani reja 104,5%ga bajarildi. (Bu ko'rsatkichlar 2000 yilda 103%ga, 2001 yilda 88,7% ga bajarilgan edi.)

Bojhona to'lovlarining undirilishi 2001 yilga nisbatan 2002 yilda 2211,9 mln so'mga, 2000 yilga nisbatan esa 6467,6 mln.so'mga oshirib bajarildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda boj - tarif usulini qo'llashning samaradorligi aniq tashkil etilgan va ishlayotgan boj to'lovlarini undirish tizimining faoliyatiga bevosita bog'liqdir. Bu faoliyatni amalga oshirishda xar bir bojhona maskanining axamiyati kattadir. Bu boj to'lovlarini xisoblash, undirish, to'lovlarning tushishini nazorat qilish, jarayonlarni aniq tashkil qilish, xar bir xar bir bojhona maskanini, respublikamiz tashqi iqtisodiy faoliyatini tartibga solishni boj - tarif usulini amalga oshirishdagi axamiyatini yanada oshiradi.

Bojhona to'lovlarini to'lash muddatlari to'lashni kechiktirish, taminlash to'lash tartibi, to'lovlarini to'lash bo'yicha javobgarlik choralar O'zbekiston Respublikasi Bojhona Kodeksining 108 - 113 - moddalarida ko'rsatilgan.

SHularga asosan bojhona to'lovleri bojhona deklarasiyasini qabul qilingunga qadar yoki qabul qilinishi bilan bir vaqtda to'lanadi. Tovarlar notijorat maqsadlari uchun olib o'tilayotganda bojhona to'lovleri bojhona deklarasiyasini qabul qilish bilan bir vaqtda to'lanadi.

Bojhona to'lovlarini to'lash muddatining o'tishi bojhona deklarasiyasini topshirish tugaganidan keyingi kundan boshlanadi.

Bojhona to'lovleri bojhona organiga, halqaro pochta jo'natmalarida yuborilayotgan tovarlarga nisbatan esa aloqa korhonalariga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi belgilagan tartibda to'lanadi.

Bojhona to'lovleri, agar qonun xujjalarda boshqacha qoidalar nazarda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida to'lanadi.

To'lovchiga bojhona organining qaroriga asosan to'lovlarni kechiktirib yoki bo'lib - bo'lib to'lash imkoniyati, bojhona to'lovlarning to'lanishi O'zbekiston Respublikasi Bojhona Kodeksining 111- moddasida nazarda to'tilgan tartibda taminlangan tartibda berishi mumkin.

Bojhona to'lovlarini to'lashni kechiktirish yoki bo'lib - bo'lib to'lash bojhona deklarasiyasi qabul qilingan kundan boshlab ikki oydan oshmasligi lozim. Qo'shilgan qiymat solig'i tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, hizmatlar ko'rsatish), ularni realizasiya qilish xamda respublika xududiga tovarlar import qilish jarayonida qo'shilgan qiymatning bir qismini byudjetga ajratishdir (soliq kodeksining 65- moddasi). Bojhona qonunchiligi asosida tovarlarni import qiluvchi yuridik va jismoniy shahslar import qilinayotgan ana shu tovarlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari bilan xisoblanadi (soliq kodeksining 66 - moddasi). Import qilinadigan tovarlarga solinadigan soliq miqdoriga tovarlarning (ishlarning, hizmatlarning) bojhona xaqidagi qonun xujjalrig muvofiq belgilanadigan boj qiymati, shuningdek respublikaga tovarlarni import qilishda to'lanadigan aksiz solig'i, bojhona bojlari summalarini kiritiladi (Soliq Kodeksining 70 - moddasi). Qo'shilgan qiymat solig'i 20 % lik stavka bo'yicha ijtimoiy jixatdan muxim xisoblangan oziq - ovqat tovarlarining ayrim turlari bo'yicha to'lanadi. Stavkalar va mazkur tovarlar ro'yhati Vazirlar Maxkamasi tomonidan belgilanadi. Import qilinadigan tovarlar yuzasidan qo'shilgan qiymat solig'ini to'lanishi bojhona rasmiylashtiruvigacha yoki ramiylashtirish vaqtida amalga oshiriladi.

O'zbekistonda ishlab chiqarilgan tovarlarga va import qilingan tovarlarga aksiz solig'i solinadi. Aksiz to'lanadigan tovarlarning eksportiga aksiz solig'i solinmaydi. O'zbekiston Respublikasiga tovarlar eksportiga nisbatan soliq solish rejimini qo'llaydigan davlatlarga tovarlar sotiladigan xollar bundan mustasno (Soliq Kodeksining 80 - moddasi). Aksizlanadigan tovarlar ro'yhati va aksiz solig'i stavkalari Vazirlar Maxkamasi tomonidan 2002 yilning 31 dekabrida 455 - sonli qarori bilan tasdiqlangan aksiz solig'i stavkalari qo'llanilmokda.

Import qilinadigan tovarlar uchun soliqka tortish obekti - bojhona qonunchiligiga muvofiq belgilanadigan bojhona qiymatidir.

### 3 - jadval

#### **O'zbekiston Respublikasi bojhona organlari tomonidan 2003- 2004 yillarda davlat byudjetiga o'tkazilgan bojhona to'lovlarining taqqoslama jadvali**

To'lov turlari	Davlat byudjetiga o'tkazilgan to'lovlar miqdori		2004 yil 2003 yilga nisbatan	
	2003 yil	2004 yil	Farqi ( + - )	Foizda
Qo'shilgan qiymat solig'i	174709,6	226384,6	51675,0	129,6
Bojhona boji	40961,8	55217,9	14256,1	134,8
Yagona bojhona to'lovi	45150,5	39985,2	-5165,3	88,6
Aksiz solig'i	27443,3	38820,0	11376,7	141,5
Yig'imlar	453,3	6849,2	6395,9	1511,0
Davlat egaligiga o'tkazilgan tovarlar sotuvidan tushgan mablag'lar	3027,9	3070,7	42,8	101,4
Jarimalar	242,2	270,8	28,6	111,8
<b>JAMI:</b>	<b>291988,6</b>	<b>370598,4</b>	<b>78609,2</b>	<b>126,9</b>

Manba: O'zbekiston Republikasi DBQ Statika bosh boshqarmasi. Tashkent-2005

Import qilinadigan aksizlanadigan tovarlarga oid aksiz solig'i bojhona rasmiylashtirishigacha yoki rasmiylashtirishi vaqtida amalga oshiriladi. Import uchun boj stavkalarining aloxida minimal va maksimal ko'rsatkichlari joriy etildi. Minimal stavkalar O'zbekiston savdo-iqtisodiy aloqalarda eng ko'p qulaylik berish tartibini qo'llayotgan mamlakatlarda ishlab chiqarilgan tovarlar importiga nisbatan, maksimal stavkalar esa bunday tartibni qo'llamayotgan davlatlarda ishlab chiqarilgan tovarlar importiga nisbatan qo'llanilishi belgilandi. Import xajmini o'sishi iqtisodiy nuqtai nazardan qaraganda ikki hil baxolanadi, birinchisi neoklassik maktab vakillari fikricha davlatda import xajmining oshib borishi ichki bozorga raqobat asosida sifatli tovarlar kirib kelishini taminlasa, narhlarning tushishiga va axolining istemol quvvatining oshib borishiga sabab bo'ladi.

### **3.3. Bojhona siyosatini zamonaviylashuvi.**

O'zbekiston tashqi savdo siyosati ochiqlik, miqdoriy cheklashlarning yo'qligi bilan tavsiflanadi va jaxon iqtisodiy xamjamiyatiga dadil integrasiyalanishga yo'llangan.

O'zbekiston Respublikasi tashqi savdoni MDXning barcha mamlakatlari bilan erkin savdo rejimida, Erkin savdo zonasini yaratish to'g'risidagi bitim doirasida, shuningdek dunyodagi 38 mamlakat bilan eng ko'p qulaylik yaratish rejimini taqdim etish to'g'risida ikki taraflama bitimlar asosida amalg oshiradi.

4-jadval

Bojhona statistikasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi tashqi savdosining asosiy ko'rsatkichlari (mln.AQSH doll).

2003	2004	Farqi	
		Miqdorda	Foizda
<b>Tashqi savdo aylanmasi</b>			
4903,15	6556,26	1653,11	33,7
<b>Eksport xajmi</b>			
2253,90	3207,43	953,53	42,3
<b>Import xajmi</b>			
2649,25	3347,77	628,52	26,4
<b>SHu jumladan : MDX mamlakatlaridan</b>			
1352,40	1021,28	331,11	32,4
<b>Boshqa horijiy mamlakatlardan</b>			
1995,38	1627,97	367,40	22,6

Manba: O'zbekiston Republikasi DBQ Statistika bosh boshqarmasi.Tashkent-2005

Eksport saloxiyatini kengaytirishga, import o'rnini bosadigan maxsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilgan respublika iqtisodiy siyosatining asosiy tamoyillarini amalga oshirish maqsadida tovarlarning barcha turlariga eksport bojlari bekor qilingan. Bunda erkin almashtiriladigan valyutaga eksport qilinadigan tovarlarga KKS va aksiz solig'i solinmaydi.

Shu bilan bir qatorda, quyidagilarga import bojlari solig'i solinmaydi:

- ular bilan erkin savdo rejimi o'rnatilgan davlatlardan kelib chiqqan va olib kelinadigan tovarlar;

- O'zbekiston Respublikasi xukumati nomidan yoki uning kafolati bo'yicha tuzilgan xukumatlararo va kredit bitimlariga ko'ra etkazib beriladigan tovarlar;
- xukumat kafolati bo'yicha horijiy kreditlar xisobidan moliyalanadigan investisiya loyixalarini amalga oshirish uchun tovarlar;
- horijiy investorlar tomonidan o'zlarining ishlab chiqarish extiyojlari uchun olib kelinadigan mol-mulk;
- horijiy investisiyalar ishtirokidagi korhonalarining ustav sarmoyasiga ulush sifatida olib kelinadigan tovarlar;
- tehnologik uskunalar;
- kompyuter malumotlarini uzatish tarmoqlarini yaratish uchun uskunalar, kompyuter tehnikasi, dasturiy vositalar;
- kichik va o'rta biznes subektlari uchun uskunalar;
- yog'och-tahta va yog'och materiallari;
- respublikada ishlab chiqarilmaydigan va maxalliylashtirish dasturi doirasida loyixalar amalga oshiriladigan korhonalar tomonidan lokallashtirilgan maxsulot ishlab chiqarishda ishlatiladigan materiallar xamda tarkibiy qismlar.

Shu bilan bir qatorda, bir qator import qilinadigan tovarlarga xam qo'shilgan qiymat solig'i solinmaydi. Hususan, bular:

- investisiya dasturiga kiritilgan ustuvor obektlarni jixozlash uchun;
- xukumat kafolati bo'yicha horijiy kreditlar xisobidan moliyalanadigan investisiya loyixalari uchun;
- yangidan qurilayotgan va rekonstruksiya qilinayotgan, halq istemoli mollarini ishlab chiqishga ihtisoslashgan korhonalar uchun;
- horijiy investorlar tomonidan korhonalarining ustav sarmoyasiga ularning ulushi sifatida olib kelinadigan tehnologik uskunalardir.

Bundan tashqari, QQS to'lashdan tovarlarning quyidagi toifalari xam ozod qilingan:

- yuridik shahslar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi bilan tuzilgan bitimlar bo'yicha halqaro va horijiy xukumat tashkilotlari taqdim etgan qarzlar va grantlar xisobidan olib kelinadigan uskunalar va materiallar;
- kompyuter malumotlarini uzatish tarmoqlarini yaratish uchun uskunalar, kompyuter tehnikasi, dasturiy vositalar;
- dori vositalari va tibbiyot buyumlari.

Vazirlar Maxkasaning 2002 yil 27 sentyabrdagi O'zbekiston Respublikasi xukumatining respublika xududiga «Jismoniy shahslar tomonidan tovarlar olib kelinishini tartibga solishga doir ayrim qarorlarga O'zgartirishlar kiritish to'g'risida» 335 – son qarori bilan jismoniy shahslar tomonidan tovarlar importi (shu jumladan MDX mamlakatlaridan) amalga oshirilishi chog'ida oziq-ovqat tovarlari uchun 40% (undan tashqari), nooziq-ovqat tovarlari uchun 70% miqdordidayagona bojhona to'lovi belilangan.

Yuridik shahslar tomonidan import qilinadigan tovarlarga bojhona bojlari 5-30% chegarasida belgilangan. Bir qator tovarlarga aksiz solig'i solinadi. Respublika axolisining solig'ini muxofaza qili shva havfsizligini taminlash uchun import tovarlar majburiy sertifikatlashtirishdan o'tishi kerak. Bu chora Jaxon savdo tashkiloti (JST)ning savdodagi tehnik to'siqlar to'g'risidagi bitimi 2.2-moddasi qoidalariga xamoxangdir. Savdoni yanada erkinlashtirish maqsadida Vazirlar Maxkamasi 2004 yil 6 iyulda «Maxsulotlarni sertifikatlashtirish tartibotini soddalashtirilga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 318-son qaror qabul qildi, unga ko'ra majburiy sertifikasiyalanadigan import istemol tovarlarning ro'yhati 39%ga qisqartirildi. Import qilingan halq istemoli mollari davlat tilida markalanishi kerak.

Xukumat narkotiklar kontrabandasiga qarshi kurashda va qurol-yarog' bilan noqonuniy savdoning oldini olish bo'yicha jiddiy qadamlar qo'yib, chegarada taomillarini amalga oshirishni soddalashtirish va jadallashtirishga qaratilgan nazoratning shakl va usullarini amalga oshirishda bojhona organlarini

qo'llab - quvvatlash bo'yicha rejali ish yuritmoqda. Bugungi kunda chegarada 80ta, shu jumladan avtomobil yo'llarida 68 ta, chegaradagi temir yo'l stansiyalarida 11ta, daryo portida 1 ta turg'un bojhona posti ishlab turibdi. Barcha postlar zamonaviy usullardagi savdo va fuqarolarning o'tishi uchun ochiq. Qozog'iston bilan chegarada joylashgan o'n sakkizta chegara bojhona postidan uchtasi, Tojikiston bilan chegarada o'n ettidan uchtasi, Qирг'изистон bilan chegarada – yigirma to'rttadan bittasi, Turkmaniston bilan chegarada – o'n to'qqiztadan ikkitasi, Afg'oniston bilan chegaradagi mavjud ikkala post halqaro post maqomiga egadir.

O'z zimmasiga yuklangan vazifalar bilan bir qatorda Davlat bojhona qo'mitasi respublikada bojhona ishini tartibga soladigan qonunchilik bazasini takomillashtirish ustida reja bilan ishlamoqda. Chunonchi, bojhona kodeksining yangi taxriri ustida ish yuritilyapti, u Kioto konvensiyasining qoidalariga va jaxon savdo tashkilotining talablariga to'liq muvofiq bo'ladi.

Hatarlarni boshqarish mehanizmlarni takomillashtirish, bojhona organlarning yagona avtomatlashtirilgan ahboriy tizimini yaratish, bojhonadan keyingi nazoratni joriy etish, nazorat va aloqaning zamonoviy tehnik vositalari bilan jixozlash, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha tadbirlar amalga oshirilyapti.

Xukumatning tashqi savdo siyosati to'g'risida va bojhona hizmati faoliyatini boshqarish masalalari bo'yicha batafsilroq ahborot olish uchun Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi va Davlat bojhona qo'mitasiga murojaat qilish mumkin

### ***Bojhona bojlarining davlat iqtisodiyotiga tasiri.***

Boj tarifiga yana tarif beradigan bo'lsak shuni aytishimiz mumkinki, ihtiiyoriy mamlakatning boj tarifi bojhona bojlarini aniq stavkalaridan iboratdir. Bojhona boji – tovarlarni import yoki eksport qilishda, bojhona organlari tomonidan undiriladigan va eksport import sharoitini belgilovchi to'lanishi lozim bo'lgan to'lovdir.

Bojhona bojlari moxiyatiga ko'ra, uchta asosiy vazifani bajaradilar:

- fiskal, bu vazifa xam import va eksport bojlariga tegishlidir. Chunki bu bojlar davlat byudjetini to'ldirish manbaalaridan biridir.
- proteksionistik (ximoya)- bu vazifa faqat import bojlariga taluklidir. Chunki ular yordamida maxalliy ishlab chiqaruvchilarni chet raqobatchilaridan ximoya qiladi;
- muvozanatlashtiruvchi, yani mamkalat ichki bozoridagi narhni jaxon bozorlaridagi narhlardan past bo'lgan tovarlarni mamlakat xududidagi eksport qilishni oldini olish. Bu vazifa eksport bojlariga tegishlidir.

Dunyo ho'jaligi amaliyotida tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda davlat tomonidan qo'llaniladigan bojlarni qo'llanish maqsadiga, tartibiga, obektivligiga va yana boshqa belgilarga ko'ra quyidagilarga klassifikasiyalash mumkin. Bojlarni bunday klassifikasiyanishi ularni qo'llashni iqtisodiy mazmunini beradi.

#### ***Bojhona bojlari undirilish shartiga ko'ra:***

Advalor - bu boj turi bojhona chegarsi orqali olib o'tilayotgan tovarlar va trnasport vositalari bojhona qiymatidagi foizda xisoblanadi. Odatda bunday bojlar bir tovar guruxiga mansub bo'lgan xar hil sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lgan tovarlarga nisbatan qo'llaniladi. Advalor bojlarini, shu guruxga mansub boshqa boj turlaridan farqlantiruvchi kuchli tomoni shundaki, bojga tortiladigan tovarni narhini teranishidan qatiy nazar advalor boj ichki bozorni bir hil darajada ximoya qiladi. Faqat davlat byudjetiga tushayotgan daromad miqdori o'zgarishi mumkin. Advalor boji kamchilik tomoni shundan iboratki, bu boj tovarni bojhona qiymatini xisoblashni taqozo qiladi. Tovarni qiymati xar hil iqtisodiy mamuriy omillar tasirida o'zgarib turishini xisobga oladigan bo'lsak, advalor bojini qo'llash baxolashning subektivligi bilan bog'liqdir.

Bojni undirish tartibiga ko'ra ikkinchi turi – hos bojlardir. Bu bojni qiymati – bojga tortiladigan tovarni birligidan belgilangan kattalikda xisoblanadi.

Bu belgiga ko'ra bojni yana bir turi yuqorida keltirilgan ikkala boj turi o'zida mujassamlashtirilgan aralash bojdir.

Jaxon ho'jaligi amaliyotida qo'llaniladigan, undirilish obektiga ko'ra belgiga ko'ra klassifikasiyalanadigan yana bir guruxi - import, eksport va tranzit bojlaridir. Bu bojlardan jaxon ho'jaligiga kiruvchi barcha davlatlar tomonidan maxalliy ishlab chiqaruvchilarni chet el raqobatchilaridan ximoya qilish maqsadida qo'llaniladigan turi - bu import bojlaridir. Odatda ular erkin ayriboshlash uchun rejimida olib kirilgan tovarlarga nisbatan qo'llaniladi. Eksport bojlari, ichki baxo bilan jaxon bozori baxosi o'rtasidagi tafovutni tartibga solish maqsadida qo'llaniladi.

Tashqi savdo faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishda qo'llaniladigan bojhona bojlari xarakteriga ko'ra mavso'miy, dempingga qarshi va kompensasion bojlarga bo'linadi. Bu bojlardan dempingga qarshi bojlar quyidagi xollarda qo'llaniladi: tovarlar bojhona xududiga ularning olib chiqilgan davlatda ayni vaqtda amalda bo'lган real qiymatidan past narhda olib kirilsa, agar bunday olib kirish shunga o'hshash tovarlarni ishlab chiqaruvchi maxalliy ishlab chiqaruvchilarga moddiy zyon etkazsa yoki etkazish havfini tug'dirsa yohud shu xududda shunday tovarlar ishlab chiqarishni tashkil qilish yoki kengaytirishga to'sqinlik kilsa. Bunday bojlar nafaqat olib kirilayotgan, balki bojhona xududidan olib chiqilayotgan tovarlarga nisbatan xam qo'llanilishi mumkin.

Shu guruxga kiruvchi kompensasion bojlar esa quyidagi xollarda qo'llaniladi: bojhona xududiga ishlab chiqarish yoki olib chiqish paytida bevosita subsidiyalardan foydalanilgan tovarlar olib kirilsa, agar bunday olib kirish shu xududda o'hshash tovarlar ishlab chiqaruvchilarga moddiy zarar etkazsa yoki etkazish havfi bo'lsa yohud huddi shunday tovarlar ishlab chiqarishni tashkil qilish yoki kengaytirishga to'sqinlik kilsa. Kompensasion bojlar ishlab chiqarish yoki olib kirish paytida bevosita yoki bilvosita subsidiyalardan foydalanilgan, olib chiqilishi shu mamlakat iqtisodiy

manfaatlariga moddiy ziyon etkazadigan eksport tovarlariga nisbatan xam qo'llanishi mumkin.

Mavsumiy bojlar odatda mavsumiy xarakterga ega bo'lgan qishloq ho'jalik maxsulotlariga nisbatan qo'llaniladi. Bunday bojlarni qo'llanilish davri bir yil davomida bir necha oydan oshmasligi mumkin. Bu boj qo'llanilayotgan davrda boshqa boj turlari qo'llanilishi bekor qilinadi. Odatda bojlarning bu mahsus turlari xar bir davlat tomonidan bir tomonlama xolda, savdo sheriklari tomonidan g'araz maqsadlarda qo'llanilayotgan raqobatdan ximoyalanish maqsadida, yoki boshqa davlatlar va davlatlar ittifoqi tomonidan mamlakat manfaatlarini kamsituvchi diskriminasion chora-tadbirlarga nisbatan javob tariqasida qo'llanilishi mumkin. Bu turdag'i bojlarni qo'llash bo'yicha qaror qabul qilinishi uchun xukumat yoki parlament topshirig'iga ko'ra savdo sheriklari tomonidan bozor sharoitini suistemol qilinish xollari tekshirilib ko'rildi. Tekshirish jarayonida ikki tomonlama muzokaralar olib borilib, tomonlarning pozisiyalari aniqlanadi, xosil bo'lgan vaziyat o'rganiladi va kelishmovchiliklarni siyosiy yo'l bilan bartaraf etish chora-tadbirlari ko'rildi.

Davlatlar o'rtasida savdo bo'yicha kelishmovchiliklarni bartaraf etishni barcha choralarining natijasi bo'lмагanidan so'ng, eng ohirgi chora sifatida bu mahsus bojlar qo'llaniladi.

Bojhona bojlari kelib chiqishiga ko'ra avtonom, konveksion va preferensial bojlarga bo'linadi.

Odatda avtonom bojlar davlat organlari tomonidan, savdo sheriklari bilan kelishilmagan xolda kiritiladi. Boj tariflarini kiritish to'g'risidagi masala qonun asosida amalga oshiriladi. Boja tortiladigan tovarlar ro'yhati, boj stavkalari esa tegishli vazirliklar yoki mahsus komissiya tomonidan tayyorlanadi, xukumat tomonidan tasdiqlanadi. Bu guruxga kiruvchi boj turlaridan yana biri - bu preferensial bojlardir. Bu bojlar ko'p tomonlama shartnomalar asosida, odatda rivojlanayotgan davlatlardan kelib chiqayotgan tovarlarga nisbatan qo'llaniladi.

Xozirgi vaqtida bojhona to'lovlari undirilish va byudjet tushumlarini ko'paytirish maqsadida bir qator ishlar amalga oshirildi. 2002 yil 12 oy mobaynida 11028,2 mln so'm bojhona to'lovlari undirilishi prognoz qilingan edi (2000 yilda bu ko'rsatkich -4900,1 mln. so'm, 2001 yil-10496,7 mln so'mni tashkil etgan edi.), amalda 2002 yilda qilingan prognoz 11531,1 mln so'mni tashkil etdi, yani reja 104,5%ga bajarildi. (Bu ko'rsatkichlar 2000 yilda 103%ga, 2001 yilda 88,7% ga bajarilgan edi.)

Bojhona to'lovlarining undirilishi 2001 yilga nisbatan 2002 yilda 2211,9 mln so'mga, 2000 yilga nisbatan esa 6467,6 mln.so'mga oshirib bajarildi.

### **Qisqacha hulosa**

Hulosa qilib aytish mumkinki iqtisodiy jixatdan asoslangan bojhona tarifining joriy etilishi tashqi iqtisodiy faoliyatini tartibga solishning mamuriy buyruqbozlikdan ixtisodiy boshxaruv usullariga o'tishda muxim qadam bo'ldi. Bugungi sharoitlarda tarif choralarini import va eksport bo'yicha qo'llashning soxa va maqsadlari o'zaro farq qiladi. Bundan buyon tarif choralarining markaziy tortish kuchi importni tartibga solish va uning mehanzimlarini, eksportni qisman yoki to'la bekor qilinishi sharoitida bosqichma – bosqich ishlab chiqishga, eksportni davlat tomonidan qo'llab – quvvatlash tizimini yaratish tomon o'zgartirilishi lozim. Bojhona tarifi bu bozor iqtisodiyoti sharoitida tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning muxim qurolidir.

### **Mustaqil ishslash va o'z - o'zini nazorat qilish uchun savollar:**

- 1.Tashki savdo siyosatining mazmun mohiyati nimadan iborat?
- 2.Tashki savdo siyosatiga tasir kiluvchi omillar.
- 3.Boj tarifining tizimini rivojlanish taxlili nimadan iborat?
4. Bu raundlarda kanday asosiy masalalar kurilgan?
5. Butunjahon savdo tashkiloti kachon tashkil topdi?

6. Butunjahon savdo tashkilotining asosiy kelishuvlari.

**Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

- 1.I.A.Karimov –O’zbekiston XXI asr busagasida: havfsizlikka tahdid, barkarorlik shartlari, tarakkiet kafolatlari. T:O’zbekiston,1997 y 10-24 bet.
- 2.Sh.Sh.Shoraxmedov, N.I.Asqarov, A.A.Namozov –Tashqi savdoni boj tarifi orqali tartibga solish. T: Fan va tehnologiya markazi, 2003 y. 11-73 bet.
- 2.F.Korfma – Uproshenie tamojennih prosedur i sovershenstvovanie kontrolya. MVF, upravlenie po byudjetnim voprosam, 1997g. 34-38 str.
3. A.P.Kireev – Mejdunarodnaya ekonomika. M: MejdunarodnO’y otnosheniya, 1999 g. 67-70 str.
4. V.G.Svinuhov – Tamojenno-tarifnoe regulirovanie VED. M: Ekonomist, 2004.

## **IV. Bob. Bojhona siyosatida iqtisodiy havfsizlik masalalari**

Mamlakat urtasida halkaro savdo munosabatlarni rivojlanishi, ular tomonidan har hil integrasion tuzilmalarni tashkil kilinishiga olib keldi. Keyingi un yilliklarda butun dunyo hujaligini kamrab olgan zamonaviy liberallashtirish jarayonlari uzaro boglik ikki tendensiya bilan aniklanadilar. Birinchidan halkaro iqtisodiy munosabatlarni proteksionistik tusiklardan sekin asta halos bulishi bulsa, ikkinchidan uzaro iqtisodiy munosabatlarni liberallahdir. Bu jarayon bir guruh davlatlar urtasida iqtisodiy hamkorlik ittifoklari yoki ochik savdo zonalarini tashkil etish kurinishida amalga oshiriladi. Misol uchun AKSH, Kanada va Meksika davlatlari urtasida Shimoliy Amerika erkin savdo zonasini tashkil etilgan. Huddi shunday hududiy tashkilot ACEAH Osiyo Tinch okeani mintakadagi davlatlar urtasida tashkil etilgan. Maistrih Kelishuvini va Evropa iqtisodiy hududni tashkil etish buyicha shartnomani imzolanishi natijasida Evropadagi bir guruh davlatlar yangi integrallashgan jamiyatga kadam kuydilar.

### **4.1. Erkin savdo hududlari va bojhona ittifoklari.**

Davlatlar urtasidagi iqtisodiy integrallashuv jarayonlarini tobora rivojlanib borishi ularni iqtisodiyotlarini rivojlanish darajasidagi tafovutlarni sekin asta kamayib borishiga olib keladi. Bunday tafovutlarni kamayib borishi esa bu davlatlar tashki iqtisodiy alokalarni yanada erkinlashuviga, iqtisodiyotlarni ochiklik darajasini oshishiga olib keladi. Ochik iqtisodiy hududlar iqtisodiyoti tashki dunyoga ochiklikni eng yukori darajasiga egadir. Ularda tashkil etilgan bojhona, solik va investisiyalarini jalb etish jarayonini tezlatadi.

Ochik iqtisodiy hududlarni amalda dunyo hujaligi buyicha harakat kilib yurgan kapitallarni ushlab koluvchi tutkichlar, kopkonlar desa buladi. Ochik iqtisodiy hududlar, mamlakat ichida iqtisodiy jarayonlarni jadallashtirish

maksadida chet el kapitalini jalb etish bilan bir katorda, yana kuyidagi uchta asosiy masalalarini hal etish uchun hizmat kiladi:

- eksportga tovarlar ishlab chikarishni kupaytirish orkali valyuta tushumlarini oshirish;
- ish bilan bandlikni oshirish;
- ochik iktichodiy zonalarni yangi hujalik yuritish usullarini tajribadan utkazish, yangi ishlab chikarish tehnologiyalarini sinab kurish poligoniga aylantirish.

Mamlakat hududida ochik iktisodiy zonalarni tashkil etishni yana bir sababi, mamlakat uz iktisodiyotini chet el kapitali uchun butunlay ochishdan manfaatdor emasligidadir. Ochik iktisodiy zonalarni tashkil etish dunyo tajribasi shuni kursatadiki, ochik iktisodiy zonalarni tashkil etish bir tomonidan davlat iktisodiyotini butunlay hujaligiga integrasiyalashuvini tezlatsa, ikkinchi tomonidan bu hududlarda ishlab sikerishni bazi bir turlarini rivojlantirish maksadida imtiyozlar yaratishdir. Erkin iktisodiy hududlarni tarhi 1510 yildan boshlanadi. Shu yili ispan konkistadori Vasko Nunes de Balbao panama kirgogiga tushdi va ikki okeanning ajratib turuvchi buynida uz sheriklari bilan birgalikda «tijorat portiga» asos soldi. Huddi shu erda dunyo tajribasida birinchi marta bojhona kurigidan utkazish kullanildi.

Hozirgi kunda EIH lar iktisodiy rivojlanish jihatdan har hil bulgan davlatlarda, yangi industrial davlatlarda, rivojlanayotgan davlatlarda, shuningdek bozor iktisodiyotiga utayotgan davlatlarda mavjuddirlar. Agarda 1960 yil bu davlatlarda EIH lar soni 2 tagacha teng bulgan bulsa, 1975 yili ular soni 79 tani, 1981 yili 96 tani, 1985 yili 264 tani, 90- yillarni urtalariga kelib ularni soni 900 tadan oshib ketdi. EIH lar orkali dunyo savdo oboroti hajmini 10% utadi, ularda eksport va import hajmini usish darajasi juda yukoridir. BMT ni trans – milliy korparasiyalar buyicha markazi mutahasislarni baholashiga 90- yillarni urtalariga kelib EIH da mashgul bulganlar soni 3 mln kishidan oshib ketgan. Dunyo tajribasida EIH larni hilma – hil turlari mavjud bulib, ularni har

biri yukorida yukorida keltirilgan umumiylar bilan birga uziga hos hususiyatlarga ham egadir. Uziga hos hususiyatlardan har bir alohida holda kupgina omillar, omillar tuplami bilan ifodalanadi. Bunday omillar katoriga kuyidagilarni kursatish mumkin: joylashish joyi; konfigurasiyasi; EIH joylashgan hududni kattaligi; ishlab chikarish va boshka resurslarni mavjudligi va sifati; shu resurslardan foydalanishda tabiiy, iktisodiy va boshka sharoitlarini uziga hos hususiyatlari; EIH larni tashkil etilishida davlatni uz oldiga va EIH oldiga kuygan masalalari; EIHLarda davlat tomonidan ruhsat etilgan hujalik faoliyatları; hududlarni milliy karamligi va boshkalar. EIH lar bilan bir katorda dnyo tajribasida uni alohida turi – offsher hududlari mavjuddir. Huddi ana shunday hududni tarifi Kiota konvensiyasida berilgan. Bunday hududlar uchun kuyidagi uchta belgi taalluklidir:

birinchidan, ular dunyo bozoriga hizmat kursatish uchun tashkil etiladilar;

ikkinchidan, ularga mamlakatni boshka hududlarida amalda bulgan solik normalari va bojhona chegaralari taallukli emas;

uchinchidan, ular malum manoda «erkin» bulishlaridan katiy nazar, ularga tashki iktisodiy alokalarni davlat tomonidan tartibga solish tegishli buladi.

Evropada shunday hududlardan birinchisi 50- yillarni ohirlarida Irlandiyada vujudga keldi, shundan keyin ular asosan rivojlanyotgan davlatlarda tarkala boshladilar, ular importni urnini bosishdan eksport ishlab chikarishga utishni asosiy kuroli sifatida kullay boshladilar. Shunga uhshash hududlarni 80-yillarni urtalariga kelib ommaviylici osha boshladidi. Bunga sabab iktisodiyoti eksportga karatilgan bir kator rivojlanayotgan davlatlarni yangi industrial davlatlar katoriga kirishidir. Ochik ikimsodiy hududlarni tashkiliy funksional tuzilishi rang barangdir. Bazida ularni sinflash juda kiyindir. Chunki bir turdag'i ochik iktisodiy hudud uzida bir necha turdag'i ochik iktisodiy hududlarni hususiyatlarini uzida mujassamlashtirgan buladi. Shunga karamay Rossiyalik mutahasislar tomonidan ishlab chikarilgan uslubiyatga asosan ochik iktisodiy

hususiyatlarni hujalik ihtisoslashuvi belgilashga asosan kuyidagi guruhlarga bulish mumkin. Ochik itisodiy hududlarni birinchi guruhi savdo hududlari guruhi deb atalib, bu guruhga erkin bojhona, bond omborlari, erkin portlar, erkin savdo hududlari kabi ochik iktisodiy hududlar kiradi. Ochik iktisodiy hududlarni eng sodda shakli – bu erkin bojhona hududlaridir. Bu turdagи ochik iktisodiy hududlar mohiyatiga, tashkil etilish tarihiga kura ochik iktisodiy hududlarni birinchi avlodiga mansubdir. Ular 17-18 asrlardan byon mavjuddirlar. Bunday hududlarni tashkil etilishi davlatlar urtasidagi savdo-sotikni rivojlantirshga hizmat kilganlar. Buyuk Temur davlatda ham «Buyuk ipak yulida» shunday hududlar tashkil etilgan. Bu guruhga kiruvchi «erkinbojhona hududlari eksportiga muljallangan tovarlarni saklash, ularga bir muncha ishlov berish, hamda tovarlarni sotuvga tayyorlash maksadida tashkil etilganlar. Erkin portlar esa davlatlarni dengiz portlarida, bu erga chet davlatlarni savdo kemalarini jaib etish, bu erda ularga, kemalardagi tovarlarga bir muncha ishlov berish maksadida tashkil etilganlar. Bu guruhga kiruvchi erkin savdo hududlari esa davlatlar urtasidagi savdo-sotik jarayonlarini yanada rivojlantirish, iktisodiyotlarini rivojlantirishga kumaklashish maksadida tashkil etilganlar. Misol uchun MDH davlatlaridan untasi, yani Rossiya, Ueraina, Belorus respublikasi, Gruziya, Moldava, Ozarbayjo hamda Markaziy Osiyo respublikalari urtasida imzolangan shartnomaga asosan erkin savdo hududi tashkil etilgan. Bu hudud shartnomani imzolagan davlatlar hududlaridan iboratdir. SHartnomaga asosan bu hududlarda ishlab chikarilgan tovarlardan ularni import kilinayotgan bojhona bojlari undirilmaydi. Ochik savdo hududlarini, ochik iktisodiy hududlarni birinchi avlodi deyilishiga sabab bu hududlarda davlatlararo savdo-sotikni rivojlanishi bu hududlarda savdo-sotikni rivojlantirishga hizmat kiluvchi tarmoklarni ishlab chikarishni rivojlanishiga sabab buladi.

Ochik savdo hududlarda ochik iktisodiy hududlarni dunyoda keng tarkalgan turidir. Bunday hududlar AKSH da kup tarkalgan. 1934 yilda AKSH

da tashki savdo zonalari tugrisida konunni kabul kilinishi bunday zonalarni tashkil etish jarayonlarini tezlatib yubordi. Konunga asosan davlat hududida faoliyat kursatayotgan erkin savdo zonalari umumiyo ahamiyatga ega bulgan va mahsus(subzonalarga) bulinadi. Umumiy ahamiyatga ega bulgan zonalar katta bulmagan joyni egallab (bir necha kv km), ularda olib kirlgan tovarlarni joylashtirish, yani sortirovka, markirovka, kaytadan ishlov berish amlga oshiriladi.

Subzonalar esa alohida katta kompaniyalar uchun tashkil etilib ularda eksportga muljallangan va importni urnini bosuvchi tovarlar ishlab chikariladi. Subzonalar erkin savdo zonalari bilan importni urnini bosadigan iovarlar ishlab chikaruvchi zonalarni kombinasiyasi natijasida hosil bulgan. 90- yillarni urtalariga kelib AKSH da 500 yakin erkin savdo zonalari mavjud edi. Savdo ombor hududlari tarkibida mutahasislar tashki savdo hududlari (AKSH), erkin bojhona hududlari (Vengriya, Yugoslaviya), erkin bojsiz hududlarni ajratadilar(Bolgariya) va erkin portlar(Germaniya). Savdo ombori hududlari nafakat tovarlarni kabul kilish, saklash (odatda 1 yilgacha muddatga) keyinyaalik ularni sotib olish va sotish uchun kayta ishlash uchun tashkil etiladilar., balki shuningdek tovarlarni istemol hususiyatlarini yahshilovchi jarayonlarni amalga oshirish uchun ham tashkil etiladilar. Ularni teritoriyalaridan korhonalar bojhona bojlarini shuningdek tovarlarni istemol hususiyatlarini yahshilanishi natijasida kushilgan kiymat soligini undirilmagan holda keng ravishda kurgazma faoliyati bilan shugullanishlari, savdo-sotikni tashkil etishlari, bank va chugurta hizmatlarini taklif etishlari mumkin.

Bunday hududlar katoriga bojsiz dukonlar dyuti-frila ham kiradi. Bular katta aeroportlar va dengiz portlarida tashkil etilib ularda bojsiz tovarlar chakana savdosi malga oshiriladi. SHuning uchun ular kup hollarda konsignasion omborlar, honalarni kurgazmalar utkazish uchun ijara ga berish orkali kushimcha valyuta tushumlarini taminlaydiganlar. Barcha savdo ombor hududlari asosan daryo va dengiz portlprida, temir yul uzellarida, aeroportlarda, yani tovarlar va

yulovchilarni tranziti joylarida. Ular hamma vakt mamlakat iktisodiy hududidan bojhona va davlat chegarasi orkali ajratilgandir. Erkin portlar – savdo ombor hududini turi sifatida aytib utilgan funksiyalardan tashkari ortish, tushirish, kaytadan ortish amallarini bajaradilar. Savdo hududlari tarakkiyoti jarayonida tranzit savdosini engillashtirish vazifalari katoriga kushimcha ichki bozorga muljallangan tovarlarni ishlab chikarish vazifalarini amalga oshiradilar.

Sanoat-ishlab chikarish hududlari ochik iktisodiy hududlarni ikkinchi avlodiga mansub bulib, ular ochik savdo zonalarini evolyusiyasi natijasida hosil bulganlar. Sanoat ishlab chikarish zonalari mahsus bojhona rejimlari urnatilgan territoriyalarda tashkil etiladi va ularda eksport uchun importni urnini bosadigan tovarlar ishlab chikariladi. Bu zona chubektlari solik va moliya imtiyozlari beriladi. Hozirgi kunda dunyoda ayniksa rivojlanayotgan davlatlarda eksport ishlab chikarish zonalari keng tarkalgandir. Bunday zonalarni hozirgi zamonmodeli 1959 yil Irlandiyani SHenon aeroportida tashkil etilgan ochik iktisodiy zonadan boshlanadi. Bunday zonalarni tashkil kilishdan ayniksa chngi industrial davlatlar kup samara kurdilar.

Eksport ishlab sikarish zonalarini tashkil etish rivojlanayotgan davlatlar iktisodiyoti bilan boglikdir. Chunki 60- yillarni urtalarida bu bu davlatlarda eksportni kullab kuvvatlash, yangi ish joylarini tashkil etish msalalari paydo buldi. Tehnika – tadbik etish iktisodiy hududlar ochik iktisodiy hududlarni uchinchi avlodiga mansub bulib, ular kupincha uz-uzidan yoki davlat tomonidan yirik ilmiy markazlar atrofida tashkil etiladilar. Ularda milliy va horijiy ilmiy tekshirish, loyihalash institutlari, ilmiy ishlab chikarish firmalari yigiladi va ularni hammasi yagona solik va moliya imtiyozlari tizimidan foydalanadilar. Bunday hududlarni tashkil etilishi ishlab sikarish jarayonlarini yangi zamonaviy tehnologiyalar asosida yanada takomillashtirish, ishlab chikarishni samaradorligini oshirish, ishlab chikarilayotgan tovarlarni dunyo bozorlaridagi rakobatdoshlik darajasini oshirish imkonini beradi. Ishlab chikarishni rivojlanishi va unga hizmat kiluvchi ilmiy tehnika markazlarini tashkil etilishi

bu korhona va tashkilotlarga bank, sugurta va boshka turdag'i hizmatlar kursatuvchi tuzilmalarni rivojlantirishni takazo kiladi. SHuning natijasida ochik iktisodiy hududlarni navbatdagi avlod - servis hududlari tashkil etilgan. Servis hududlarga offshor zonalari va solik gavnalari ularda yaratilgan moliya - valyuta fiskal' rejimlari buyicha yaratilgan imtiyozlar bilan uziga tadbirkorni jalb etadi.

Offshor hududida ruyhatdan utgan solik va boshka imtiyozlarga davogar firmalarga kuyiladigan talablardan biri, ularni offshor zona joylashgan davlatni rezidenti bulmasligi uni hududida foyda olmaslik. Solik gavanlarini offshor hududlaridan farki shundaki uni hududidagi barcha firmalar birday barcha turdag'i yoki ayrim turdag'i faoliyatları uchun solik imtiyozlaridan foydalananadilar. Hozirgi kunda dunyoda 300 dan ziyod offshor markazlari mavjuddir. Ularning ichidan 70 ga yakini solik gavanlaridir. Anchadan beri offshor hududlar tashkil topgan davlatlar katoriga Lihtenshteyn, Panama, Nomand orollari, Antil' orollari, Gonkong, Liberiya, Irlandiya, SHvesariya davlatlari kiradi.

Offshor hududlarida joylashgan ishlab chikarish, savdo, bank, sugurta va boshka kompaniyalar umuman solik tulashdan ozod etilganlar yoki uncha katta bulmagan pashshal' soligiga tortiladilar. Offshor hududlaridagi imtiyozli rejim na fakat solikka tortilmaslik, undirilayotgan solik mikdorini kamligi bilan, balki valyuta buyicha chegaralshni yukligi foydani erkin ravishda olib chikib ketish, chet el investorlari uchun bojhona bojlari va yigimlarini yukligi va boshka turdag'i engilliklar bilan harakterlanadi. Ochik iktisodiy hududlarni keyingi turi bu kompleks hududlaridir. Bu hududlar mamlakat hududida mavjud bulgan umumiy rejimdan farkli ularok uziga hos imtiyozli rejimlarga ega bulgan mamuriy teritorial bulinmalarga aytildi. Bular katoriga Hitoyda tashkil etilgan 5 ta mahsus iktisodiy hududlar, Braziliyadagi «Manaus», Argentinadagi «Olovli er», hamda rivojlangan davlatlar tomonidan depressiya hududlarida tashkil etilyotgan komples zonalari kiradi. Bu ochik iktisodiy hududni tashkil etishda

Yaponiya, Janubiy Koreya, Mongoliya, Hitoy, KHDR va Rossiya davlatlarini ishtiroki kuzda tutilayapti. Ochik iktisodiy hududda loyihaga kura katta port kup sondagi sanoat ishlab chikarish korhonalarini kurish kuzda tutilgan hududda tashkil etilajak ishlab chikarish krg'orhonalarini Hitoy va Koreya ishchi kuchi Rossiya bu korhonalarga kayta ishlash uchun hom ashyo etkazib berishlari kuzda tutilgan.

### **Mustaqil ishslash va o'z - o'zini nazorat qilish uchun savollar:**

1. Mamlakatning iktisodiy havfsizligi nima?
2. Iktisodiy havfsizlikni taminlash omillari.
3. Ochik iktisodiy hududlarni turkumlanishi.
4. Iktisodieti utish davrida bulgan mamlakatlarda erkin iktisodiy hududlarni urni nimada?
5. Rivojlangan mamlakatlarda erkin iktisodiy hududlarni tashkil etilish tarifi.

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. I.A.Karimov – Uzbekiston XXI asr busagasida: havfsizlikka tahdid, barkarorlik shartlari, tarakkiet kafolatlari. T: Uzbekiston, 1997 y
- 2.V.G.Svinuhov – Tamojenno-tarifnoe regulirovanie VED, M., Ekonomist, 2004
3. E.F.Avdokushin – Mejdunarodnye ekonomicheskie otnosheniya. M: IVS «Marketing», 1997 g
4. V.I.Fomichev – Mejdunarodnaya torgovlya. M: Infra- M, 2001 g
5. Mejdunarodnye ekonomicheskie otnosheniya, uchebnik, pod red. I.P.Fominskogo, M., Ekonomist, 2004 g.

## **4.2. Bojhona logistikasini bojhona siyosatida tutgan o'rni**

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda harid qilish logistikasining maqsadi, bu ishlab chiqarish jarayonining materiallarga bo'lgan talabini yuqori iqtisodiy samara bilan qondirish xisoblanadi. Lekin bunga erishish uchun harid logistikasining oldida turgan bir qator vazifalarni bajarish kerak. Bu vazifalarni quydagicha guruxlash mumkin:

- homashyo va komplekt maxsulotlarni malum bir muddatda etkazish. O'z muddatidan ilgari olingen maxsulotlar korhonaning aylanma fondiga qo'shilishi mumkin, o'z muddatidan kech olingen homashyo va materiallar ishlab chiqarish jarayoniga salbiy tasir qilishi yoki uning yo'nalishini o'zgartirish mumkin;
- materialarning talab qilingan miqdori bilan etkazib berilgan mikdorning o'zaro mos kelishi (talab kilingan kam etkazilgan maxsulotlar korhona aylanma fondining balansiga salbiy tasir qilishi mumkin);
- homashyo xamda komplekt maxsulotlariga bo'lgan talab sifatini nazorat qilishi (talabni qondiruvchi, minimal narhidagi).

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatning sanoatlashgan firmalarida material - tehnik taminotini tashkil etishning ikki shakli qo'llaniladi: markazlashgan va markazlashmagan. Bu shakllarning xar biri (taminot va sotuv) o'ziga hos guruxlangan va yoyilgan taminot sotuv hizmatidir. Gruxlangan hizmatda uning barcha bo'limlari alovida funksiya (taminot, sotuv, zahiralarni saqlash, tashish va boshqalar)larni bajaradi. Yoyilgan hizmatlar uchun ikki yoki undan ortiq bo'limlar bo'yicha chiziqli bo'limlarni bo'lib - bo'lib joylashtirish harakterlidir.

Odatda material-tehnik taminotni boshqarishning markazlashtirilgan shakli bir turdag'i maxsulotni ishlab chiqaradigan firmalar va bitta mintaqada faoliyat yurituvchi korhonalarda qo'llaniladi. Boshqarishning markazlashtirilmagan shakli turli hil mintaqada joylashgan va bir hil yoki bir necha hil maxsulotlar ishlab chiqarishga ihtisoslashgan firmalarda qo'llaniladi. Bazan boshqaruvning aralash shaklidan foydalaniladi. Moddiy-tehnika taminotini markazlashtirishda muomala harajatlarini qisqartirishga taminotchilardan katta miqdordagi tovarlarni qabul qilib olish va ularni chegirmali narhlarda sotib olish orqali erishiladi. Markazlashtirilmagan shaklda taminot hizmati tashkiloti, ishlab chiqarish va sotish bo'limi nisbatan kam miqdordagi homashyo va maxsulotlarni sotib oladilar va natijada etkazib berish harajatlari bo'ladi. Moddiy tehnika

taminoti muomala harajatlarini xar bir ishlab chiqarish bo'limida va korhona faoliyatida material zahiralarini kamaytirish xisobiga qisqartiradi.

Markazlashgan boshqaruvning guruxlangan hizmat shakli 30-chizmada ko'rsatilgan. Moddiy tehnika taminoti korhona ichidagi material oqimlar xarakati uchun kirib kelayotgan homashyo, yarim tayyor maxsulot va tayyor maxsulot (istemolchilarga jo'natilgan), shuningdek kerakli vaqt va talab qilingan miqdorda barcha zarur materiallarni ishlab chiqarish jarayonini taminlash uchun javobgarlik oladi.

Yuqori darajadagi sifatga ega bo'lgan, talabni qondiruvchi materiallarni, minimal narhdagisini izlash, harid qilish logistikasining iqtisodiy samaradorligi asosini tashkil qiladi. Bozorni o'rganishda, firma oldida turgan asosiy masala narh xisoblanadi, bundan tashqari esa logistika harajatlari xisoblanadi. Ulgurji haridor uchun harajatlarning aniq xisob - kitobi zarur. Chunki, materiallarning, homashyoning aniq xisob-kitobi ishlab chiqarishning kelajak strategiyasini belgilaydi.

G'arb amaliyotida bir necha umumiylar mavjud bo'lib, ular faqatgina etkazib beruvchilar va bank soxasini yahshilamay, balki korhonaning raqobat kurashida g'olib chiqishini xam taminlaydi. Bu kodeks xamkorlarning etik meyorlarini belgilab beradi.

Uni qisqacha shunday deyish mumkin: muvaffaqiyatli tayyorgarlik va ishlab chikarish asosida, bir tomonidan ishbilarmonlar o'rtasidagi yahshi munosabat yotsa, ikkinchi tomondan kreditor xamda etkazib beruvchilar bilan yahshi munosabatlar yotadi. Asosiy etiborni kreditorlarga qaratish kerak, chunki firma faoliyatida ularning ishonchi va yordam berishga tayyorligi muxim axamiyatga ega.

Etkazib buruvchilar bilan muomala qilishning bir qancha shartlari mavjud:

- etkazib beruvchilarga, huddi mujozlardek muomala qilish kerak;
- qiziqishlar umumiyligini namoyish etishni yoddan chiqarmaslik lozim;

- etkazib beruvchining o'z vazifalari bilan tanishtirib berish va uning faoliyatini nazorat qilish zarur.
- kelib chiqishi mumkin bo'lgan muammolarni xal qilishga ko'maklashishga tayyor bo'lish kerak;
- majburiyatlarni o'z bo'yning olishni nazorat qilish lozim;
- ish faoliyatidan etkazib beruvchining qiziqishlarini etiborga olish kerak;
- faoliyat doirasida barqaror muloqotni taminlash zarur.

G'arb mamlakatlarda iqtisodiyotning yangi soxalari rivojlanishi, sanoati rivojlangan mamlakatlarda tovarlar taklifining kengayishi, homashyo va materiallar soxasi faoliyatini yanada qiyinlashtiradi. Muvaffaqqiyatli savdoni amalga oshirish uchun bozorlar xaqida keng ahborotga ega bo'lish kerak. Buning uchun bozor tadqiqotlari olib borilishi kerak. Bozor tadqiqotlarini olib borishda muammoning to'g'ri ko'yilishi muxim axamiyat kasb etadi. Bozorni tadqiq qilish muammosini echishda eng sodda algoritm korhonaning ahborotlar bilan taminlanganligida o'z aksini topadi. Homashyo va materiallar bozorini tadqiq qilish ayni vaqtda tadqiq qilinayotgan bozorlar turini aniqlashni xam talab qiladi. Ularni quyidagi guruxlarga bo'lish mumkin:

- bevosita bozorlar (homashyo va materiallar bozorini taminlovchilar);
- o'rribosar tovarlar bozori (to'la yoki qisman o'rribosuvchi tovarlar);
- bilvosita bozorlar (etkazib beruvchilar tomonidan qo'llanadigan bozor);
- yangi bozor.

Bu ahborotlar talab, taklif va bozor balansi xaqida bo'lib, quyidagi savollarga javob berishi kerak:

- tadqiq qilinayotgan bozorning tuzilishi qanday?
- tadqiq qilinayotgan bozor qanday tuzilishga ega yoki u talab va taklifni qanday muvozanatlaydi?

Bozorni o'rganib va aniq bir etkazib beruvchilarga to'htalgan xolda savdo bo'limi korhona talab qilayotgan malum bir maxsulotlarni ajratib olishi kerak. Talabni aniqlashtirishda zahiralarni istemol qilishni boshqarish strategiyasi

muxim axamiyat kasb etadi. Talabni o'rganish avvalambor, tovar va hizmatlar sifatiga, miqdoriga ikki hil usul bilan tasir qiladi: birinchisi, talabni buyurtmalar bo'yicha o'rganish va talabni rejali, harajatlar asosida o'rganish; - ikkinchisi, agar talabni buyurtma asosida o'rganishning iloji bo'lmasa, u xolda talabni harajatlar orqali aniqlash usuli qo'llaniladi.

G'arb mamlakatlarida firma tomonidan egalik qilingan tovarlar, ularning turi va sotib olish usullari bilan turkumlanadi. Bu hilma - hillikdan manaviy ravishda quyidagi tovarlar turi ajratiladi: homashyo va asosiy materiallar; yoqilg'i; komplektlovchilar va asbob - uskunalar. Materiallarni etkazib berish usullari hilma - hildir. Uzoq muddat saqlash talab qilinmaydigan tovarlar, istemol qilinishga juda oz muddat qolganida sotib olinadi. Bir marta yoki doimiy istemol qilinadigan materiallar etkazib berish shartnomasida ko'rsatilgan muddatda sotib olinadi. Bu usullar natijasida firma zahirasidagi materiallar kamayadi. Harajatlarni kamaytirish maqsadida malum bir tovar turlari kichik guruxlarga jamlar turlari kichik guruxlarga jamlaa shu maqsadlarda barcha firmalar kompyuterlarning internetga ulangan aloqalaridan foydalana boshlashlari kerak. Egalik qilinayotgan tovarlarning narhi - sotish siyosatida eng muxim element xisoblanadi. Savdo narhining taxlilida xisob-kitoblarning bir necha usullari qo'llaniladi:

- kal'kulyasiyaning oddiy usuli (umumiylar harajatlar ko'rsatkichi ishlab chiqarish ko'rsatkichiga bo'linadi);
- ekvivalent ko'rsatkichlar bo'yicha xisob-kitob (harajatlar, aloxida bo'limlar bo'yicha taqsimlanadi va o'rtachasi olinadi);
- doimiy xisob-kitoblar (BTA boshqarish tizimini avtomatlashtirish bazasidagi xar bir operasiyada yuzaga keladigan harajatlarning aniq xisob-kitobi).

Narhlar taxlili qo'shimcha ish va hizmatlarni xam xisobga oladi. Masalan, maslaxatlar berish, xujjatlashtirishga tayyorgarlik, qodoqlash, bojhona bojlari, etkazib berish va boshqalar. Bunday xolatlarda narhlar taxlilining quyidagi usullari qo'llaniladi:

- xamma bosqichdagi narhlar taxlili - maxsulotning paydo bo'lishidan to istemolchiga etib borishiga qadar bo'lgan vaqt (ishlab chiqarish harajatlarini xisobga olgan xolda tovarning sof (netto) narhi belgilanadi);
- ish va hizmatlarning umumiy qiymatini xisobga olgandagi narh taxlili (bu erda nazorat, saqlash va moliyalashtirishga ketgan qo'shimcha harajatlar xam xisobga olinadi);
- tovarning foydaliliga asoslanib belgilangan narh taxlili;
- o'hshash tovarlar narh ko'tarilishining yo'nalishi taxlili;
- yangi maxsulotga nisbatan narh taxlili;
- vaqt oralig'idagi narh taxlili;
- tovarning bir birligiga ketgan harajatlar bo'yicha narh taxlili;
- sirg'aluvchi narhlar yordamidagi taxlil.

Odatda haridor tovar narhlarning xammasini bilishi shart emas, buning uchun haridor va sotuvchi o'zaro harajatlar haqida ahborot almashsalar etarli. Bular ichiga etkazib berish xaqidagi qisqa muddatli shartnomalar xam kiradi.

Transport harajatlari moddiy tehnika taminoti organlarining xam nazorati ostida bo'ladi. Bunda faqat masofaning uzoqligi emas, balki transport turi, etkazib berish tezligi, tovarlarning qadoqlanishi, tushirish usullari xam etiborga olinadi. Transport harajatlarining asosiy qismini materiallarni saqlash uchun ketadigan harajatlar tashkil qiladi. Turli firmalardagi taminot hizmatining asosiy vazifasi firmalarga etkazib beruvchilarni tanlash xisoblanadi. Bu tanlov xozirgi kunda asosan 2 ta usulda o'tkaziladi. Birinchi usul bo'lishi mumkin bo'lgan variantlar va takliflarning taxlili, oldi - sotdi uchun javob beruvchi savdo agenti tomonidan amalga oshiriladi. Eng arzon narhlardan kelib chiqqan xolda etkazib beruvchini tanlash, buyurtma berish, buyurtma bajarilishini nazorat qilish va vujudga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni xal qilish savdo agenti zimmasiga yuklatilgandir. Xamma muammolar zamonaviy aloqa vositalari yordamida xal qilinadi. Ikkinci usul, shikoyatlar xamda etkazib berishga bO'lган talab xamkasblar tomonidan umumiy xal qilinishini nazarda tutadi.

Taxlil xar bir bo'limda bir hilda o'tkaziladi. Bu savdo - sotik bo'limida xam, tovar sifatini nazorat qilish bo'limida xam o'tkaziladi. Uchinchi usul xam mavjud bo'lib, bunda yangi, yahshi o'rganilmagan bozorni korhona tomonidan taminotining qondirilishidir. Bu asosan yangi tovarlarga talabning paydo bo'lisi bilan yuzaga keladi. 1980 - yillarda korhona faoliyatining rejali boshlanishi yahshi shakllangan korhona faoliyatini rejalashtirishda bir qator omillar xisobga olinadi, hususan: inflyasiya tezligi; bir qator mamlakatlarda valyuta devalvasiyalanishi, narh o'sishiga tasir qiluvchi omil; etkazib berish bozorida kapital konsentrasiyasining o'sishi; ishlab chiqarishning tehnologiya tomonidan rivojlanishi; yangi materiallarning paydo bo'lisi va boshqalar. Ko'pgina firmanın boshqaruvi hodimlari shuni tushunib etishdiki, etkazib berish bozori bilan bo'ladigan aloqalarning rejalashtirilishi, oldi-sotdi bozorini taxlil qilish va rejalashtirish kabi juda muximdir.

G'arb mamlakatlarida tovar va komplekt maxsulotlar etkazilishining sifatli bo'lisi, firmalar taminot bo'limining asosiy muammolaridandir. Shuni aytib o'tish kerakki, etarli darajada raqobatchilarning mavjud bo'lisi higa qaramay, sifat muammosi dolzarb muammolardan biri xisoblanadi. Ko'pgina G'arbiy Evropa, Amerika, Yaponiyadagi kompaniyalar o'rtaida kuchli raqobat bormoqda. Bu raqobatda asosiy etibor etkazib berish manbalariga qaratiladi. «ITT Kennon Nort Amerika» bu usulda juda malakali xisob kompaniyani boshqarish tizimida «etkazib beruvchilarni tanlab olish guruxi» deb nomlangan bo'lim mavjud bo'lib, bu bo'limga material tehnik taminot bo'limlari, moliyaviy hizmat, ishlab chiqarish bo'limi hodimlari azodirlar. Gurux korhona tomonidan qo'yilgan barcha talablarga to'laqonli javob beruvchi ishchilarni, etkazib beruvchilik vazifasiga qabul qiladi. Etkazib beruvchining imkoniyatlarini o'rganishda asosan quyidagilar etiborga olinadi:

- talab darajasidagi tovarlarni ishlab chiqarishda asbob - uskunalarning mavjudligi;

- kerakli anjomlar bilan dasturda ko'rsatilganligi bo'yicha tovar sifatini tekshirishga sharoitning mavjudligi;
- chiqayotgan homashyo va materiallarni nazorat qilish, attestasiyadan o'tkazish;
- ishchilarining nazorat qilinishini aniqlovchi xujjatlar xamda qo'llanmalarining mavjudligi;
- ishlab chiqarishni to'laligicha nazorat qiluvchi xujjatlarning mavjudligi.

G'arbiy Evropa kompaniyalarining taminot bo'limi oldida turgan vazifalardan yana biri etkazib beruvchi resurslar xamda istemolchi talabining muvozanatini aniqlashdir. Misol tariqasida «Eripson informeyshn sistems» deb nomlanuvchi shved kompaniyasining faoliyatini ko'rib chiqish mumkin. Bu kompaniya o'zinig taminot tizimini ishlab chiqargan. Bu tizimga ko'ra, savdo markazi yangi tovar ishlab chiqarish bilan bog'lanadi. Bunda firma bo'lajak istemolchilar talabini qondiruvchi etkazib beruvchilarni tanlaydi va ularni yangi tovar ishlab chiqarishda qatnashishga undaydi. SHvesiyadagi «Saab - Skakia» kompaniyasining taminot bo'limi vazifasiga quyidagilar kiradi: talablarni qondirishning tehnik usullarini topish; tehnologiyalarni qayta ishlashda aniq o'zgarishlarni yaratish; korhonani test o'tkazuvchi laboratoriylar bilan taminlash. Yuqoridagilardan hulosa qilib, korhona taminot bo'limining yangi vazifalarini ko'rsatish mumkin. Ular: korhona ichki faoliyat taxlili; dizayni; o'hshashini ishlab chiqarish; tovar ishlab chiqarishga tasir qiluvchi ichki va tashqi omillarni xisobga olishdan iborat.

***Logistikasining amal qilish mehanizmi.*** Sanoati rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqarishni homashyo va materiallar bilan taminlashning bir qator standart mehanizmlari bor. Masalan, Germaniya Federativ Respublikasining sanoatini materiallar bilan taminlash tizimi, etkazib beruvchi tashkilotlarning omborlar tizimi, markaziy omborlar va taminot tashkilotlari omborlariga asoslangan.

Germaniya Federativ Respublikasida material bilan taminlashning manaviy tizimi zahiralarni saqlashga asoslanadi. Bu xolda ishlab chiqarishga

kerakli bo'lgan omborga tovarlarni qabul qilinganligi xaqida xujjat tayyorlanadi va bu tovarlar to'g'ridan - to'g'ri ishlab chiqarish maskanlariga jo'natiladi. Talab asosida sotib oluvchi tashkilot buyurtma harajatlarini rasmiylashtiradi va uni etkazib beruvchiga jo'natadi. Etkazib beruvchi buyurtmani olib, tovarni so'ralsan tashkilotga sotib berishini taminlaydi. so'ngra katta miqdordagi tovarlar avtomobil yo'llari yoki temir yo'llari orqali markaziy omborga olib kelinadi. U erda tovarlarning sifati, miqdori tekshiriladi. Agar xammasi talabga javob beradigan darajada bo'lsa, qismlarga bo'linib, ishlab chiqaruvchi korhonalarga jo'natiladi.

YUqorida aytib O'tilgan faoliyat chizma ravishda 23-chizmada berilgan. Bu faoliyatni amalga oshirishda savdo bo'limi yoki vositachilar 9-10 ga yaqin xujjatlarni etkazib beruvchiga topshiradilar. Etkazib beruvchi esa buyurtmani bajarayotgan paytda markaziy punktga 14 ga yaqin xujjat topshiradi. Umuman, xujjatlarning bu qadar ko'pligi materiallar etkazib berish faoliyatining annaviy tizimi doiralar bilan chegaralangan deyish mumkin. Buyurtma beruvchi bilan etkazib beruvchi, materialga buyurtma tushganidan boshlab, to uning egasiga etib borishi va qabul qilinishi xamda qo'llanilishigacha bo'lgan davrda xujjatlashtirishning 15 ga yakin usulidan foydalanadilar. Ularning bir necha nushada bo'lishini xisobga oladigan bo'lsak, u xolda xujjatlar soni 50 dan oshib ketadi.

Zahiralarni saqlash bir qancha miqdorda harajat xamda ishchi kuchini talab qiladi. Quyida harajat guruxlari beriladi.

1. Omborhonalarining band bo'lishi;

- a) bino amortizasiysi;
- b) asbob - uskunalar amortizasiysi;
- v) remont harajatlari;
- g) isitish vositalariga harajatlar, elektr-energiya va suv vositalari;
- d) ijara to'lovi.

2. Hizmat ko'rsatuvchi ishchilarga harajatlar:

- a) Ombor ishchi - hizmatchilari uchun maosh;
- b) Ishchilarning ijtimoiy ximoyasi uchun harajatlar;

3. Trasport vositalari uchun harajatlar:

- a) amortizasiya;
- b) energiya va yoqilg'i uchun harajatlar;
- v) joriy remontlar uchun harajatlar;
- g) sug'urta va trasport vositalari uchun soliq.

4. Materiallarni saqlash natijasida kelgan zararlar:

- a) ombor qoravullari va materiallarning eskirishi;
- b) zanglash va boshqalar;
- v) inventarizasiya natijasidagi yo'qotishlar;
- g) o'g'rilik;
- d) narhlar tushishi natijasidagi yo'qotishlar;
- e) zahiralarni sug'urtalash harajatlari.

Shuning uchun, bu tizim nisbatan noqulayroq bo'lib, faoliyatni doim nazorat qilishni xamda uni optimallashtirish yo'llarini topishini talab qiladi. Ishlab chiqarishni materiallar bilan taminlashda etkazib beruvchi firmalar bilan shartnomalar tuzish tizimi o'zini oqladi. Bu tizim XX asrning 70 - yillari ohiri 80 - yillari boshida ishlab chiqilgan bo'lib, bunda faoliyat yuritish bo'limlari nisbatan kamroq. Bu tizim istemolchi va etkazib beruvchilar o'rtasidagi munosabatni, yuqorida aytib o'tilgandan xam qisqaroq yo'llar bilan amalgashiradi. YUklar birdaniga ishlab chiqaruvchiga emas, balki birinchi navbatda ulgurji savdo kompaniyasiga kelib tushadi. Bu kompaniya o'zining bir necha yirik omborlariga ega bo'lib, asosan homashyolarni istemolchi - ishlab chiqaruvchilarga tez etib borishini taminlaydi. Rivojlangan bozor sharoitida taminotning logistika bo'limining asosiy muammosi talab extiyojlarining tez o'zgarishidir. Bu ko'pincha etkazib beruvchida ishlab chiqaruvchiga kerak bo'lmaydigan tovarlarning yig'ilib qolishida o'z aksini topadi. Ohirgi o'n

yillikda taminotning bir qator usullari ishlab chiqilgan bo'lib, u ishlab chiqarishning aniq bir talabini qondirishga mo'ljallangan. Ular quyidagilar:

- kanban usuli (Yaponiyada ishlab chiqilgan usul bo'lib, umumiy ishlab chiqarishni materiallar bilan taminlashga mo'ljallangan ohirgi talabni xisobga oladi);
- talab va materiallarni rejalashtirish tizimi. Bu 3 bosqichda amalga oshiriladi: birinchisi dasturli rejalashtirish, ikkinchisi materiallarni taqsimlash va uchinchisi savdoni nazorat qilish;
- «Aynan vaqtida» usuli, bu usul zahiralar to'planib qolishining oldini oladi;
- talab bo'yicha taminot tizimi, bunda uzoq muddatli malum shartnomaga etkazib beruvchilar bilan tuziladi. Materiallar bosqichma - bosqich istemolchiga etkazib turiladi;
- «bashorat ko'rsatkichlari» usuli (katta miqdordagi materiallarga talab malum darajada xujjatlashtiriladi va talab asosida materiallar etkazib beriladi);
- istemolchi va etkazib beruvchi o'rtasidagi kerakli malumotlarni internet orqali almashish usuli. Buyurtma kelib tushgandan so'ng, qolgan xamma malumotlar kompyuter orqali olinadi.

Zamonaviy savdo uchun oldindan talab qilinadigan materiallarni bashorat qilish hosdir. Bashoratning chuqur o'rganilishi zahiralar miqdori, etkazib berishga va taminotga tayyorligini belgilaydi. Bashorat asosida taminot rejasi tuziladi. Taminot shunday balanslashtirilishi kerakki, uning asosida ishlab chiqarishning bosqichli dasturi tuziladi. Mana shu dastur materiallarni ishlab chiqarishga tasir qiluvchi omil bo'ladi. Talab qilinayotgan material, homashyolar aniq bo'lgandan so'ng korhonalar faoliyat yo'nalishini belgilaydilar va sotib olishni tashkil etadilar. Shartli ravishda sotib olishning ananaviy va operativ usullari bor. Operativ taminotning eng samarali usuli «Aynan vaqtida» deb nomlanadi. Bu usul Yaponiyada 1950 - yillarda tashkil topgan bo'lib, keyinchalik Evropa va AQSH da davom ettirilgan. Bu usulning asosiy maqsadi uzoq muddatli shartnomaga bo'yicha savdo - sotiq va taminot buyumlarini o'z vaqtida, oraliq

omborlarni chetlab o'tgan xolda to'g'ridan - to'g'ri ishlab chiqarish liniyasiga etkazib berishdan iborat.

«Aynan vaqtida» usuli asosan avtomobil ishlab chiqarish soxasida rivojlangan. Bunga misol qilib, «Mersedes - Bens» zavodining yig'uv sehiga avtomobil o'rindiqlarini etkazib berishni keltirish mumkin.

Etkazib berishni asosiy ishlab chiqarishdan 6 km uzoqlikda joylashgan «Kayner-Rekaro» firmasi amalga oshiradi. Oldindan rejalashtirish 6 oygacha amalga oshiriladi. Bu o'z ichiga etkazib berishdan tortib to tahminiy talablarni xam oladi. Etkazib berishni aniqlashtirish fazasi avtomobil yig'ish boshlanishidan 15 kun ilgari amalga oshiriladi. Istemolchining talabidan kelib chiqqan xolda firma bir xafka oldin ishlab chiqarish rejasini tuzadi. Yig'uv ishlari boshlanishidan oldin zavodga buyurtma beriladi. Maksimum yig'uv ishlari boshlangandan so'ng 6 soatdan keyin sehga talab qilingan o'rindiqlar etkazib beriladi. Aytib o'tilgan faoliyat ananaviy taminotda umuman boshqacha tus oladi. Masalan, Amerika kompaniyalarida tovarlar bilan taminlashning quyidagi usullari qo'llaniladi: sotib olinadigan partiyani aniqlash; etkazib beruvchilarni tanlash; etkazib beruvchilarni baxolash; nazorat tashkiloti; munozaralar va shartnomalar tuzish; etkazib berish usulini tanlash; xujatlashtirish; qadoqlash. Tezkor va ananaviy taminot bir - biridan tubdan farq qiladi. Masalan, ananaviy taminotda tovarlar katta xajmda uzoq vaqt oralig'ida etkaziladi. Tezkor taminotda xajman katta bo'limgan tovarlar guruxlari teztez jo'natib turiladi. Ananaviy taminot (AT)ni baxolashda 2% gacha brakka yo'l qo'yiladi. Tezkor taminotda brakka umuman yo'l qo'yilmaydi. AT shartnomasi mazmuni - iloji boricha arzon narhda material olish. Tezkomning esa - yuqori darajadagi sifatga ega bo'lgan materiallarni olish. AT ga asosan, sotib oluvchining uch hil talabini qondiruvchi etkazib beruvchi tanladi, ular: sotib olinayotgan tovar sifati; etkazib berish shartlari; narhi. Etkazib beruvchining faoliyatini baholash, oyda bir yoki chorakda bir amalga oshiriladi. Amerika kompaniyalarida etkazib beruvchilar xar oy sinovdan o'tkaziladi va baxolanadi. AQSH ning AT tajribasiga asosan, maxsulot sifatiga qabul qilish bo'limi javobgar xisoblanadi. Yaponiyada esa bunga etkazib beruvchi javobgar

xisoblanadi va u materialni to'g'ri ishlab chiqarish liniyasiga olib boradi. Xozirgi kunda ko'p AQSH kompaniyalari tovar sifatida javobgarlikni etkazib beruvchi zimmasiga yuklashmoqda. Masalan, «Nissan - Amerika» «Djeneral motors - Byuik», «Hyullet - Pakkard» kabi kompaniyalar materiallarni qattiq nazorat ostiga olmay, to'g'ri ishlab chiqarish yo'liga jo'natishmoqda.

Bunday etkazib berish usullarini o'rganayotgan haridorni qiziqtiradigan narsalardan biri bu raqobatchilardir. Chunki raqobat mayjud bo'lsa, haridor iloji boricha yuqori darajadagi sifatga ega bo'lgan materialni sotib olishi mumkin. Bundan tashqari, raqobatning yo'qligi narhga xam tasir qiladi. Agar raqobat mayjud bo'lmasa, materialning tammari xaqiqiyisidan ancha qimmat bo'llib ketadi. Bu esa ishlab chiqarish harajatlarini ko'paytiradi. AQSH va Evropa kompaniyalari jaxon bozori taminotida tarixiy - vertikal integrasiya qo'llanilishiga qarshilik bildirmoqda. Chunki, ular asosiy materiallar - uzellar, detallarni asosan Yaponiya va Meksika xamda Braziliya kabi rivojlanayotgan mamlakatlardan keltiriladilar. Buni avtomobil sanoatida yaqqol ko'rish mumkin: AQSHda 1982 yildan beri avtomobil detallari importining darajasi ko'tarilishi kuzatilmogda. Maslan, 1985 yilda AQSH YAponiyadan 3 - milliard AQSH dollariga teng miqdorda uzel va detallar sotib olgan, Meksikadan 4 - milliard dollarga yaqin, GFR - dan 5,5 - milliard dollar, Áðàçëëèýääí 6 - ielliaðä dollar. 1985 yildan 1992 yilgacha bo'lgan davr ichida import darajasi 50 - 60 - % ga o'sgan.

Detal va komplekt maxsulotlarining milliy chegaralardan oqib kirishining o'sishi 5 sababga asoslanadi:

- chet elda ishlab chiqarish harajatlarining nisbatan kamligi;
- detallar tehnik parametrlerining yaqinlashishi va bular asosida ishlab chiqarish mashtablarini kengaytirish mumkin;
- rivojlanayotgan mamlakatlarda soliq to'lovlarining nisbatan pasligi;
- ishlab chiqarish firmalarining halqaro qo'shilishi;
- detallarni arzon ishlab chiqarishning halqaro bazalarini izlash.

Ishlab chiqarishni material va tehnologiya bilan taminlash strategiyasini ishlab chiqishda bir qator xisob-kitoblar amalga oshirilishi kerak. Bu jarayonni amalga oshirishda ishlab chiqilgan strategiya quyidagi savollarga javob berishi kerak:

1. Yuk tashishga talablar qanday?
2. Qanday hizmatlar kerak bo'ladi?
3. Etkazib beruvchilar va transportirovka qiluvchilami qanday usullar bilan attestasiyadan o'tkazish mumkin?
4. Material - tehnik taminotni optimallashtirish uchun qanday vositalardan foydalanish kerak.

Taminot tizimi, minimal darajada zahiralar mayjud bo'lgan paytda juda samarali xisoblanadi.

Bu xarakatlarni amalga oshirishda, faoliyat asosida tizimli yondashuv yotadi. Tizim etarli darajada egiluvchan bo'lib, bir etkazib beruvchidan, ikkinchisiga bo'lgan bog'lanish maqsadga muvofiq narhda bo'lishi kerak. Chet el etkazib beruvchisidan Rossiyaga tovar etkazib berishdagi namunaviy tizimini «Global odin» kompaniyasi misolida ko'rish mumkin. Bu kompaniya telekomunikasiya hizmatlari bilan shug'ullanadi. Tovar etkazib berish faoliyati bir necha bosqichlarga bo'lingan:

- etkazib beruvchi bilan Rossiya kompaniyasi o'rtasidagi shartnomaning tuzilishi;
- yuk tashuvchilarni tanlash va ular bilan shartnoma tuzish;
- etkazib beruvchi tomonidan tovarlarni yuklash;
- rossiya bojhonasigacha yuk tashishni tashkil qilish (28-chizma);
- rossiya bojhonasi tomonidan yukni xujjalashtirish va bojhonegining import faoliyati bilan shug'ullanuvchi brokerlari bilan ishslash;
- rossiya bojhonasidan ishlab chiqarish korhonasining omborigacha yuk tashish;
- kompaniya omboridan buyurtmachigacha yuk tashish.

- Yuk tashish majburiyati - ishlab chiqarishda muxim muammo xisoblanadi va u turli firmalarda turlicha xal qilinadi. Bu masala ustida iqtisodchilar orasida juda ko'p tortishuvlar bo'lib o'tgan. Masalan, AQSH da tovarni etkazib berish juda qimmat bo'lganligi uchun bu faoliyat bilan aloxida kompaniyalar shug'ullanadi. Albatta, material-tehnik taminotda iqtisodiy, geografik, siyosiy vazifalar xam, uning kelajakdagi faoliyatiga o'z tasirini ko'rsatadi. Haridor (taminot) logistikasi logistika tizimining birinchi elementi bo'lgan homashyo, material va yordamchi qismlarni harid bozoridan korhona omborigacha xarakat qilish jarayonini o'zida aks ettiradi. Haridor logistikasining samarali amal qilishi uchun maxsulot ishlab chiqarishga aynan qaysi material zarurligini bilish, haridorlar rejasini tuzish lozim.

**Istemolni aniqlash va taxlil qilish, buyurtma berilgan materiallar miqdorini xisoblash.** Haridorlarni rejelashtirish jarayonida quydagilarni aniqlash zarur:

- qanday materiallar talab qilinadi;
- maxsulotni ishlab chiqarish uchun kerak bo'ladigan materiallar miqdori;
- ular kerak bo'ladigan vaqt;
- talab qilinadigan omborlar maydoni;
- harid harajatlari;
- korhonada ayrim detallarni mustaqil ishlab chiqarish imkoniyati.

Istemolchiga ohirgi maxsulotni etkazib berish vaqtidan kelib chiqqan xolda etkazib berishning brutto istemoli mavjud. Brutto istemoli keyinchalik netto istemoliga o'tkaziladi. Bunda quydagilar xisobga olinadi: naqd zahira; buyurtma berilgan materiallar va rivojlantirilgan ishlab chiqarish.

Birinchi usul - buyurtmani bajarish davri, miqdor xamda muddat bo'yicha materiallarga extiyoj malum bo'lganda qo'llaniladi. Ikkinchisi - xisob - kitoblar uchun matematik statistik usullar asos bo'lgan extiyoj uchun qo'llaniladi. 3-usul yordamida ishlarning tajribasiga ko'ra extiyoj aniqlanadi. Ko'rib o'tilgan barcha usullar o'zining ijobjiy va salbiy tomonlariga ega. Bu usullardan birini tanlash quydagilarga bog'liq:

- firma yo'nalishi;
- buyurtmalar imkoniyati;
- maxsulot turi;
- omborlar turi va soni;
- zahiralar xolati ustida nazorat tizimi.

**Harid usulini aniqlash.** Harid usulini tanlash ohirgi maxsulot murakkabligiga komplektlanuvchi maxsulot va materiallarning tarkibiga bog'liq. Harid qilishning asosiy usullari:

- ulgurji harid;
- mayda partiyalar bilan doimiy harid;
- extiyoj meyordagi harid.

Tez - tez qo'llanuvchi usullardan ayrimlarini ko'rib o'tamiz:

1. Tovarlarning bir guruxli haridi.

Afzalliklari: xujjatlarni rasmiylashtirishning oddiyligi; barcha tovar guruxlarini etkazishning kafolati; savdo chegirmalarining yuqoriligi.

Kamchiligi: katta maydondagi omborlarga extiyoj; kapital aylanishining sekinlashuvi.

2. Mayda guruxlar bilan doimiy harid.

Afzalliklari: kapital aylanishini tezlashtiradi, ombor maydonlarini tejaydi; etkazib berishni xujjatlashtirish harajatlari kamayadi.

Kamchiliklari: zarar keltiradigan tovarlarning zarurati.

3. Zarurat darajasida tovar olish.

Uning o'ziga hos hususiyatlari quyidagilar: etkazib beriladigan tovarlar miqdori o'rnatilmaydi balki tahminan belgilanadi; tovar etkazib beruvchilar xar bir buyurtmani bajarishdan oldin sotib oluvchilar bilan bog'lanishadi, etkazib berilgan tovargagina pul to'lanadi va x.k. Afzalliklari: qatiy majburiyatlar yo'qligi; kapital aylanishining tezlashishi.

4. Tez o'tkazish sharti bilan tovar haridi. Bu uslub tez-tez qo'llanilmaydigan tovarlar uchun ishlatiladi. Kamchiligi rasmiylashtirish bo'yicha harajatlarning oshishidir.

***Buyurtmani xujjatli rasmiylashtirish.*** Haridni xujjatlashtirish bo'yicha standart xujjatlarda quyidagi xolatlar ko'zda tutishi lozim: 1) Xujjat nomi; 2) Tartib raqami; 3) Kompaniya nomi va manzilgoxi; 4) Buyurtma uchun javobgarlik; 5) Sana, tovar etkazib beruvchi nomi va manzilgoxi; 6) Etkazib berish muddati va etkazib beriladigan tovarlar miqdori; 7) Tovar tavsifi; 8). Mol etkazib berish manzilgoxi; 9) Narh; 10) Xisob - kitob.

***Harid va ishlab chiqarishni tashkil qilish.*** Extiyoj aniqlangandan keyin firma oldida tovarni harid qilish yoki uni o'zi ishlab chiqarish muammosi turadi. Buni xal qilish uchun quyidagilarga etibor qilish kerak: etkazib berish narhi; buyurtmani rasmiylashtirish harajati; etkazib berish; sug'urta; qadoqlash, omborga joylashtirish; qayta ishlash, homashyo, energiya, ishchi kuchi, harajatlari, solishtirilgandan s o'ng firma sotib olish yoki ishlab chiqarish to'g'risida malum qarorga kelishi mumkin.

#### ***Etkazib berilgan maxsulotni olish va kodlashtirish.***

1. Maxsulotni qabul qilish uchun birinchi navbatda quyidagilarga ishonch hosil qilish lozim:

Tovar:

- a) kerakli miqdorda;
- b) kerakli sifatda;
- v) tovar etkazib beruvchisidan;
- g) kelishilgan vaqtida;
- d) kelishilgan narhda qabul qilingan.

2. Etkazib berishni rasmiylashtirish. Operasiyalarni to'g'ri bajarishda xujjatlarni rasmiylashtirishga etiborli bo'lish kerak.

Buyurtma nushasi istemol bo'limiga jo'natiladi. Yuklash xujjati maxsulot jo'natishga tayyor bo'lgandan keyin tuziladi. Kuzatib boruvchi yo'lida tovarlar bilan birga bo'lishi kerak va x.k.

Etkazib beruvchi xujjatida quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

- jo'natuvchi nomi va manzilgoxi;
- maxsulot tavsifi;
- joy miqdori;
- etkazib berish hususiyatlari;
- etkazuvchi nomi.

Tovar olganligini tasdiqlash xujjati istemol bo'limi va buhgalteriyaga nazorat uchun beriladi.

**Takliflarni qabul qilish va baxolash.** Doimiy mol etkazib beruvchilardan taklif olish va uni baxolash jarayoni turlicha tashkil qilinishi mumkin. Keng tarqalgan va samaralisi quyidagilar xisoblanadi:

- 1) Tanlovli savdo.
- 2) Mol etkazib beruvchi va istemolchi o'rtasida yozma kelishuv.

Tanlovli savdo (tenderlar) doimiy mol etkazib beruvchilarni izlashning keng tarqalgan shaklidir. Tenderni o'tkazish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- reklama;
- tenderli xujjatlarni ishlab chiqarish;
- tenderli hujjatlarni chop etish;
- tenderli takliflarni qabul qilish;
- tenderli takliflarni baxolash;
- savdo qatnashchilarining malakasini tasdiqlash;
- shartnoma taklifi.

Tenderli xujjatlashtirish, qoida bo'yicha, etarlicha katta xajmga ega bo'lib, 1 qator muxim funksiyalarni bajaradi:

- tender qatnashchilariga savdo jarayoni to'g'risida yo'l - yo'riq ko'rsatadi;

- harid qilinadigan tovar va hizmatlarga tavsif beradi;
- taklifni baxolash shartlarining mezonlarini o'rnatadi;
- keyingi shartnomalar shartlarini aniqlaydi.

Baxolash jarayonining asosiy qoidalari quyidagilar:

- tender tashkiloti azolarini oldindan belgilash;
- talabga javob beruvchi takliflarni ko'rib chiqish;
- tender xujjatida keltirilgan baxolash qoidalariiga to'liq amal qilish;
- savdo qatnashchilari bilan qandaydir kelishuvlarning bo'lmasligi.

Yozma kelishuvda kelishuv qatnashchilari rasmiy tovar etkazish to'g'risida taklif olishadi. Bu 2 hil usul bilan amalga oshishi mumkin. Birinchisida, shartnama tuzish tashabbusi tovar sotuvidan chiqadi. U o'zining doimiy haridorlariga ofertalar jo'natadi. Odatda ofertalar quyidagi rekvizitlarni o'z ichiga oladi:

- tovar nomi;
- tovar miqdori va sifati;
- narh;
- etkazib berish sharti va muddati;
- t o'lov sharti;
- tara va qadoqlash tavsifi;
- qabul qilish - uzatish sharti;

Ofertalar qattiq va erkin tarzda b o'lishi mumkin.

2-usulda shartnama tuzish tashabbusi tovarni sotib oluvchidan chiqadi. U doimiy mol etkazib beruvchilarga tijorat hatini jo'natadi. Unda barcha yuqoridagi rekvizitorlar ko'rsatilgan bo'ladi.

### ***Mol etkazib beruvchini tanlashdagi asosiy talablar***

Mol etkazib beruvchini tanlashda 2 asosiy mezon mavjud:

- 1) maxsulot ishlab chiqarish va hizmat ko'rsatish baxosi.
- 2) hizmat ko'rsatish sifati.

Bulardan tashqari unchalik asosiy bo'lmagan 60 dan ziyod mezonlar mavjud.

Ularning ayrimlari quyidagilar:

- mol etkazib beruvchining istemolchidan uzoq joylashgani;
- joriy va tezkor buyurtmalarni bajarish muddati;
- mol etkazib beruvchida maxsulot sifatini boshqarishning tashkil qilinganligi va boshqalar.

Sanab o'tilgan mezonlarni qo'llashda turli manbalardan keluvchi ahborotlarni yig'ish lozim. Ushbu manbalarga quyidagilar kiradi:

- shahsiy kuzatuv;
- maxalliy manbalar;
- bank va moliyaviy institutlar;
- mavjud mol etkazib beruvchining raqobatchilari;
- savdo assosiasiyalari;
- ahborot agentliklari;
- davlat manbalari;

### ***Haridorning xuquqiy asoslari***

Takliflar va qabul qilingan takliflar. Shartnoma ikkala tomonning oldi - sotdidagi roziligi bilan tuziladi va yozma tarzda rasmiylashtiriladi. Moliyaviy shartlar. Shartnoma qiymatiga ega bo'lishi kerak, yani unda moliyaviy shartlar ko'rsatilgandagina u xaqiqiy xisoblanadi. Shartnoma tuzish xuquqi. Bunday xuquqqa faqat masul shahslargina ega. Masalan: direktor, bosh direktor va boshqalar. Qonuniylik. Shartnomaning qonuniy bo'limi mamlakatning yuridik meyorlariga javob berishi lozim.

***Shartnoma sharti.*** Shartnoma tizimi turli shartlarning o'zaro kelishuvini ko'rsatadi. Aniq ko'rsatilgan shartlar, bu shartnoma mazmunidan kelib chiqadigan shartlardir. Shart sifatida shartnomada zarurlarni qoplash xam ko'rsatilgan bo'lishi mumkin. Bu jarima xisoblanib, oldindan qatiy belgilangan tartib va shartlarda undiriladi. Zarurlarni qoplashdan farqli ravishda jarima summasi o'sib boruvchi, yani shartlar o'z vaqtida bajarilmaganda olib boruvchi

xisoblanadi. Agar kechikish mol etkazib beruvchiga bog'liq bo'lgan shartda kelib chiqish ko'zda tutilgan bo'lsa, u xolda shartnomada fors - major shartini o'rGANISH kerak.

**Shartnomा tuzilishi.** Shartnomा tuzilishi quyidagi tartibda bo'lshi kerak:

- Shartnomा predmeti;
- Tovar miqdori;
- tovar sifati;
- shartnomা summasi va xisob - kitob tartibi;
- qadoqlash va markerlash;
- tovar etkazish;
- tovar qabul qilish;
- fors - major;
- tomon majburiyatlari;
- kelishmovchiliklarni xal qilish;
  - boshqa shartlar;

Buyurtma berilgan tovarlarga xisob olish shartnomа bajarilishining ohirgi bosqichi xisoblanadi. Barcha xisoblarni bir qancha asosiy qoidalarga ko'ra tekshirib ko'rish kerak:

- xisob - kitobni qabul qilishda, u aynan sizga tegishli ekanligiga ishonch hosil qiling;
- buyurtma raqamini tekshiring. Agar xujjatlarda qarama-qarshilik bo'lmasa, buhgalteriya xisobini to'laydi. Xisoblarni to'lashda turli usullardan foydalanish mumkin:
  - to'lov talabnomasiga asosan xisob-kitob;
  - akkreditiv bo'yicha xisob-kitob;
  - inkassa bo'yicha xisob-kitob;
  - cheklar bo'yicha xisob-kitob;

Yuqorida sanab o'tilgan xisob-kitoblarga asosan, to'lov: qismlab; oldindan to'liq to'lash; ohirida to'liq to'lash va boshqa tartibda amalgalama kerak.

oshirilishi mumkin. Xar qanday xolda xam u oldi - sotdi shartnomasida ko'rsatilgan bo'ladi. Tezkor yoki oldindan to'lash tovar sotib olishda chegirma qilish xuquqini berish mumkin. Boshqa tomondan, to'lovni kechiktirish, uni sotib oluvchi tomonidan boshqa maqsadlarda ishlatishni bildiradi. Shunga muvofiq, to'lov usulini tanlashda uning afzallik va kamchiliklarini diqqat bilan o'rGANIB chiqish xamda buning natijasida sizga qanday foyda va zarar tegishini aniqlab olish zarur.

***Logistika tizimida nazoratni o'matish.*** Logistika tizimi tashkilotda boshqaruvni samarali tashkil etishga yordam beradi, qaysiki u boshqaruv jarayoniga bog'liq bo'lмаган xolda bir qancha harakterli hususiyatlarga egalik qiladi, ular quyidagilar:

- tashkilotning strategik maqsadlarining mavjudligi;
- strategik maqsadlar uchun bo'yasinadigan taktik (rejani) maqsadni ishlab chiqish;
- aniq maqsadlarga mos keladigan o'lchov birliklarini to'g'ri tanlash;
- tanlangan birlikning nazorat raqami yoki aniqlangan meyori (masalan, buyurtmani bajarish muddati);
- boshqaruv jarayoni xaqidagi ahborotlarni standart, meyor yoki nazorat raqamlari bilan qiyoslash;
- qiyoslash natijalari bo'yicha qaror qabul qilish;
- boshqaruv tasiri natijalarini nazorat qilish.

Yuqorida aytilganlarni amalga oshirishni tartibga solish logistika tizimida nazoratni o'matishga yordam beradi.

### **Mustaqil ishslash va o'z - o'zini nazorat qilish uchun savollar:**

1. Bojhona logistikasini bojhona siyosatida tutgan o'rnini tushuntirib bering?
2. Material ishlab chiqarish extiyojlarini qondirish uchun qanday zaruriy masalalarni echish zarur?
3. Harid logistikasida qanday tovar bozorlari taxlil qilinadi?

- 4.Firmalarda logistik faoliyatni boshqarishning mukammallashtirilgan asosiy yo'nalishlarini ayting.
- 5.Logistika tizimlarida nazoratning axamiyatini ayting.

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. I.A.Karimov – O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari, tarakkiet kafolatlari. T: O'zbekiston, 1997 y
2. V.G.Svinuhov – Tamojenno-tarifnoe regulirovanie VED, M., Ekonomist, 2004
3. E.F.Avdokushin – Mejdunarodnye ekonomicheskie otnosheniya. M: IVS «Marketing», 1997 g
4. V.I.Fomichev – Mejdunarodnaya torgovlya. M: Infra- M, 2001 g
5. Mejdunarodnye ekonomicheskie otnosheniya, uchebnik, pod red. I.P.Fominskogo, M., Ekonomist, 2004 g.

#### **4.3. Bojhona taomillarini soddalashtirish va halqaro savdo**

Erkin savdo va bojhona ittifoki buyicha kelishuv jahon hamjamiyati mamlakatlarida keng tarkaldi. Rakobatbardoshlikni kuchayishi sharoitida jahon iktisodiy sistemasi iktisodiy mavkeini mustahkamlash maksadida boshka chet-el mamlakatlar bilan shartnoma tuza boshladilar. Mamlakatlar, ular urtasida tovarlar, kapital va hizmatlarni erkin harakatlanishi uchun uzaro kelishuvlar imzolaydilar. Bunday kelishuvlarning kupchiligi halkaro va mamlakatlar urtasida hududiy harakter kasb etadi. Bularga Evropa ittifoki (EI), Butun jahon savdo tashkiloti (BJST), Butun jahon bojhona ittifoki (BJBT), Evropa erkin savdo assosiasiasi (BJSA), Erkin savdo buyicha shimoliy Amerika kelishuvi (ESBSHAK), Shimoli - Sharkiy Osiyo mamlakatlari assosiasiasi (ASEAN), erkin savdo buyicha markaziy Evropa mamlakatlari assosiasiasi, Shimoli-Sharkiy Afrika mamlakatlari umumiy bozori (KOTESA) va MDH mamlakatlari bojhona hamkorligi tashkiloti, «Shanhay beshligi» hamkorlik tashkiloti va Markaziy Osiyo mamlakatlari iktisoliy hamkorlik tashkilotlarini misol kilib keltirish mumkin.

Evropa va shimoliy Amerika kelishuvi doirasida johon savdosini 40% foizi amalga oshiriladi. Evropa ulushiga jahondagi savdo operasiyalarini yarmi tugri keladi, Amerika zimmasiga jahon savdo operasiyalarini 1/6 kismi tugri keladi. Shunday kilib umumiy tashki savdo operasiyalarining 2/3 kismi savdo kelishuvlariga azo mamlakatlar tomonidan amalga oshiriladi.

Uziniig rivojlanish yulida integrasiya bir necha mikdoriy va sifat boskichlaridan utdi.

- 1.Ochik savdo hududi (OCHH )
- 2.Bojhonalar ittifoki (BI)
- 3.Yagona yoki uumiy bozor (UB)
- 4.Iktisodiy va valyuta ittifoki (IVI)

Ochik savdo hududi iktisodiy birlashuvni eng sodda shakli bulib, unda katnashuvchi tomonlar uzoro tovar savdosining iktisodiy tusiklarini olib tashlash

buyicha tadbirlarni amalga oshiradilar, lekin bir vaktning uzida katnashuvchi tomonlar uzining uchinchi mamlakatlarga nisbatan iktisodiy siyosatlarini olib bordi. Boshkacha kilib aytganda ochik savdo hududlarini uziga hosligi bulib:

- tovarlar savdosini bojhona va mikdoriy chegaralashlardan ozodligi;
- boskichma - boskich uzoro bojhona talablari va notarif usullarini bekor kilish;
- bir tomonlama notarif tusiklari va bojhona bojlarini kiritmaslik.

Bu esa «erkin savdo» hududiga kirayotgan davlatlarni halkaro tashki iktisodiy faoliyat savdo amaliyatida tez moslashishga olib keladi.

Ochik savdo hududlarini faoliyatini boshkarish mahalliy davlat boshkaruvi aralashuvvisiz amalga oshiriladi.

Barcha kabul kilingan karorlar ochik savdo hududi kelishuviga azo mamlakatlarning oliv mansabdar shahslari yoki iktisodiy masalalar buyicha vazirlik va idoralar rahbarlari tomonidan siyosiy yullar bilan hal kilingan. Bu kabul kilingan karorlar ushbu boskichda tashki iktisodiy faoliyat ittifokchilari tomonidan bajarilishi majbur bulgan karorlar hisoblanadi.

Erkin savdo hududlari tashkil etish ayrim mamlakatlar iktisodiyoti uchun salbiy harakter kasb etish ham mumkin. Bu esa bazi bir milliy tovar ishlab chikaruvchilarni ayrim chet-el tovar ishlab chikaruvchilarining sifatli tovarlari oldida inkirozga uchrash havfini tugdiradi va ayrim hollarda bu maksadlariga ham erishadilar.

Natijada importyorlar milliy tovar ishlab chikaruvchilarni uz bozoridan sikib chikaradilar. Shuning uchun ham milliy tovar ishlab chikaruvchilarga davlat yordami zarur buladi.

Erkin savdo hududlarini hammasini kamrab olgan hudud bulib, 1994 1-yanvarda kuchga kirgan Shimoliy Amerika erkin savdo buyicha kelishuvi hisoblanadi. Bu kelishuv AKSH, Meksika va Kanada mamlakatlari hukumatlari tomonidan imzolangan.

Bu ochik savdo hududi doirasida yagona tashki savdo tarifi amal kiladi va yana bu kelishuvni yahshi tomoni Shimoliy Amerika erkin savdo kelishuviga azo mamlaktlar hududida savdo tarifi umuman yukligi bilan ajralib turadi.

Bu kelishuvning uziga hos tomoni yana shundaki bunda investisiyalar ham “Savdo tugrisidagi kelishuv” ning bir kismi hisoblanadi.

Shimoliy Amerika erkin savdo kelishuvi tovarlarni harakatini, kelib chikishni tasdiklovchi yagona jarayonini, tashki iktisodiy faoliyatni savdo-bojhona orkali tartibga solishda va boshka koidalarini soddalashtirishda asosiy halkaro tashkilot hisoblaydi.

Halkaro iktisodiy integrasiyani keyingi boskichi bu Bojhona Ittifoki hisoblanadi. Bojhona ittifoki uz navbatida ittifokka azo mamlakatlar orasida bojhona bojlarini bekor kilish, tashki bojhona tarifini kiritish va ittifokka azo bulmagan uchinchi mamlakatlarga yagona tashki savdo siyosatini olib borish bilan shugullanadi va buni amalga oshirish ustidan nazorat olib boradi. Shunday kilib, “Bojhona ittifoki”ga azo mamlakatlar uchinchi mamlakatlarga nisbat savdo siyosatini olib borishni Ittifok boshkaruvi organiga saylangan azolar belgilaydilar. Masalan 1967 yil Shimoliy-Sharkiy Osiyo davlatlari Assosiasiysi Bojhona ittifoki yoki erkin savdo hududi kurinishida tashkil etilgan. Bu ittifok doirasida azo mamlakatlar iktisodiy integrasiya tugrisida, iktisodiy hamkorlikni rasmiy chukurlashtirish va bojhona hamkorligi tugrisida chukur uylamokdalar. 1992 yil ASEAN ga azo mamlakatlar ochik savdo hududi tashkil etish buyicha 15 yilga, 1995 yilga kelib esa bu ochik savdo hududini muddati 10 yilga kiskartirildi.

ASEAN ga azo mamlakatlarda tarif tovar kayta ishlanganlik darajasi atrofida belgilangan bulib ular 15 ta tovar kategoriyalari uchun tarif stavkalarini kamaytirish muljallangandi. Tovarlarni kelib chikish koidasiga asosan tovarlar ASEAN da ishlab chikarilgan bulishi uchun tovarning kamida 40% kismi unga azo mamlakatlarda ishlab chikarilgan bulishi kerak. Halkaro iktisodiy integrasiyani yukori darajasi bulib **yagona yoki umumiyl bozor** hisoblanadi,

chunki bu sistemada kapital va mehnatning erkin harakati taminlanadi. Bojhona poshlinalarini kiskartirish, yagona tashki savdo bojhona tarifni yaratish. Bojhona ittifokiga azo mamlakatlar uz faoliyatları davrida yagona yoki umumiyl bozor yaratish uchun shart-sharoit yaratadilar. Buning uchun: yaratilgan mehanizm va vositalardan tashkari azo mamlakatlarni iqtisodiyotini ayrim tarmoklarini rivojlantirish umumiyl siyosatini ishlab chikish, kapitallarni erkin harakatiga, ishchi kuchi erkin harakatiga, hizmatlar va ahborotlarning erkin harakatiga tovarlarni har kanday tusiklarsiz harakatiga sharoit yaratish; sosial va hududiy rivojlanishda umumiyl fondlarni shakllantirish, bu haridorlar va yashovchi aholini itegrasion jarayonni ustunligini real his etilishlariga olib keladi.

Asosiy urin rakobatni tartibga soluvchi konunlarni buzulishiga yul kuymaslikka ajratiladi.

### **Mustaqil ishlash va o’z - o’zini nazorat qilish uchun savollar:**

1. Mamlakatning iqtisodiy havfsizligi nima?
2. Iqtisodiy havfsizlikni taminlash omillari.
3. Ochik iqtisodiy hududlar va ularni mamlakat iqtisodiy rivojidagi o’rni.
4. Ochik iqtisodiy hududlarni turkumlanishi.
5. Iqtisodiyoti o’tish davrida bo’lgan mamlakatlarda erkin iqtisodiy hududlarni o’rni nimada?
6. Rivojlangan mamlakatlarda erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etilish tarihi.
7. Offshor hududlar va ularni mamlakat iqtisodiy havfsizligiga tasiri qanday?
8. O’zbekiston Respublikasi erkin iqtisodiy hududlarni tashqil etilish tarihi kanday?
9. Ochik iqtisodiy hududlar tashkil etish bo'yicha Hitoy tajribasi to'g'risida gapiring?
10. Ochik iqtisodiy hudud tashkil etish bo'yicha Rossiya tajribasi qanday?

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. I.A.Karimov – O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida: havfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari, taraqqiyot kafolatlari. T: O’zbekiston, 1997 y
2. V.G.Svinuhov – Tamojenno-tarifnoe regulirovanie VED, M., Ekonomist, 2004
3. E.F.Avdokushin – Mejdunarodnye ekonomicheskie otnosheniya. M: IVS «Marketing», 1997 g
4. V.I.Fomichev – Mejdunarodnaya torgovlya. M: Infra- M, 2001 g
5. Mejdunarodnye ekonomicheskie otnosheniya, uchebnik, pod red. I.P.Fominskogo, M., Ekonomist, 2004 g.

## **V. BUTUN JAHON SAVDO TASHKILOTI HALQARO SAVDONI RIVOJLANTIRISHNI HALQARO INSTITUTIDIR**

Dunyoning aksariyat davlatlarida tabiiy resurslarning kamligi, o'z extiyojlar uchun zarur tovarlarni ishlab chiqarish imkoniyatining chegaralanganligi halqaro savdoning rivojlanishiga tasir ko'rsatadi. Halqaro savdo mamlakatning ihtisoslashuvini rivojlantirish orqali o'z resurslaridan unumli foydalanish va samaradorligini oshirish extiyojidan kelib chiqadi. Lekin mana shu extiyojlar talab darajasidan ortib ketsa, tashqi savdoni boshqarishda noaniqliklarga yo'l qo'yilsa, ortiqcha tovarning to'planib qolishi, milliy tovarning istemol bozoridagi narhining tushib ketishi yoki zarur tovarlarning chetga chiqib ketishi, ichki bozorda axolining xarid qobiliyatining pasayishi va narh - navoning ko'tarilishi milliy valyutaning qadrsizlanishiga olib kelishi mumkin. Butun jahon savdo tashkiloti halqaro savdoni rivojlantirishni halqaro institutidir. Halqaro tashqi savdoni iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish xuquqiy jixatdan taminlovchi qonunlar qabul qilinishi, tashqi savdo uchun imtiyozlar berilishi, yani tovarlarni import va eksport qilish uchun bojhona to'lovleri ancha kamaytirilishi, O'zbekistonni horijiy mamlakatlar bilan aloqalarini va tashqi savdoning tez suratlar bilan o'sishini taminlaydi.

### **5.1. BJST tashkil etish tarifi**

#### *Butun Jahon Savdo Tashkiloti (BJST)*

<i>SHTab-kvartira :</i>	Jeneva, SHveysariya
<i>Tashkil topgan yili:</i>	1995 yil 1 yanvar
<i>Acoci:</i>	Urugvay raundi asosida (1986-1994)
<i>Azolari:</i>	148 mamlakat (2004 yil tahmini)
<i>Byudjeti:</i>	143 million shveysariya frankasi
<i>Boshkaruv apparati:</i>	500 kishidan ortik
<i>Boshkaruvchi:</i>	Bosh kotib

Savdo va tariflar buyicha bosh kelishuv (GATT) halqaro savdoning boj tarif jihatlarini tartibga soluvchi eng muhim tuzilmadir. Prezidentimiz aytganlaridek butunjahon savdo tashkiloti jahon savdosining hozirgi tizimini boshkarishda markaziy urinni egallab turibdi. Savdo va tariflar buyicha bosh kelishuv (GATT) 1948 yil 1 yanvardan boshlab faoliyat kursata borib davlatlararo tovar aylanmasi hajmini kengaytirish maksadida halqaro savdoning barkaror foydalarini karor toptirish eng asosiy koidasi diskriminasiya kilmaslik tamoyilidir. Bu tamoyil eng kup kulaylik berish shaklini olib bu tashki savdo ishtirokchilarining hammasini tengligini taminlash va ularni diskriminasiya kilmaslik tugrisidagi tezisdir. Eng kup kulaylik berish ishtirokchi davlatlar uzaro etkazib berayotgan tovarlarga nisbatan har kanday uchinchi tomon tovarlariga nisbatan qo'llanilayotgan boj stavkalaridan yukori bulmagan boj stavkalarini kullash majburiyatini bildiradi. Lekin bu tezis mahsus integrasion guruhlar tashkil etilgan hollarda undan chekinishga ruhsat beradi.

Butunjahon savdo tashkilotining ikkinchi tamoyili tashki savdoni tartibga solish usullari qo'llanishining huquqiy asoslangan tamoyillaridir, GATT shunday usul sifatida fakat bojlarni tan oladi.

Bir tomonlama -har bir mamlakat mustakil ravishda savdo siyosatini amalga oshiradi. Masalan O'zbekiston Respublikasi 1997 yilda eksport bojini bekor kildi. Ikki tomonlama -bunda ikki yoki undan ortik mamlakatlar ittifok tuzib uzaro kelishuv tuzadilar. Savdo va tariflar buyicha bosh kelishuvning (GATT) asosiy tamoyillari karorlarni kabul kilish va chora tadbirlarni amlga oshirish. Bu eng avvalo bir taraflama harakatlarni uzaro muzokaralar va maslahatlar foyidasiga voz kechishdir. Ishtirokchi davlatlar tashki savdoni cheklashga karatilgan bir taraflama tadbirlarni amalga oshirmaslik majburiyatini oladilar. Barcha karorlar fakatgina savdo masalasiga karatilgan uzaro muzokaralar doirasida kabul kilinadi.

Savdo va tariflar buyicha bosh kelishuv (GATT) Butunjahon savdo tashkiloti (VTO) uz faoliyatini kup tomonlama davra uchrashuvlarini tashkil etish orqali

utkazadi. Har bir davra uchrashuvi halqaro savdoni rivojlantirishga karatilgan malum bir global masalani echishga karatilgan buladi. Butunjahon savdo tashkiloti tashkil etilgandan beri utgan davr ichida shunday davra uchrashuvlvidan 8 tasi utkazildi. Misol uchun birinchi davra uchrashuvi 1947 yili Jeneva shahrida tashkil etilib, bu uchrashuvda boj tariflarini pasaytirish masalasi hal kilindi. Ikkinchi uchrashuv ana shu masalani hal kilishni davom ettirishga karatilgan bulib, Fransiyaning Annesiya shahrida 1949 yil bulib utdi. Boj tariflarini pasaytirish masalasi shu tashkilotga azo bo'lgan mamlakatlarni tashki savdosi uchun dolzarb masalalardan biri bo'lgani uchun hali bu masalani echish GATTning keyingi raundlarida ham davom ettirilgan. Hususan 1950 yili Angliyaning Tokki shahridagi raundida, 1956 yili Jeneva shahridagi raundda 1960-1961 yillardagi Jnevadagi Dillond raundlarida shu masala hal kilindi.

Butunjahon savdo tashkilotining 1964-1967 yillarda Jeneva shahrida bulib utgan Kennedy raundida dempingga karshi boj kodeksi ishlab chikildi. 1973-1979 yillarda Tokioda boshlangan va Jnevada davom ettirilgan Tokio raundida esa notarif tusiklar masalasida GATT vakolatlarini kuchaytirish va kengaytirish masalasi kurligan. Va nihoyat 1986 yilda Urugvay mamlakatini Puntadel Este shahrida boshlanib Jeneva shahrida davom ettirilgan Urugvay raundida boj tusiklarini kamaytirish, GATT mihanizmini yahshilash, Butunjahon savdo tashkilotini tuzish hakida kelishuv hizmatlar savdosi buyicha bosh kelishuv (GATS) ishlab chikilgan.

1991 yil 1 yanvar holati buyicha Butunjahon sada tashkilotiga 140 dan ortik mamlakatlar tulakonli azo bo'lgan. Bunga kushimcha 30 dan ortik mamlakatlar kuzatuvchi makomidan foydalanib, shularning 30 ga yakini butunjahon savdo tashkilotiga azo bulishning turli boskichlarida turibdi. Uzbekiston Respublikasi ham 1994 yilning iyul oyida Butunjahon savdo tashkilotiga kushilish istagini bildirib, uning Jnevadagi kotibiyatigi yozma murojaat etdi va shu yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi shu tashkilotda kuzatuvchi makomidan foydalanib kelmokda.

## **5.2. BJST ni asosiy tamoyillari va ularni iqtisodiy mohiyati**

Jahon Savdo Tashkilotining Bitimlari hayotiy faoliyatning kupgina sohalarini kamrab olganligi sababli juda murakkab va keng kirrali Bitimlar hisoblanadi. Ular kishlok ho'jaligi, tekstil va kiyim-bosh, bank ishi, telekommunikasiya, davlat haridlari, sanoat standartlari, ozik-ovkat mahsulotlari bilan boglik sanitar koidalari, intellektual mulk va boshka kupgina sohalarga taallukli normalarni o'zida mujassam etgan. Mazkur normalarning barchasi, ular kaysi sohaga tegishliligidan kati nazar, anik tamoyillar asosida amal kiladi. Ushbu tamoyillar kurtomonlama jahon savdo tizimining asosi bulib hisoblanadi. Ular kuyidagilardan iborat:

1. *Savdo tizimi hech kanday diskriminasiyalarsiz amalga oshirilmogi lozim.* Mamlakat uz savdo hamkorlari o'rtasida kamsitishlarga yul kuymasligi kerak (ularning barchasiga malum darajada «eng kulay rejim» makomi takdim etiladi), shuningdek mamlakat uz tovarlari, hizmatlari va fukarolari hamda chet el tovarlari, hizmatlari va fukarolari o'rtasida biron bir kamsitishga yul kuymasligi kerak (ularga milliy rejim takdim etiladi).
2. *Savdo tizimi imkon kadar erkinrok bulishi kerak.* Bunda uzaro savdo alokalariga kirishayotgan mamlakatlar uzlarining savdo buyicha cheklashlarga doir turli tusiklarni muzokaralar va turli kelishuvlar yordamida kamaytirish orqali erishadilar.
3. *Savdo tizimi oldindan kura bilish uchun kulay bulishi kerak.* Savdoga kirishish niyatida bo'lган chet el kompaniyalari, sarmoyalorlari va hukumatlari turli savdo tusiklari, jumladan, tariflar, tarifsiz tusiklar va boshka choralar uz-o'zidan ortmasligiga, shuningdek, tarif stavkalari va bozorlarning ochik bulishini taminlash buyicha vazifalar Jahon Savdo Tashkiloti doirasida yanada majburiy harakter kasb kilishiga ishonch hosil kilishlari kerak .
4. *Savdo tizimi yukori darajada rakobatbardosh bulishi kerak.* Ushbu tamoyilga amal kilishda bozorni egallash maksadida yul kuyiladigan turli kurinishdagi

«adolatsiz» hatti-harakatlar, masalan subsidiyalash, demping va shu kabilardan saklanish talab kilinadi.

*5. Savdo tizimi, hususan kolok mamlakatlar uchun ham foydali bulishi kerak.* Mazkur tamoyilning amal kilishi iqtisodi unchalik yukori darajada rivojlanmagan va kolok mamlakatlarga mahsus imtiyozlar, kushimcha engilliklar takdim etish, moslashish uchun zarur bo’lgan uzok muddatli vakt ajratish va boshka erkinliklar berishni talab kiladi.

